

Xiva Ichan qal'a Davlat muzey qo`riqxonasi
Xorazm Ma'mun akademiyasi

Dilmurod Bobojonov, Maqsudbek Abdurasulov

FIRDAVSMONAND SHAHAR

Xiva-2008

*Qiziqarli hikoya va rivoyatlari bilan ona Vatanni,
tabiatni, jonajon shahrimizni sevishga o'rgatgan ustozimiz
Soburjon Yusupov xotirasiga bag'ishlaymiz.*

Mualliflar

Taqrizchilar:

T.f.n. A.Abdurasulov

T.f.n. K.Xudayberganov

© D.Bobojonov, M.Abdurasulov “Firdavsmonand shahar”, 2008.

© Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyoti, 2008.

So'z boshi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 3-yanvardagi maxsus qarori bilan mamlakatimizning ikki azim shahri - Buxoro va Xivaning 2500 yilligini 1997-yilda nishonlanishi belgilanib, bu ikki buyuk shaharning jahon madaniyati tamadduniga qo'shgan hissasi 1995-yili Parij shahrida bo'lib o'tgan YuNESKOning Bosh konferentsiyasida alohida qayd qilib o'tilgan edi. Dunyoga mashhur bo'lgan yetti mo'jizaning biri, YuNESKO Bosh direktori Federiko Mayor Sarogosaning ta'biri bilan aytganda "Jahon shaharlari olmosi – Xivadir".

Yer kurrasida mashhur bo'lgan Afina, Qohira, Rim shaharlari tengdoshi bo'lgan bu shahar jahon madaniyati me'rosiga qabul qilingan 100-shahar bo'lib dunyoga al-Xorazmiy, az-Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Abulg'oziy Bahodurxon, Muhammad Rahimxon, Munis, Ogahiy va Bayoniy kabi buyuk zotlarni yetkazib bergan azim zamin hisoblanadi.

Ota bobolarimiz juda yuksak ta'riflagan Xiva shahrining haqiqiy tarixini moziyning uzoq qa'ridan – milodgacha bo'lgan oxirgi ming yillikning dastlabki asrlaridan izlamoq lozim. Chunki shaharga aynan o'sha davrlarda asos solingan. Rivoyat qilishlaricha, yaratganning irodasi bilan ro'y bergan butun olam toshqini bir qadar tinchib, kurrai zamin bahrida orollar hosil bo'la boshlaganida, Nuh payg'ambarning kemasi Xorazm vohasini yoqalab o'tadi. Shunda Nuh payg'ambarning o'g'li Som otasidan ruxsat olib sohilga tushadi va shu yerda tunab qoladi. Tushida unga atrofida minglab mash'alalar yonib turgani ko'rinadi. Ertasi tongda tushining ta'birini otasidan so'rganida, otasi unga bu joylar muqqadas ekanligini aytib, o'sha joyning atrofini qo'rg'on bilan o'rab olishini va uning ichida aholi uchun turar joylar qurishini amr etadi. O'g'il otasining da'vatini bajarishga qattiq bel bog'lab, jannatda ta'rif etilganidek, bir ko'rkam shahar barpo etadi. Buyuk karvon yo'lida joylashganligi uchun u yerda savdogarlar tez-tez bo'lib turishardi. Shaharga tushib, uning chuqur qudug'idan chiqayotgan obihayotidan bahra olgan yo'lovchilar hayratdan "xey-voh" deb yuborishgan. Buni o'zlaricha talqin qilgan mahalliy aholi shaharni "Xey-voh", "Xayva", "Xivaq" deb atab boshlashgan.

Bu o'zida ajdodlarimiz kechmishini mujassamlashtirgan bir rivoyat, xolos. Ammo O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yahyo G'ulomov nomidagi Arxeologiya institutining Qoraqalpog'iston bo'limi olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida bu rivoyatning haqiqatga yaqinligini isbotlovchi ko'plab dalillar topildi.

Xiva ko'p qirrali va boy tarixga ega shahar. Hali uning o'rganilmagan sahifalari juda ko'p. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov 1997-yil 20-oktabrda bo'lib o'tgan Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimida so'zlagan tarixiy nutqida qator ilmiy muammolarni o'rtaga tashladi. Bular ichida Xiva shahrini jahon tamadduniga qo'shgan hissasini chuqur tahlil qilish, Xorazmda birinchi bor o'zbek davlatchiligiga asos solinishi, bu o'lkada shakllangan dunyoviy dinlardan biri bo'lmish zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi "Avesto"ning vujudga kelishi, insoniyat tarixida dastlabki akademiyalardan biri bo'lmish – Ma'mun akademiyasining tashkil topishi va boshqa masalalar bo'lib, bular bugungi kunda bekami ko'st amalga oshirildi.

Mustaqillik va oshkorolik zamonida shaharlar tarixi bor bo'yicha, mukammal, ayniqsa ular paydo bo'lgan davrdan tortib to shu kunimizgacha bo'lgan rivojlanish jarayonini o'rganish – dolzarb hamda xayrli ish bo'lib qoldi. Mazkur risola bu boradagi dastlabki tajribalardan biri bo'lib, Xiva "Ichan qal'a" Davlat muzey qo'riqxonasi ilmiy xodimlari Dilmurod Bobojonov va Maqsudbek Abdurasulovlarning shaharning tarixiy va me'moriy yodgorliklari bo'ylab sayohat yo'nalishi bo'lib, shahrimizga kelayotgan sayyohlarga dasturil amal bo'lib xizmat qiladi.

**Abdulla Abdurasulov –
Xorazm Ma'mun akademiyasi
katta ilmiy xodimi,
tarix fanlari nomzodi**

Qadimiy va navqiron –Xiva

Samarqand sayqali ro'yi zamin ast,
Buxoro quvvati islom dini ast.
Hazorasp qal'ai xo'b joyi mahkam,
Xiva firdavsi, rabbil olamin ast.

Kurrai zaminning eng ko'hna shaharlaridan biri – Xiva o'zining boy tarixiga ega. Uzoq o'tmishning nodir yodgorliklarini asrlar osha bus-butun bizgacha yetkazgan boboshaharni ko'rish uchun dunyoning barcha burchaklaridan minglab sayyohlar tashrif buyurib, hayratga tushmoqdalar. Yaponiyalik sayyoh S.Richigananing quyidagi fikri ko'pchilik sayyohlarning ko'ngil so'zlarini ifodalaydi: “-shaharni tomosha qilib olgan taassurotlarim cheksiz, hayajon va hayratlarimni qanday ifoda qilishni bilmayman. Xiva – bu buyuk mo'jiza”.

Ushbu gap – chin haqiqat. Xiva – mo'jizalar shahri. Niliy gumbazlar, osmono'par minoralar, serjilo obidalar go'zallikka tashna har bir insonni o'ziga maftun etadi. Qarab turib, uning ijodkorlariga tahsin o'qiysan. Darvoqe, Xiva shahri qachon paydo bo'lgan? Shahar maqomini olgandan so'ng undagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot qanday rivojlangan? Bular tabiiy savollar bo'lib, biz bu savollarga ushbu risolamizda aniq javob berishga harakat qilamiz.

Xiva – eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, o'rta asr Sharq me'morchiligining tengsiz javohiridir. U hozirgi Urganch shahridan 25 km janubidagi tekislikda joylashgan. Bir paytlar bu zamin qadimiy Xorazm davlati tasarrufida bo'lgan. Xiva shahri to'g'risidagi dastlabki ishonchli ma'lumotlar X asrdan boshlab arab, fors tilidagi tarixiy-jo'g'rofiy manbalarda uchraydi. Ushbu davr solnomachilaridan biri Al-Istaxriy (930) Xivani o'z davrining eng yirik 30 ta shahri ro'yxatiga kiritgan, u “Xiva – Hazoraspdan 8 farsax masofada Jurjoniya yoki Gurganch (Urganch) yo'lida joylashgan”ligini qayd qiladi. Al-Maqdisiyning ma'lumotlariga ko'ra, esa Xiva bilan Hazoras p o'rtasidagi masofa 8 devondan (10 farsax) iborat bo'lgan. Xiva shahri va uning tevarak atrofi Xeykanik (hozirgi Polvonyop) arig'idan sug'orilib, obod va xushmanzara bo'lgan. Mazkur ariq Amudaryodan bir irmoq sifatidan ajralib chiqqan.

Xiva shahri Yoqut Hamaviy (XIII asr), Nizomiddin Shomiy (XIV asr) asarlarida karvon yo'lida joylashgan shahar sifatida tilga olinadi. Bu shahar haqida Abdurazzoq Samarqandiy va Mirxondlar ham yozib qoldirganlar.

Rivoyatlarga qaraganda, Xiva shahrining qadimiy qismida (hozirgi "Ichon qal'a" o'rnida) sahro bo'lgan. Marvdan Jurjoniya (Ko'hna Urganch) tomon o'tadigan (Ipak yo'lining shahobchasi) karvonlar yurgan. Shu karvon yo'lida ichimlik suvi saqlanadigan "Xivaq qudug'i" bo'lgan. Bo'lg'usi shaharning nomi ham ana shundan kelib chiqqan.

Tarixiy manbalar va rivoyatlarda keltirilgan parchalar shaharning o'rta asrlardagi hayotiga oiddir. Ayni paytida shaharning vujudga kelishi, ayniqsa, uni dastlabki bosqichi haqidagi haqiqiy ma'lumotlar O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan 1984-1993-yillarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar davrida aniqlangan. Xiva shahrida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar (6 marta qazish va 7 marta burg'ulash) natijasi shuni ko'rsatadiki, Ichon qal'a hududi eramizdan avvalgi V asrda paydo bo'lgan. Shaharning eng pastki qatlamida topilgan ashyolar (sopol buyumlar va qalin paxsa devorlar) shundan dalolat beradi. Shahar devorlari ostidan topilgan sopol buyumlar, katta hajmdagi xom g'ishtlar shaharni 2500 yoshda ekanini tasdiqlaydi.

Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, 712-yilda Xivani arablar istilo qilishgan, IX asr boshlarida Xorazm somoniylar davlati tarkibiga kirgan. Bu davrda u mustahkam devor bilan o'ralgan. 1221-yildan mo'g'ullar imperiyasi asoratiga tushgan. Shahar 1388-yildan boshlab temuriylar davlati qo'l ostida bo'lgan. XVI asr boshlaridan 1924-yilgacha Xiva xonligining poytaxti bo'lib turgan XVI asr boshlaridan boshlab shahar har tomonlama rivojlana boshlagan. Bu yerda ma'muriy binolar qurila boshlangan. 1616-yil Arab Muhammadxon tomonidan birinchi pishiq g'ishtdan madrasa quriladi, bu bilan xon mahalliy xalq orasida o'z mavqeini mustahkamlaydi. Undan keyin yana ikkita madrasa Xo'jamberdibiy (1688) va Sherg'ozixon (1719) madrasalari qurildi. Shahar obodonlashtirilib, savdo-sotiq rivojlandi. Lekin bu yuksalish uzoq davom qilmadi. Mamlakat Eron bosqinchilarining hujumlari ostida qoladi. 1740-yili Eron shohi Nodirshoh Samarqand va Buxoroni zabt qilgach, Xiva xonligiga hujum boshlaydi. 1740-yili kech kuzda Xiva shahrini ishg'ol qiladi. Bu haqda Ogahiy: "Mohi mazkurning (Rajab oyining) 24 da, seshanba Nodir Elbars va Eshmuhammad boshliq Xorazm amirlaridan 20 kishini shahid qildirdi. Ramazon oyining avvalida Xonakkohtan (Xonqa) ko'chib, Xevani qamal qildi" deb yozgan edi.

Shundan keyin mamlakatda bir necha yillar ko'chmanchi turkman yovmut zodagonlari hukmronlik qildilar. Ular bilan mahalliy o'zbek zodagonlari o'rtasida davlatni qo'lga olish uchun bo'lgan qonli

kurashlar natijasida mamlakat vayron bo'ldi, xalq esa chidab bo'lmas darajada qashshoqlashdi. Nihoyat, qonli urushlar, o'zaro nizolarga bir qadar barham berildi. XIX asrning boshlariga kelib Avazbek Inoqning o'g'li Eltuzarxon (1804-1806) navbatdagi qo'g'irchoq xonni taxtdan ag'dardi va o'zini xon deb e'lon qildi. Ayni paytda u qo'ng'irot sulolasiga asos soldi. Shu kundan e'tiboran, Xivani qo'ng'irot sulolasidan bo'lgan xonlar 1920-yilgacha, ya'ni sovet bosqiniga qadar idora qilishdi.

Inoqlar hukmronligi davridayoq, Xiva shahrining xaroba devorlari qayta tiklandi. Shahar ichkarisida bir necha ma'muriy binolar Ko'hna Jome masjidi, Muhammad Amin Inoq, Fozilboy madrasalari qurildi. Bu haqda Munis quyidagicha hikoya qiladi: "Eltuzar o'z saroyining qarshisida bir devonxona qurishni buyurdi va bu ishni boshqarishni vaziri Yusuf Mehtarga topshirdi. Mazkur mehtar mamlakatdagi ustalar va quruvchilarni, me'morlarni va naqqoshlarni yig'ib, uch oy davomida bu devonni bitkazdi".

Shu davrda xonning saroyi, qo'shini, qurol-yarog', o'q dori omborlari Ark (Ko'hna ark)da joylashgan edi. Xon arki shaharning eng qadimiy qismi bo'lib, XVII asrda Ichan qal'aning butun g'arbiy tomonini egallab olgan edi, bu yerda xon devonxonasi, ko'rinishxona (qabulxona), xonning harami, yozgi va qishgi masjidlari hamda zarbxona joylashgan edi.

XIX asrga kelib shahar kengaydi, u ikki qismdan, ya'ni Ichan qal'a – shahriston (ichki shahar) va Deshon qal'a – rabot (tashqi shahar)dan iborat bo'lib, shahar tevaragida esa o'nlab qishloqlar joylashgan edi.

Ichan qal'a o'ziga xos yaxlit me'moriy inshootlardan iborat bo'lib, baland paxsa devor bilan o'ralgan, to'rtta darvozasi – Ota darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza va Bog'cha darvoza to'rt tomonga qaratib qurilgan. Ichan qal'a devorlari vaqt o'tishi bilan bir necha bor buzilgan va qayta ta'mirlangan.

Devor aylanasi uzunligi qariyb 2200 metrgacha, balandligi 7-8 metrga, poydevorining qalinligi esa 5-6 metrga teng. Ichan qal'a to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uzunligi 650 metr, eni 400 metr, ya'ni 26 gektar maydonni egallaydi.

Deshon qal'a – rabot. Ichan qal'a atrofida XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan. Deshon qal'ada kambag'al-kosiblar, hunarmandlar va mayda savdogarlar yashashgan. Tikuvchilar (chitgarlar), kulollar, elakchilar, juvozchilar, misgarlar, tunukachilar va boshqa mahalla nomlari shu davrgacha saqlanib qolgan. Deshon qal'a

1842-yilda baland devor bilan o'rab olingan bo'lib, qal'ani qurishda xonlikning 200 mingdan ziyod aholisi qatnashgan. U begor (har bir fuqaro bir yilda davlat hisobiga 12 kun bepul ishlab berishi), ya'ni hashar yo'li bilan bir oy davomida qurilgan. Bu haqda Ogahiy shunday yozadi: "... ham shu yili 1268-hijriy Muhammad Yoqub mehtar va Otamurod Qushbegi boshchiligida Rajab oyining sakkizida, dushanba kuni Xiva devorini qurish boshlangan va o'ttiz kun davomida qurib bitkazilgan".

Deshon qal'ani o'rab olgan devorning uzunligi 6250 metr, uning o'nta darvozasi bo'lgan: Hazorasp (Qo'y darvoza), Pishkanik, Angariq, Shixlar, Tozabog', Shohimardon, Doshyoq, Gadoylar, Qo'sha darvoza va Gandimyon. Deshon qal'ada turar joylardan tashqari xonning yozgi qarorgohlari uchta bog'– Rofanik, Nurullabek va Nurullaboy bo'lgan. Deshon qal'a qurilishi bilan shahar ikkita qismga bo'lingan va shahar maydoni bir necha o'n marta kengaygan.

1920-yilgacha Xiva shahrining Ichan qal'a hududida 33 ta mahalla (machitqo'm) va Deshon qal'a hududida 34 ta mahalla mavjud bo'lib, ularning har biri o'z nomiga ega edi. Mahalla nomlari u yerda istiqomat qilgan kishilarning kasb-koridan darak berib turardi. Chunonchi, Chitkarlik, Alakchilik, Kulollar, Misgarlik, Gadoylar, Otamurod Qushbegi, Yoqub Mehtar, Yusuf Yasovulboshi va hakoza.

Shuningdek, shu davrda shaharda 109 ta katta va kichik ko'chalar, 79 ta masjid, 120 ta qorixona, 64 ta madrasa bo'lgan.

Shahar asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kengaya bordi. Bu kengayish sharqiy va shimoliy-g'arbiy tomon bo'ylab, ya'ni Polvon arig'i oqib o'tadigan tomonga sekin-asta siljiy boshladi. Lekin to'xtovsiz bo'lib turadigan ichki urushlar shahar hayotini tez-tez izdan chiqarib turdi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini sekinlashtirdi, aholining qashshoqlashuviga sabab bo'ldi. Xiva shahrida qancha aholi istiqomat qilgani haqida aniq ma'lumot yo'q. Manbalarda bu haqda turlicha ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlarni qiyosiy o'rganib, shunday xulosaga kelish mumkin. Xivada XIX asrning o'rtalarida 20 mingdan ziyod aholi yashagan. Biroq, shahar aholisi Junaidxon zulmi asoratidan qutilish maqsadida XX asr boshlarida turli shaharlarga, ya'ni To'rtko'l, Chorjo'y, Marv, Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa hududlarga ko'chib keta boshlaganlar. Natijada 1924-yilda shahar aholisini soni 18145 kishini tashkil qilgan. O'sha yili o'tkazilgan aholi ro'yxatiga ko'ra shaharda 16375 o'zbek, 101 qozoq, 46 qoraqalpoq, 33 turkman, 394 tatar va 122 boshqa millat vakillari istiqomat qilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Chor Rossiyasi o'zining sanoat xom ashyosiga bo'lgan talablarini qondirish, rus yerlarini va tashqi bozorni kengaytirish maqsadida "Sharqqa yurish" qilib, 1865-yili yozda Toshkent shahrini, 1867-yili Qo'qon xonligi va 1868-yili Buxoro amirligini zabt qildi. Bu hududlar birlashtirilib, Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilindi. Toshkent shahri uning ma'muriy markazi, general-adyutant K.P. fon Kaufman Turkiston general-gubernatori etib tayinlandi. Shu yili Kaufman Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ga maktub yozib, o'zaro iqtisodiy hamkorlik qilishga chaqirdi. Lekin bu maktub xon tomonidan javobsiz qoldirildi. Kaufman 1869-yili Xiva xoniga ikkinchi marta xat yubordi. Bu xatga ham xon javob qaytarmadi.

1873-yilning bahorida Turkiston general-gubernatori K.P.Fon Kaufman boshchiligida rus qo'shinlari Xivaga harbiy yurish boshlashdi. Chor Rossiyasi Xivani zabt qilish uchun yaxshi qurollangan kuchli armiyasini safarbar qildi. Xivaning zaif armiyasi bu tajovuzga bardosh bera olmadi, shahar taslim bo'ldi. 1873-yili 29-mayda Xiva ruslar tomonidan ishg'ol qilindi. Shu yili 12-avgustda Gandimyon qishlog'idagi Otajon to'ra hovlisida Xiva xoni bilan Rossiya o'rtasida "Gandimyon shartnomasi" imzolandi. Shartnoma 18 bobdan iborat bo'lib, xonlikni bundan keyin idora qilish uchun 7 kishidan iborat "Devoniy oliy" (4 kishi podsho ma'muriyatining, 3 kishi Xiva xonligining vakili) ta'sis etiladi. 1874-yilda Rossiya imperiyasiga qo'shib olingan Amudaryoning o'ng qirg'og'i (markazi To'rtko'l)da Amudaryo bo'limi tashkil qilindi va "Devoniy oliy" bekor qilindi. Shartnomaga ko'ra, Xiva shahri xonlikning ma'muriy markazi bo'lib qolaverdi.

Xorazm bundan ming yillar muqaddam jahon sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri bo'lgan. Viloyatimizda hozir ham antik va o'rta asrlarga oid madaniy va me'moriy yodgorliklar mavjud va ular ko'z qorachig'iday asralmoqda. Bizning zaminimizda qariyb bundan 3 ming yil muqaddam jahondagi dastlabki dinlardan biri – zardushtiylilik paydo bo'lgan va muqaddas "Avesto" kitobi dastxat qilingan. Viloyatimiz o'lkashunoslari Avestoda qayd qilingan 50 dan ortiq joylar va tarixiy obidalarni aniqlashdi. Xorazmning durru-gavhari hisoblangan Xiva shahrini alohida ta'kidlash kerak. YuNESKOning sobiq Bosh direktori, janob Fedriko Mayor aytganidek "Xiva – jahon shaharlarning olmosidir". Xiva qadimiy Afina, Rim va Qohira shaharlarining tengdoshi. U Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Az-Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Jaloladdin Mankburni, Pahlavon

Mahmud, Abulg'ozī Bahodurxon, Feruz, Munis va Ogahiy singari buyuk mutafakkirlar, shoirlar va xalq qahramonlarini jahonga yetkazib bergan. Dunyoga tanilgan bu olimlar mashhur Ma'mun akademiyasi o'zagini tashkil etganlar. O'zining noyob tarixiy va me'morchilik yodgorliklari bilan tanilgan Xiva yer kurrasidagi 100-shahar bo'lib jahon madaniy yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan. "Ichan qal'a" Davlat muzey qo'riqxonasi 1967-yilda "Ochiq osmon ostidagi muzey" degan rasmiy statusni oldi. YuNESKOning Parij shahrida o'tkazilgan 28-sessiyasida Xivaning jahon madaniyatini rivojlantirishdagi roli va ahamiyati alohida ta'kidlanganligi bejiz emas. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 3-yanvarda Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yillik yubileylarini xalqaro ko'lamda bayram qilish to'g'risidagi qarori qabul qilindi.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki 17 yil mobaynida viloyatimizdagi bu tarixiy va madaniy boyliklarni saqlash hamda namoyish etish yuzasidan oxirgi yuz yil mobaynida qilinganidan ko'proq ish amalga oshirildi. Xivaning 2500 yillik to'yiga qarata tarixiy yodgorliklarning salmoqli qismi ta'mirlandi, ko'pchiligida ta'mirlash ishlari davom ettirilyapti. Ta'mirlash bilan bir qatorda Ichan qal'a hududida arxeologik qazishmalar olib borilmoqda. Shuni komil ishonch bilan aytish mumkinki, bu yerda topilayotgan madaniy qatlamlar ikki ming besh yuz yildan ham qadimiyydir. Yaqin 2-3 yil mobaynida Xiva va Urganch shaharlarida sayyohlar uchun bir necha o'nlab mehmonxonalarni qurish va ta'mirlash, xizmat ko'rsatishni jahon andozalari darajasiga ko'tarish ko'zda tutilyapti.

Yaqinda Urganch aeroporti xalqaro talablarga mos ravishda ta'mirlanib, eng zamonaviy havo laynerlari, jumladan, "A-310" va "Boing" samolyotlarini qabul qilish va sayyohlarni yil davomida yangi uzilgan meva-sabzavot, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab, ularga malakali xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Tarixiy va me'moriy yodgorliklari yaxshi saqlanib qolgan qadimiy Xiva shahrini butun Xorazm tarixini o'zida mujassamlashtirgan ochiq osmon ostidagi muzey-shahar desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu shaharga kelgan har bir sayyoh niliy gumbazlar, osmono'par minoralar orasida o'zini "Ming bir kecha" ertaklaridagi mo'jizalar olamiga kirganday his qiladi. Bu eski ko'chalar kishi xayolini uzoq o'tmishga yetaklaydi. Naqshinkor binolar, serjilo gumbazlar go'zallikka tashna har bir qalbni o'ziga rom etadi. Oradan qancha asrlar o'tsada, o'zining asl qiyofasini yo'qotmagan xalq

me'morchiligi yodgorliklari kishilarni hayratga soladi, o'zini betakrorligi bilan maftun etadi. Bugungi kunda Xiva shahri obidalarini yer kurrasining turli burchaklaridan kelayotgan sayyohlar tamosha qilmoqdalar. Shu bois biz uning ayrim yodgorliklari haqida keyingi ilmiy izlanishlar natijalari asosida bayon qilamiz.

Qal'a devorlari va darvozalari

Qadimiy shaharlarga ko'rinish beradigan asosiy narsa bu – qal'a devorlaridir. Uning asosiy vazifasi shaharni tashqi dushmandan muhofaza qilishdir. Xiva xonligi Rossiyaga tobe qilingach, uning muhtasham salobatli devorlari o'z qudratini tamomila yo'qotdi. Chunki, o'zaro ichki urushlar tugadi, xonlikning ko'p sonli qo'shini tarqatib yuborildi. Faqat bir necha o'nlagan sarbozlar, ya'ni xon qo'riqchilarigina qolgan edi. Bu davrga kelib qal'a devori ichki ziddiyatlarni bartaraf qilish, shahar ahlini o'g'irlik, talon-tarojdan asrash va so'nib borayotgan davlat mirshablik xizmatini bir oz bo'lsada muvofiqlashtirish uchun xizmat qilmoqda edi, xolos. Qolaversa u xonlikning qachonlardir erki o'zida bo'lgan qudratli davrini eslatar, feodal tuzumning dabdabali hayotini xotirlab turardi. Qal'a devorlari paxsa(loy)dan qurilgan bo'lib, o'ziga xos me'morchilik bezaklariga ega. Shahar ikki devor bilan o'rab olingani bois boshqa shaharlardan farq qiladi. Ichan qal'a devori ilk bor eramizdan avvalgi VI-V asrlarda qurilgan bo'lib, davr o'tishi bilan bir necha bor ta'mirlangan. Devorning ichkari tomonidan dushmanga o't ochish uchun tuynuklar (shinaklar) qo'yilgan. Har 30-50 metrdan esa bahaybat kunguralar qad rostlagan. Ularning sahnidan himoya davrida to'plar o'rnatib dushmanga o'q otilgan.

Shahar to'rtburchak shaklida qurilgan. Ichan qal'a devorining uzunligi 2200 metr bo'lib, dunyoning to'rt tomoniga qarata qurilgan darvozalari bor. Qal'a ichkarisining umumiy maydoni 26 gektarni (650x400m) tashkil etadi.

Tarix – madaniy va moddiy manbalar asosida, o'rganilib yoziladi, Xiva va xivaliklar to'g'risida aytilgan, yozilgan fikrlar juda ko'p. Ular keyingi ming yillikning deyarli hamma davri yozma manbalarida uchraydi. Bu ma'lumotlar bor bo'lsada, shaharning paydo bo'lishi to'g'risida aniq ma'lumot bermaydi. Shuning uchun shaharning yoshini aniqlash maqsadida 1984-yilning martidan boshlab qat'iy harakat boshlandi. Unda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi (M. Mambetullaev rahbarligida) va Xiva

tarixiy arxitektura muzey qo'riqxonasi ilmiy xodimlari jamoasi (Sh.Matrasulov rahbarligida) qatnashdilar. Maqsad – shaharning qurilish jihatlari, mudofaa tuzilmalari va birinchi bor aholi yashay boshlagan davr kabi bir qancha muammolarni o'rganish edi.

I-qazish ishlari Ichan qal'aning shimoli-g'arbida joylashgan xonlar qarorgohi Qo'hna arkning ichida 730 kv. metr maydonda olib borildi.

II-qazish ishlari Ichan qal'aning shimoliy-g'arbiy burchagida 60 kv. metr maydonda olib borildi. Aynan qal'a devorining poydevorida 8X2 metrlik zovurda ham qazish ishlari bajarildi.

Ish davomida to'rtta qurilish qatlamidagi mudofaa devorlari qoldig'i topildi, uzunligi 20 metr, balandligi 0,35-1,37 m bo'lgan ikkita paxsa devor, jumladan, qum ustiga xom g'ishtlardan (o'lchamlari 49-42X 41- 43X9-13 sm) qurilgan devor qoldig'i o'rganildi.

Shaharning eng qadimgi davrini o'rganish uchun birinchi qazish ishlari olib borilgan joydan bir qator ashyoviy dalillar olindi. Bu yerdan er.av. I ming yillik o'rtalariga oid qizil rangli sopol xumning pastki qismi topildi.

1984-1985-yillarda o'tkazilgan arxeologik qazishma ishlari natijasida topilgan sopol xum va xumchalar, shuningdek, kosachalardagi "K" harfiga o'xshash belgilar er.av. IV–III asrlarga oid ekanligi isbotlandi. Ish davomida shahar 7 marta vayron etilgani va qaytadan barpo etilib, hayot gullab-yashnaganligi aniqlandi.

1985-1995-yillar davomida Xivaning eng qadimgi qismi Ichan qal'aning olti joyida, umumiy hajmi 1200 kv. metr, qal'a devorining 7 joyida qazish va o'rganish ishlari olib borildi. Eng qadimgi madaniy qatlam 7 metr chuqurlikda yotgani aniqlandi. Shunday qilib, arxeolog olimlar topilgan ashyoviy buyumlarga, saqlanib turgan qal'a devorining qurilish davriga asoslanib, Xiva shahrining Polvon yop kanali (eski nomi Xeykonik) bo'yida er.av. VI–V asrlarda bunyod qilinganligini isbotlashdi. Ichan qal'a devorining atrofida chuqur zovur bo'lib, bu zovur qal'a qurilishi uchun olingan tuproq o'rnida paydo bo'lgan. Tuproq ham maxsus reja asosida olinganki, hosil qilingan chuqurlik suv bilan to'ldirilgach, qal'a devorigacha yana bir himoya vositasi paydo qilingan. Devorning balandligi 7-8 metr, qalinligi pastida 8-10, tepada 2-3 metrni tashkil qiladi. Dushmanidan himoyalani chog'ida qal'a devori ustida aravada yurish imkoni bo'lgan. Qal'a bir necha marta buzilib, tuzatilganini tarixchi Xudayberdi Qo'shmuhammad o'g'li o'zining "Dili g'aroyib" asarida ham yozadi. Ichan qal'a devori 1740-yilda Nodirshoh tomonidan

vayron etiladi. Shaharning vayronaga aylanganini biz – bilamiz deb yozadi rus olimi N.N. Veselovskiy.

Birinchidan, injener Nazimov chizgan shaharning xaritasi bunga isbot bo'ladi, chunki Xiva Nodirshoh qamalidan keyin butunlay boshqacha ko'rinishga ega bo'lgan.

Ikkinchidan, qamalda qolgan ikkita britaniyalik savdogar Tomson va Gog bu haqda guvohlik beradi. Mazkur rejaning o'z tarixi bor. 1730-1735-yillarda Dashti Qipchoqda qattiq ocharchilik bo'lib shu davrda qozoqlarning Katta juzi Jung'oriyaga tobe bo'lib qoladi, O'rta juz Buxoroga bo'ysunadi, Kichik juz esa Xiva xonligiga bo'ysundirildi. Lekin Kichik juz xonlari jung'orlar hujumidan xavfsirab, Rossiya Anna Ivanovna hukumatiga noma yo'llashadi va Rossiya hukmronligiga olishlarini so'rashadi. 1739-yilda Sirdaryo etaklarida joylashgan Kichik juz va uning xoni Abulxayrxon Rossiya fuqaroligini qabul qiladi. Rossiya Kichik juz xavfsizligini ta'minlaydi, buning evaziga ular dashtdan o'tadigan Rossiya savdo karvonlarini qo'riqlash majburiyatini oladilar. Shu yili Abulxayrxon Rossiya podshosiga maktub yo'llab Sirdaryo etaklarida xonlik uchun qarorgoh qurishda yordam so'ragan. Podsho xonning iltimosini qondirib, 1740-yilda Gladishev va Muravin boshliq yer tuzuvchilarni yuboradi. Muhandis-nazoratchi Nazimov mazkur mutaxassislar guruhida tilmoch vazifasini bajarishi kerak edi. (Qarang: Xanikov Ya.V. "Poezka iz Orska v Xivu i obratno, sovershennaya v 1740-1741 godox poruchikom Gladishevim i geodezistom Muravinim" SPb 1850 g., Vip. 4, Otd. 2, str. 1)

Rus yer tuzuvchilarining Abulxayrxon qarorgohiga kelishi arafasida, xonni xivaliklar Xiva taxtiga taklif qilishadi. Xon rus mutaxassislarini ham olib, tezda Xivaga yetib keladi. Ammo bu yerda atigi uch kun bo'ladi xolos, chunki 1740-yilning 11-noyabrda Xivaga Eron shohi Nodirshoh qo'shini hujum qiladi, bundan cho'chigan xon ortiga qaytishga majbur bo'ladi. Qizig'i shundaki, Nazimov hech qanday topshiriq olmasdan 4 kun ichida Xiva shahrining tuzilish planini chizishga ulguradi. Demak, xon Xivaga 1740-yil 7-noyabrda kelgan, mazkur rejaning tarixiy qimmatini shundaki, shahar Nodirshoh bosqinidan so'ng butunlay vayron qilingan. Nazimovning ushbu xaritasini izohlar ekan, tarixchi olim A.Abdurasulov shunday yozadi: "Rejaga asosan, shaharning bo'yi ming metr, eni 400 metr bo'lib, u 40 gektar maydonni egallagan. Bu reja Xorazm antik shaharlariga o'xshab ketadi. Shaharning butun tevaragi suvli handaq bilan o'ralgan. Shaharga sharqiy tomondan maxsus ko'prik orqali kirish mumkin bo'lgan. Ko'prik kechalari ko'tarilib qo'yilgan. Shaharning g'arbiy

qismida xon saroyi joylashgan, ko'prik yonidagi darvozadan boshlangan katta ko'cha to'ppa-to'g'ri Ark darvozasiga kelib taqalgan. Ark shaharning g'arbiy qismida joylashgan”.

Nazimov shaharning sathi va umumiy ko'rinishini juda aniq belgilagan. Unda shahar atrofidagi bog'lar, tegirmonlar, quduqlar va boshqa topografik belgilar juda aniq aks ettirilgan. Shaharning asosiy ko'chasi uni ikki qismga Shimoliy va Janubiy qismlarga ajratgan. Katta ko'chani janubiy tomonida 4 ta ko'cha va 9 ta mahalla, Shimoliy tomonida 3 ta ko'cha va 8 ta mahalla joylashgan. Shaharning g'arbiy qismidagi Arkda xon saroyi, haramxona, aslahaxona bo'lib, ular maxsus qal'a devori bilan o'rab olingan. Ushbu xaritada ko'rsatilishicha, shaharning bitta davozasi bo'lib, qolgan darvozalar bosqindan keyin qurilgan degan xulosani bildiradi. Xiva tarixchisi Shermuhammad Munis Xorazmiy (1778-1829) o'zining “Firdavs ul-iqbol” nomli asarida Muhammad Amin Inoq to'g'risida shunday deydi: - “Sana hijriy 1200 da (1786) Xavoq qal'asinkim Nodirshoh kelganidan buyon vayron va xarob bo'lib edi, tozadin ma'mur va obod etdi”.

Qariyb yuz .yil o'tgach, Xivaga Rossiya elchilari tashrif buyuradilar, diplomatlar orasida topogrof G.N. Zelenin ham bo'lgan. Unga o'ta ehtiyotkorlik bilan xufyona tarzda shahar rejasini chizish topshirig'i berilgandi, chunki Knyaz Perovskiyning 1839-yilgi yurishi mag'lubiyatga uchragandan so'ng xon chetdan kelgan har bir odamdan shuhbalanib qolgandi. U topshiriqni maxfiy bajarish uchun bozorga keladi va ikki dona qovun xarid qiladi. Yo'l-yo'lakay odamlardan ko'chalar, mahallalar, guzarlar nomi, madrasa, masjidlar haqida so'rab boraveradi. Ayni paytda qovun po'stiga qalamtarosh bilan maxsus belgilar ham qo'yib boradi va kechalari bu belgilarni qog'ozga tushiradi.

Chor armiyasi polkovnigi M.N.Venyukov Zelenin tomonidan chizilgan Xiva rejasini shunday tasvirlaydi: “Xiva shahrining umumiy ko'rinishi boldog'i g'arbgga qaratib qo'yilgan nokni eslatadi. Ichkari shahar esa to'g'ri turtburchak shaklida bo'lib, sharqiy va g'arbiy tomonlari 300 sajen (1 sajen – 2 metru 13 sm.ga teng) shimoliy va janubiy tomonlari esa 200 sajendan iborat. Shahar Angarik va Sirchali kanallari o'rtasida joylashgan”.

Zelenin tadqiqotiga ko'ra, shaharda 17 ta masjid, 22 ta mahalla va 260 ta savdo rastalari bo'lgan. Shahar tashqarisida esa ko'pgina bog'lar, dala hovlilar, sug'orish tarmoqlari, ekin maydonlari, yo'llar bo'lganligi rejada aks ettirilgan. Shaharning yana bir rejasini: - juda aniq

va mukammali 1905-yilda rus polkovnigi, topograf Radionov rejasi bo'lib, u shunisi bilan qadrliki, mazkur reja nafaqat shahar, balki qishloqlar tarixini o'rganishda ham muhim manbadir.

1920-yilda XXShJ tashkil topgach, Respublika Markaziy ijroiya qo'mitasining maxsus qaroriga ko'ra, tajribali muhandis Matkarim (naqqosh) Ne'matullaev tomonidan shaharning bosh rejasi tuzib chiqiladi (reja muzey fondida saqlanmoqda). Bu reja juda mukammal bo'lib, tarixiy-topografik va etnografik tadqiqotlarga suyaniladi. Reja masshtabida shaharda joylashgan har bir inshoot hech bir xato-kamchiliksiz, to'liq ifoda etilgan: 14 ta shahar darvozalari nomlari bilan birga, 64 ta madrasa, 79 ta masjid madrasa va masjidlarning vaqflari ham qayd etilgan. Ko'chalarning joylashuvi, ma'muriy binolari bozor va karvonsaroylar hamda boshqa binolar tasvirlangan.


Ota darvoza

Bu darvoza Ichan qal'aning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, u shaharga kirish uchun asosiy darvoza hisoblanadi. Darvozaning ichkari qismida 13 ta savdo rastasi, bostirmali bozor-chorsu bo'lgan. Uning o'ng tomonida Muhammad Aminxon madrasasi (1855 yil), chap tomonida Ark (Ko'hna ark) joylashgan. Darvoza ichkarisida bojxona va sarrofxona bo'lgan. Bino hajmi va o'lchamlari konstruktsiya imkoniyatlar e'tibori bilan eng qulay me'yorda belgilangan. Imorat yanada pishiq bo'lsin uchun ravoqlar kergi kuchi oz bo'lgan shaklda yasalar edi. G'ishtlar qatoriga yog'och to'sinlar kiritilib, gumbaz og'irligi bir qancha ravoqlarga taqsimlanadi. Kichik gumbazlar uchun g'isht "davra" va "balxi" uslubida teriladi. Ayni vaqtda bino ichkarisi suvoq qilingan. Darvozaning bo'yi 10 metr, eni 4 metr. To'rtta asosiy xonasi bo'lib, XX asrning 20-yillarida yiqilib ketgan va 1975-yili asli ko'rinishida qayta tiklangan. Darvoza tavaqalari nihoyatda chiroyli islamiy o'yma naqshlar va geometrik shakllar bilan bezatilgan. Har ikkala tavaqasining ham bir joyida, bir xil o'lchamda (85x85 sm) to'rtburchak ichiga aylana chizilib, uning o'rtasiga sakkiz qirrali yulduzlar tasviri tushirilgan. Shu aylanalar ichiga, arab tilida o'ng tavaqasida "Ixlos surasi" – "Qul, huvallohu ahad. Allohus samad. Lam yalid valam yulad. Valam yakunla-hu kufuvan ahad", chap tavaqasida "Kalimai shahodat" – "La ilaha illallo-hu Muhammadur Rasululloh" so'zlari yozilgan. Bu darvoza tavaqalari aslida Muhammad Aminxonning 1850-1851-yillarda Xiva yaqinidagi Angarik qishlog'ida qurilgan hovlisiga o'rnatilgan edi. Darvozaning

Muhammad Aminxon hovlisiga o'rnatilganligini tasdiqlovchi ikkita fotohujjat Xiva "Ichan qal'a" Davlat muzey qo'riqxonasida saqlanmoqda. Bularda o'zbek kino-foto san'atining qaldirg'ochi Xudoybergan Devonov tomonidan xon hovlisining yiqilmasidan burungi ko'rinishlari tasvirlangan. Devonov bu darvozani alohida yaqindan rasmga tushirib, tagiga o'z dastxati bilan "Muhammad Aminxonning Angarikdagi hovlisi" deb yozib qo'ygan. Hozirgi vaqtda bu darvoza shaharning asosiy kirish darvozasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Muhammad Aminxon madrasasi va minorasi

Xiva shahrida 64 ta madrasa mavjud bo'lib, shular ichida eng yirigi va chiroylisi Xiva xoni Muhammad Aminxon tomonidan qurilgan madrasa hisoblanadi.



Madrasa Ichan qal'aning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, shaharning bosh darvozasi – Ota darvozadan kirib kelganda, o'ng tomonda joylashgan. Bu me'morchilik obidasi o'z davriga xos uslubda eng katta va hashamatli qilib qurilgan. Madrasa pishiq g'ishtdan qurilib, uning devorlarini qalinligi 1,5 metrga yetadi. Madrasa 2 qavatli, 130 hujradan iborat bo'lib, tarixiy ma'lumotlarga asosan unda bir vaqtning o'zida 260 nafar talaba tahsil olgan.

Madrasa va minora qurilish tarixini tarixchi olimlar quyidagicha yoritadilar. “Madaminxon xonligining to’rtinchi yilida Arkning qibla tomonida bir madrasa va minora qurilishini boshlatdi. Uning qurilishini Bekniyoz devonga buyurdi. Bekniyoz devonbegi qurilishni boshlab, uning ustida Muhammad Karim devonni qo’ydi. Muhammad Karim Xorazmning mashhur ustalarini topib, ishga mashg’ul bo’ldi. Xonning amri bilan Angarikda qum etagida bir hovli va bog’ qurilishi ham boshlab yuborildi va unga Abdulla Qushbegi tomonidan Ismoil devon ibn Odina devon bosh qilib qo’yildi.

1851-yilda Muhammad Aminxon madrasasini qurish uchun tanlov e’lon qilindi va ustaboshi Abdulla “jin” chizgan loyiha xonga manzur bo’ldi. Madrasa uch yildan keyin bitdi. Xon xushhol bo’lib Bekniyoz devonbegiga katta to’y va shohona ziyofat anjomini tayyorlatdi. To’yga kelgan xonning og’a-ini va yaqinlariga zarbof to’nlari kiygizildi, bedov otlar hadya qilindi. To’yda ishtirok qilgan hamma in’om olmasdan qolmadilar. Madrasaning binosiga zamon shoirlari tarixlar aytib, xondan in’omlar oldilar. Madrasa peshtog’ida bir minora qurilishi boshlangan ediki, hali bitmagan minorani shoirlar “Falak ayvoniga qo’yilgan ustundek” deb ta’rifladilar.

Madrasaning peshtoqiga chiroyli koshin taxtalar o’rnatildi va ularga nasta’liq xatida quyidagi so’zlar yozib qo’yildi:

“Kad vasallohu taolo ba ixtitom binoi qazo al madrasai muqaddasa ul tohi xayrul madoris fil olam biamri sultonuzzamon Abul G’oziy Muhammad Amin Bahodirxon ibn Olloqulixon Navvarollohi marqadibi 1270”.

Tarjimasi:

“Ollah taoloning inoyati bilan zamon sultoni Abulg’oziy Muhammad Aminxon ibn Olloqulixon (uning qabri nurli bo’lsin)ning amriga binoan ushbu muqaddas madrasa yaxshiliklar maskani bo’lsin deya bino etildi”. Hijriy sana 1270, milodiy 1854-yil”.

Madrasa me’moriy jihatdan boshqa shu kabi inshootlarga o’xshash, bino simmetrik tarzda, ikki qavatli qilib qurilgan, tarhi to’g’ri burchakli, hovlili. Peshtoqning ikki yoniga an’anaviy guldastaminoralar ishlangan. Bosh tarzini besh gumbazli miyonsaroy, masjid, darsxona va qo’shimcha xonalar egallagan. Hovlining ikki yonida kichik peshtoqlar bor. Birinchi qavatdagi hujralar yotoqxona va yordamchi xonalar sifatida xizmat qiladi, ikkinchi qavatdagi ravoqli peshayvon binoga fayz bag’ishlagan. Ichkari hovlida to’rtta kichik peshtoqlar ham mavjud bo’lib, ularda “suls” xatlari bitilgan koshinlar,

bezaklar ham mavjud. Derazalarda ganchdan ishlangan panjaralar qurilgan. Pastida devor va poydevor orasiga nam o'tkazmaydigan qatlam (gidroizolyatsiya - tosh belbog' - poyas)ni balandligi 68 sm qilib qo'yilgan. Madrasani o'lchamlari quyidagicha:

Umumiy o'lchami-71,7 x 60,0 metr

Ichkari hovli-38,0 x 38,0 metr

Masjid o'lchami-9,4 x 8,4 metr

Darsxona o'lchami-5,6 x 5,5 metr

Yozgi masjid-5,6 x 5,6 metr

Peshtoq o'lchami-25 metr.

Madaminxon madrasasi-deb yozadi 1863-yilda Xivaga kelgan sayyoh A.Vamberi - karvonsaroy tipida qurilgan bo'lib, yonidagi minorasi xonning halokati tufayli bitmay qolgan. Madrasaning 130 ta hujrasi 260 talaba uchun mo'ljallangan, madrasa uchun ma'lum miqdorda vaqf yeri ajratilgan. Bu yer 32525 tanob bo'lib, unda o'stirilgan va yig'ilgan hosil bilan talabalar shug'ullanishgan. Bu berilgan vaqf yeridan yiliga 12000 Xiva botmoni miqdorida (botmon-20 kg) bug'doy va 5000 tillo pul daromad qilingan. Daromad taqsimlanishi:

	Botmon, bug'doy	tillo
5 oxun	3000	150
1 imom	2000	40
1 muazzin	200	40
2 xizmatchi	200	40
1 sartarosh	200	40

2 mutavalli barcha daromadni $\frac{1}{10}$ qismini oladi, qolgani talabalarga taqsimlanadi, ular 3 sinfga bo'linadi.

1-sinf	60	4
2-sinf	30	2
3-sinf	15	1,32

Hujralarda 2-3 talaba yashagan, barcha hujra eshiklari hovliga qarab solingan va har bir hujrada o'choq o'rnatilgan. Madrasada diniy va dunyoviy ilm berilgan, ayni paytda ko'ngilochar o'yinlar, shuningdek ashula aytish man qilingan. Madrasada o'qish muddati chegaralanmagan bo'lib, ayrim talabalar bir kursda 3-4 yil, hatto 8-10 yillab o'qishgan. Madrasada ta'lim 3-bosqichda olib borilgan,

1. Boshlang'ich – “adno”;
2. O'rta – “avsat”;
3. Yuqori – “a'lo”.

Boshlang'ich bosqichda arab grammatikasi, mantiq, shariat qonunlari, diniy urf-odatlar, arab va fors tilidagi adabiyotlar o'rgatilgan. Qolgan ikki bosqich davomida talabalar "tahsib" (mantiq), ilohiyot, huquqshunoslik va boshqa fanlarni qunt bilan o'rganishgan. Madrasaga o'n besh yoshga to'lgan har bir musulmon farzandi, savodi va iqtidori inobatga olingan holda qabul qilinardi. Ularni mulla yoki tolib ul ilm deb ataganlar. Madrasani bitkazgan talabalar orasidan shoirlar, muarrixlar, hattotlar, olim va fuzalo kishilar yetishib chiqqan. Madrasada katta kutubxona va musulmon Oliy Sud boshqaruvi joylashgan.

Muhammad Aminxon minorasi: Ma'lumki, minoralar, Islom dini yurtimizga tarqalishi bilan bog'liq ravishda qurilgan. Har bir masjid yoki madrasa yonida albatta minora qurilib, undan musulmonlarni ibodatga chorlash uchun foydalanilgan. Keyinchalik esa shaharlarni bezagi va hukmdorlarni kuch-qudratini namoyishi sifatida ham qurilgan. Shuning uchun sharq shaharlaridagi ko'hna obidalarni minoralarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Agar Xivaning jahonga mashhur o'nlab me'moriy obidalar tizmasidan minoralarini olib tashlasak, shahar qiyofasi g'arib va ko'rimsiz bo'lib qolardi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, asrimiz boshlarida Xivadagi har bir masjid va madrasa yaqinida minora bo'lgan. Xivada qurilgan mashhur minoralardan biri nihoyasiga yetkazilmagan Muhammad Aminxon minorasidir.

Minora hozirgi paytda kesik konus shaklida bo'lib, shu holatida ham haybatli ko'rinishga ega. Dinamik qisqarishiga qarab xulosa qilinadigan bo'lsa, bitganidan so'ng uning balandligi 100 metrga yaqin bo'lib, O'rta Osiyoda eng katta va baland minora bo'lishi mumkin edi. Minoraga tushgan insolyatsiya (quyosh nurlarini tushushi va sinishi)ga qaraydigan bo'lsak minoradagi koshinlarning rangi o'zgarmaydi. Chunki quyosh nuri har qanday jismni rangini o'zgartiradi, ya'ni oqartiradi yoki ochiq tusga kirgizadi. Bu holat minorada sezilmaydi. Mana qancha vaqt o'tgan bo'lsa ham xuddi yangi qurilganday saqlanib turibdi. Memorichilikda ko'k, yashil, niliy ranglar "sovuq fonlar" deyiladi. Bu yerda ko'proq oq ranglardan foydalanilsa ham, xuddi "issiq" gammalardagidek yasalgan va ishlatilgan. Koshinlarda qizg'ish ranglardan ham foydalanilgan, bu deyarli sezilmaydi. Bunda yaxlitlik, uyg'unlik saqlangan. Minorada asosan geometrik naqshlar ko'p qo'llanilgan minoraga ikkinchi qavatdan ko'tarilish mumkin, ya'ni minoraga yog'och zinapoya orqali chiqiladi. Bu yog'och zinapoya ta'mirlanib turilgan.

Minora 1853-yilda Muhammad Aminxon tomonidan qurila boshlangan va 1855-yil Shimoliy Eronga yurish paytida xonning o'ldirilishi va Abdullaxonning taxtga o'tirishi bilan qurilish ishlari to'xtab qolgan. Minoraning ustki qismidan tushib ketgan koshindagi yozuvlar Xivaning 2500 yillik to'yi arafasida 1997-yilda "Hayot" hissadorlik jamiyati quruvchilari tomonidan qayta ta'mirdan chiqarildi. Ogahiy tomonidan forsiy tilda bitilgan yozuv asliga keltirildi. Harflarni ta'mirchi usta Rustam Tohirov qayta tiklagan, uning matni quyidagicha: "Inson ko'nglini xursand qiladigan minorai oliy bunyod etildi. Uning monandini hali falak ko'zi ko'rmagan edi. Shoni olamning amirlari bilan bo'ldi. U tomoni ayb va nuqsonlardan pok. Agar odil ko'z bilan qaralsa savr daraxti xuddi xashakka o'xshab qoladi. Tubo daraxtidan ham dil ochadiganroq bo'ldi. Uning chiroyli ko'rinishi yer yuzini va osmonni xuddi jannatga o'xshatib yubordi. Osmonning garduniga bir ustun ediki, uning vasfiga aql-idrok kamlilik qiladi. Shu sababdin Ogahiy uning qurilish yilini yozdi. Intihosi yo'q falak ustuni 1271-hijriy, 1855-melodiy yilda qurildi".

Minora qurilishi to'g'risida Mulla Olim Maxdum Hoji "Turkiston tarixi" asarida shunday yozadi: Madrasa qurib bitkazilgach, xon farmoni bilan madrasa yaqinida eng baland minora qurishga farmon berilgan. Minora qurilishi davom qilayotgan davrda (1855), Muhammad Aminxon Eron ustiga yurish qiladi va shahid bo'ladi, natijada u boshlagan minora bitmay qoladi.

Aslida voqea bunday bo'lgan edi: Muhammad Aminxon 1271-sanai hijriyda Jumadul oxir oyida dushanba kuni Saraxsga tobe Qonlitepa mavzesida qatl qilindi. Qariyib o'ttiz besh yoshida turkmanlar boshini kesib olib, kuloh va toji va boshqa asboblari bilan o'n beshinchi kuni Tehronga, shoh huzuriga olib bordilar. Lekin Nasriddinshohga turkmanlarning bu ishi xush kelmadi. Zeroki, hukmdori Xivaq va xonzodai Xorazm ota-bobolaridin buyon xizmatkorni shohona eroniya va parvardan odobi islomiya va muntasiba mavlai Hanifai Ahmadiya, mutakallida manfai Muhammadiyadur, deb chandonpisand va morzoyi xotira bo'lmay shoh amri bilan Tehronda darvozai davlat maqbarasida baland gumbazi oliy bino qildirib, xonning boshi bilan boshqa akotiru a'yonlarni dafn qildirib, arvohlarga tilovati qur'on va at'om fuqaro va miskinon qildirdi.

SHE'R:

**Xorazmshohning boshi hozir Tehronda
Tanasi esa Saraxsda nolon yotibdi.**

Qonlitepa hodisasi shul tariqadurkim, Muhammad Aminxonning har yili g'orat va chopovul qilmog'idin Saraxs va Marv turkmanlari xonga hujum qilib, Qonlitepaga chiqdilar. Ibtido Qurbonquli nom eroniy qilich yalong'ochlab, xonniy boshidin chopdi. Xon mani rofiz sharoratidin xalos qilinglar - deb atbo'laridionat tilasa ham, olar o'z boshi ilan ovora bo'lib xonga iltifot qilmadilar. Xon xasmlariga man xon hazrat va parvardan izzat, mani o'ldurmay shohiy Eron huzuriga yetkurungiz - deb yalunsa ham hech kim so'ziga quloq solmay xonning boshini kesmoqda oralarida nizo bo'lib, o'n ikki odam maqtul bo'ldi. Oxiri Sihat Niyozxon bin O'rozxon Saraxsiy xonning boshini kesib, asbobu ashyolarini g'orat qildilar. Vuzaro va umarolaridan 14, amakivachchalaridin hammasi bo'lib 32 kishi maqtul bo'ldi. Xorazm qozisi Bekchan Devonbegi, Xudoyoriy, Abdulla mahram, Davlatyorbiy, Bekchan sardor, Niyozquli mingboshi, Olloquli yuzboshi, Haqnazar mingboshi, Davlatniyoz yuz boshi 1000 otliq askar ila ionatga kelgan edi. Bekmurod va va Muhammad Shayx aryobiylar 2000 otliq askar bilan doimo Xurosoni chapovul qilar edi. Ulardan 70 kishi maqtul bo'ldi. Ja'far Oqay hukmdor va Mirahmad Jamshidiy vazir edi, zahmdor va va majruh bo'ldilar.

Bu minora haqida xalq ichida ayrim rivoyatlar ham mavjud: Emishki, Xiva xoni shaharda juda ulkan va baland minora qurishni buyuradi. Uning tepasidan "Buxoroyi azim ko'rinib tursin" deb ko'rsatma bergan. Bundan xabar topgan Buxoro amiri minorani bunyod etayotgan me'mor bilan yashirin reja tuzadiki, unga ko'ra minora bitishi bilan me'mor Buxoroda bundan ham yuksak minora qurishi kerak edi. Amir buning evaziga haddan ziyod tillo va'da qiladi. Xon buni sezib qolib, minora bitishi bilanyoq ustani o'ldirishga ahd qiladi. Shu niyatdan ogoh topgan usta minorani chala qoldirib g'oyib bo'lgan. Xalq bu haqda "Madaminxon madrasasi bitdi, minorasi bitmadi, Madaminxon murodiga yetmadi" deb bayt to'qishgan. Minora shu holatda ham haybatli va chiroylidir. Unga turli rangdagi koshin qoplamalardan jilo berib ishlangan. Asrimiz boshlarida uni xalqimiz "Ulli minor", "Ko'k minor" deb ulug'lagan. Muhammad Aminxonni zamondoshlari shunday ta'riflashgan. Eron shohi tarafidin kelgan elchi Mirzo Rizoqulixon Sheroziy Lalabosh saforatnomasida aytadur: Bu viloyatda jang, janjal, o'g'irlik pul olib inkor qilish yo'q edi. Birov-birov bilan urushmasdi, balki ovozini baland ko'tarmasdi ham. Oliy va past tabaqadan har kim bo'lmasin, arzi bo'lsa hech qanday to'siqsiz Xon hazrat Muhammad Aminxon oldiga bora olardi va arzini ayta

olardi. Dunyoviy ish bo'lsa, unga o'zi hukm qilar, shariat ishi bo'lsa, Qozikalonga buyurardi. Zakotdan boshqa birovning moliga egalik qilmaydi. Zakotni qirq bir qilib oladi, pul muomalalarida zulm o'tkazmaydi. Bu mamlakatda hamma narsa arzon, mevalari yaxshi va ko'p qovunlari sozdir, tutlari Shamron tutlaridan shirin, anjiri esa Mozandaron anjiridan soz. Ammo uzumi uncha yaxshi emas. Xonadonlar va anhorlar suvga serob. Xiva xoni o'z mulozimlarini suvu yer bilan ta'minlashni o'z bo'yniga olgan. Har kimga bir tanobdan yer, safarga chiqqanda bir ot, safarda yuk uchun ikkitadan tuya beradi. Shuning uchun uning o'n ming lashkari bundan bexabar (dushman)lar ko'ziga o'ttiz ming bo'lib ko'rinadi va begonalar ko'ngliga vahima soladi. O'rda atrofni kavlab qo'yadilar. Agar kimning oti yoki tuyasi safarda o'lsa uning bahosini oladi. Safardan qaytganlarning har biriga besh tumandan pul in'om qiladi. Har bir odamning oyligi ellik tumandan ortiq bo'lmaydi. Shu tufayli viloyat obod bo'lib xazinasi hech qachon bo'sh bo'lmaydi - deb ahloqi husna va afsofi hamidalarini ham tafsil qildi.

Muhammad Aminxon madrasasi 1979-yilda mehmonxonaga aylantirildi va hozirgi kunlarda ham ta'mirlanib, mehmonxona bo'lib sayyohlarga xizmat qilmoqda.

Matniyoz Devonbegi madrasasi

Xiva xonining moliya vaziri bo'lmish Muhammad Niyoz devonbegi 1871-yilda Xiva shahrining markazida bir madrasa va madrasaga yondosh qilib chorsu qurdirgan. Madrasa Muhammad Aminxon madrasasi yonida joylashgan bo'lib, asosiy kirish qismi g'arb tomonga qaragan. Madrasaning yon fasadlari yo'l tomonda, atroflari ochiq va ko'kalamzorlashtirilgan. Madrasa bir qavatli bo'lib, unda 21 ta hujra, darsxona va kutubxona mavjud bo'lgan. Birinchi qavatida 19 ta hujra bo'lib, qolgan ikki hujra yuqorida peshtoq orqasiga qurilgan. Unga bitta bo'lma yoki dahliz orqali o'tiladi. Hamma madrasalardagidek to'rtburchakning oxiri guldasta-minora bilan tugallangan. Yon ko'rinishlari arkalar bilan qurshalgan. Asosiy bezaklar binoning old ko'rinishida qo'llanilgan. Hamma madrasalar kabi peshtoq bezaklarida islmiy naqshlar ko'p qo'llanilgan. Kirish eshigi ikki tabaqali, eshikka islmiy naqshlar o'yilgan. Eshik tepasidagi marmar toshga arab yozuvida matn bitilgan:

Ilm o'rganishda chegara bo'lmaydi.

Ilm o'rganan saodatli bo'lur.

Ilmli, odamlar orasida hurmatda bo'lor.

Ilm kerak hamma narsani bilish uchun.

Naqshkor Muhammad degan usta o'z hissasini qo'shgan.

Ilmli insonni ikki dunyosi obod bo'lor.

Ilmlini nomi o'chmaydi, tarixda qolib ketadi.

Usta Pahlavon Xorazmiy, Ogahiy, Navoiylarga o'xshab, ushbu yozuvni Devoniy dastxatga bitgan. Sana 1288-hijriy, milodiy 1871-yil. Toshga bitilgan yozuvni Xudaybergan Devon (1817-1914) bitgan. Matniyoz devonbegi madrasasi 1979-yilda restoran, ya'ni ovqatlanish shahobchasiga aylantirilgan. Madrasa o'lchamlari: bo'yiga 36, 4; eniga 31, 8 m. Ichkari hovli bo'yiga 21 m, eniga 17 m.

Polvon Qori savdo uyi


Polvon Qori savdo uyi xivalik savdogar Polvon Qori tomonidan 1905-yilda Ko'hna Ark oldi maydoniga yondosh qilib qurilgan. Bino Xivadagi boshqa binolardan qurilish uslubi bilan farq qiladi. Binoning eshik va derazalari, tashqi ko'rinishi, unga ishlatilgan g'ishtlari hamda tomi tepasidagi mo'rilar shu davrda qurilgan. Xivadagi boshqa inshootlarga o'xshamaydi. Polvon qori 1905-yilda Deshon qal'ada o'z nomiga yangicha uslubda madrasa va minora qurdirgan. Shu bilan birga Xiva shahrining markazidagi ko'rimsiz savdo shahobchasini xondan ruxsat olib, shinam, ixcham, chiroyli va xaridor kirganda ichki bezagi va ichidagi molni ko'rib hayratda qoladigan qilib qayta qurdirgan. Bu savdo uyida o'z davrida Rossiya, Eron, Buxoro, Farg'ona, Afg'oniston, Hindiston va Yevropa hududlarida ishlab chiqarilgan, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hamda Xorazm zargarlarning betakror zargarlik buyumlari, ingliz movuti, eronning ip aralash shoyilari, ipakli mollar, ko'rpa, kamar, buxori etik, xitoy chinnisi, qand, choy va shunga o'xshash turli tuman mayda-chuyda narsalarni uchratish mumkin edi. Hozirgi vaqtda bu binoda bir talay savdo shahobchalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Ko'hna Ark

Ko'hna Ark – Xivaning qadimiy qal'asi bo'lib, Ichon qal'adagi xon saroylaridan biridir. Qal'aning paydo bo'lish tarixi Xiva shahri tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayrim tarixiy manbalarda qal'a va shahar qurilishi bir paytda boshlangan deb ko'rsatilgan. Biroq Ark hududida hozir faqat XIX asrga oid bir necha bino saqlanib qolgan.

Arkda xon va amaldorlarning uy joylari, davlat idoralari bilan bir qatorda ko'rinishxona (salomxonona, arzxona), zarbxona, yozgi va qishqi masjid, haram, aslahaxona, o'q-dori tayyorlanadigan ustaxona, omborxonona, oshxonona, otxona, zindon va qo'chqor urushtiradigan maxsus maydon ham bo'lgan.

Ko'hna Ark atamasi shaharda 1832-1838-yillarda yana shunday bir saroy Toshhovli bunyod etilgach, qo'llanila boshlangan. U qurilishi va tuzilishiga ko'ra shahar ichidagi shaharni eslatadi. Bir tomoni Ichan qal'a devori va boshqa tomonlari maxsus devorlar bilan o'rab olingan. Arkka faqat bitta yo'ldan sharqiy darvozadan kiriladi. Uning hududi 1 gektardan ziyodroq maydonni egallab, to'rtburchak shaklda (123x93m) qurilgan bo'lib, baland qalin devor bilan o'ralgan. Ko'hna Ark kattakichik to'rtta hovlidan tashkil topgan. Hovlilararo maxsus yo'laklar bor, Ark darvozasi burjlari tepasida gumbazli qafasa bo'lgan. Mayda ravoqchalar qatori yon tomondagi qal'a devoriga ulanib ketgan.



Samarkand, Ark. — Anonim, 1880-yil. O'q. K. E. Ark, 1880. 2. 2. — 1880-yil.

Ark:— qadimgi Xorazm shohlarining arz so'raydigan joyi, poytaxtdagi qasr, xon va amirlar saroyi.

Haram va xonga qarashli uy-joylar shimol tomondagi ichkari hovlida joylashgan. Arkdagi buzilib ketgan xonalar haqida aniq fikr yuritish qiyin, lekin saqlangan ko'rinishxona, yozgi va qishqi masjid, zarbxona va haram binolari saroyning haqiqiy ko'rinishi haqida qisman tasavvur beradi.

Ko'hna Arkka kiraverishdagi maydon: Harbiy namoyishlar va harbiy mashqlar o'tkaziladigan joy bo'lgan. Uning o'rtasida davlat jinoyatchilari jazolanadigan "maxsus joy" bo'lgan, chorshanba, juma va yakshanba kunlari peshin nomozi o'qilgandan keyin, jarchilar jar aytib, ark devori yonidagi zindondan mahbuslarni olib kelib, maydon o'rtasida yengilroq jazolar xalqqa namoyish qilingan, qatl qilinishi kerak bo'lgan kishilar ham xalqqa ko'rsatilgan va shahardagi qul bozori o'rtasida ijro qilingan. Ilgari vaqtlarda arkga kiraverishda ikkita mis to'p turgan. 1920-yil 2-fevralda Xorazmda inqilob bo'lib, shu maydonda ko'p ming kishilik namoyish o'tkazilib, Xorazm xoni Sayid Abdullaxon o'z ixtiyori bilan taxtni topshirgani va Xorazm Xalq Sho'rolar Jumhuriyatini tashkil topgani e'lon qilingan. Shundan keyin bu maydonni xalq "Inqilob maydoni" deb atagan.

1994-yilda bu maydonda Muhammad Rahimxon Feruzning 150 yillik tavallud to'yi o'tkazildi. 1997-yil 20-21-oktabrda Xivaning 2500 yillik to'yi ham shu maydonda nishonlandi. Hozirgacha barcha bayram tantanalari shu maydonda o'tkazilmoqda.

Ko'hna Arkning kirish darvozasi – sharq tomonda joylashgan bo'lib, hozirda u XIX asrdan saqlanib qolgan foto yordamida qayta tiklangan. U bir yoqlama uch qubbali imorat ko'rinishidir. O'rtada - tosh yo'l, har ikki tomonda qorovulxonalar bo'lgan. Peshtoqli kompozitsiyaning bosh fasadi ikki va tepadan hujralar tizmasi joy olgan inshootdan iborat. Inshoot 1972-yilda tiklangan, tepa qismining qubbalarini xonqalik kulol Ro'zmat usta Matchonov koshin bilan qoplagan.

Xorazm kulollari ichida yetakchi o'rinda Xiva maktabi an'analarini davom ettirayotgan mohir naqqosh, an'anaviy bodiya bezovchi madirlik usta Ro'zmat Matchonov turadi. Uning ishlari uslubining sofliigi, yorqin ifodaligi bilan ajralib turadi. Ro'zmat Matchonov to'k ko'k rangdan ko'proq foydalangani uchun ishlarida to'q ko'k-moviy tuslar yetakchilik qiladi. O'lchami: 13 x 8,5 metr.

Ko'rinishxona: O'tmishda ko'rinishxona arzxona va salomxona sifatida tilga olingan. Ko'rinishxonaning 2 ustunli baland va hashamatli ayvoni alohida ajralib turadi. Ayvonda rasmiy qabul marosimlari o'tkazilgan, davlat ishlari hal etilgan. Ko'rinishxona Arangxon tomonidan 1686-1688-yillarda qurdirilgan. Lekin 1740-yilda Eron shohi Nodirshoh hujumi tufayli vayron bo'lgan. Hozirgisini Eltuzarxon Xiva binolari qayta tiklanayotgan davrda (1804-1806) qurdirgan. Qurilishga Yusuf Mehtar boshchilik qilgan. Ko'rinishxona ayvonida taxt turadigan xonaga kiriladi. Xonaning devorlaridagi bezaklar

buxorolik ustalar tomonidan ishlangan soddaroq va ko'rimsizroq bo'lib, Xorazmnikidan tubdan farq qiladi. Devordagi naqshlar 1994-yilda xivalik ustalar tomonidan qaytadan qilingan. Xon taxti uzun zalning to'ridagi gumbaz ostida turgan (bu taxt hozir Moskvadagi qurol-aslaha palatasida saqlanmoqda). Ko'rinishxona ayvoni shimolga qaratib qurilgan bo'lib, tevaragida qarama-qarshi tomonlarida bir qavatli binolarning ustki qismlari kichik ayvonlar bilan yopilgan, sababi qishda, ya'ni shimoldan kelgan havo oqimi katta ayvonga urilib, keyin ayvonchalar orqali aylanma harakat qilib tepaga chiqib ketgan. Ko'rinishxona ayvoni Olloqulixon davrida (1825-1842) yangidan qurilib, devorlariga sirli koshin yopishtirilgan, koshinlarni usta Abdulla jin qilgan. Ko'rinishxona ayvoni 1855-yilgi janjallarda vayron bo'lgan bo'lib, 1864-yilda Sayid Muhammadxon tomonidan qayta ta'mirlangan. Bu davrda arzxonadagi ikkita o'ra (ustun) va o'ratosh yangidan qo'yilgan, ulardan birini o'ratoshiga usta Islom Xo'ja Xorazmiy tomonidan ustod Ogahiyning she'ri marmarga o'yib yozilgan. Quyida biz ushbu she'rni oxirgi misralarini keltiramiz:

*Vafosizdurur dahr (dunyo) iqboli bil,
Baqosizdurur mulk ila moli bil.
Ko'ngil qo'ymagil mulki bunyodiga,
Yet, albatta, mazlumlar dodiga.
Sana 1274 hijriy, 1857- yil milodiy.*

Ko'rinishxona o'rtasida g'ishtin supasi bor bo'lib, u nufuzli sayyoh, mehmonlarni kutib olishda chodir qurishga mo'ljallangandir. Ko'rinishxona ayvoni shipidagi naqshlar 1937-yilda Abdulla Boltaev tomonidan qayta tiklangan, undagi qadim an'anaga asosan ishlangan simmetrik shakldagi panno, hoshiya va tokchalar ajoyib manzara hosil qiladi. Ko'rinishxonaning o'lchamlari: 27,8 x 26,9 m. Hovlisi 17,5 x 13,5 m.

Xiva xonining qabul marosimi

Qabul marosimlari xonlarning qudrati, ulug'vorligi va badavlatligini namoyish qilib, bu bilan xonlar kiyimi, tantanali jihozi oldida, saroyga kelganlarning orzu-umidlari va maqsadlarining naqadar ahamiyatsizligini sezdirishga qaratilgan. 1740-yilda Xivaga kelgan Orenburg dragun polkining poruchigi Dmitriy Gladishevning aytishicha, xonning o'tovida Orol beklari va uning amaldorlari o'tirgan

edi. Xon eng hurmatli joyda o'tovning to'rida o'tirgan bo'lib, uning ikki tomonida qirqqa yaqin Xiva zodagonlari o'tirardilar. 1757-yilda Xivaga razvedka maqsadida kelgan tarjimon Gulyaev qabul to'g'risida shunday hikoya qiladi: – “Oltinchi fevral kuni meni xonning hovlisiga olib borib, u o'tiradigan xonaga kiritdilar, yasovul unga mening kelganligim to'g'risida ma'lum qildi. Men tiz cho'kdim va u esa o'ng yelkamga qo'lini tekkizdi, shundan so'ng yasovullar meni eshikkacha kuzatib, kutishimni tayinlashdi. Xon mendan so'radi: Sog'-omonmisan, ey elchi? Sening kelishing biz uchun tabarrukdir! -shundan so'ng bir gap so'zlashganim ham yo'q, ko'p turmasdan yasovullar meni o'z xonamga kuzatib qo'ydilar”.

Muhammad Rahimxonning (1806-1825) qabulxonasida bo'lgan elchining yozishicha, darvozadan ko'rinishxonagacha bo'lgan yo'l uchta hovlidan o'tardi. Saroy darvozasi yonidagi birinchi hovlida elchilar xon qabulini kutganlar, ikkinchisida lafetga o'rnatilgan yettita to'p turgan, uchinchisida esa xon devoni (kengashi) ning yig'ilishlari o'tkazilgan va nihoyat, dahlizdan so'ng ko'rinishxonaning eng katta hovlisi joylashgan. A.Vamberi 1861-yilda Xivaga darvesh kiyimida kelgan va xon qabulidagi estaliklarida shunday deydi. Ertasi kuni xonning kichkina sovg'asi bilan yasovul keldi va saroyga bugun kechqurun qaytishim to'g'risida, uning buyrug'ini yetkazdi. Qushbegi yo'qligi sababli, meni mehtar qabul qildi. Men odat bo'yicha duoi salom berib, u bilan so'rashdim. Men bir oz kutib turdim, ikki yasovul meni hurmat bilan kuzatib bordilar, parda ko'tarildi va men ko'z oldimda Xiva xonini ko'rdim. U terassaga o'xshash baland joyda, chap qo'lini baxmaldan tikilgan dumaloq yostiqa tiragancha o'tirardi. Men boy tomonidan berilgan maslahatga ko'ra skipetr(saltanat hassasi)ni tutgan holda, qo'limni duo qilish uchun ko'tardim. Xon va shu yerdagilar ham menga qo'shilib qo'lini duoga ko'tardilar. Shundan so'ng men Qur'ondan qisqagina surani aytdim va odatdagi kalimadan so'ng “omin” dedim. Xon yoniga yaqin kelganimda, u menga ikki qo'lini uzatdi va “musafeh”dan so'ng men bir necha qadam bosdim, keyin shu bilan qabul marosimi tamom bo'ldi.

“Musafeh”- ko'pchilik tomonidan tavsiya qilingan ta'zim, u vaqtda Xiva xoni Said Muhammadxon edi. Xivalik qariyalar – A.Abdullaev, P.Matchonov, I.Vaisovlarning gaplariga qaraganda, Xiva xoni har kuni qabul qilishga harakat qilardi va xalqni ko'ngliga qarab, gohida qabul shubhali, jiddiy va rasmiy ravishda o'tardi.

Xiva xonlarini taxti: 1873-yili Xorazmning boshqa milliy boylklari qatori A.L.Kun tomonidan Peterburgga olib ketilgan. Taxt

Moskva Saroy idorasining tavsiyasiga ko'ra, 1874-yilda iyul oyida Kreml muzeyining Qurol-aslaha palatasiga qo'yiladi. U yog'ochdan yasalgan bo'lib, Xiva naqqoshligiga xos uzluksiz jimjimador bezaklar tushirilgan kumush "tasma" va taxtachalar bilan bezatilgan. Taxtning orqa suyanchig'iga romb shaklida taxtacha o'rnatilgan va unga arab yozuvida "Xiva viloyatidagi Xorazm sultoni Muhammad Rahim hukmdorligi davrida Ollohning itoatkor quli Muhammad tomonidan ishlandi" so'zlari bitilgan. 1811-yil sanasi taxtning yog'och oyog'ida ko'rsatilgan. "Xiva xonligi taxti" sharq san'ati noyob asarlari qatoriga kiradi va u bir necha marotaba Parij, London Nyu-York singari dunyoning mashhur shaharlardagi halqaro ko'rgazmalarda namoyish qilingan.

Masjid: Olloqulixon davrida 1838-yilda qayta ta'mirlangan, yozgi va qishgi masjidlar hamda tahoratxona bir vaqtda qurilgan. Masjidning sirkor koshinlarini xivalik kulol ustalar Abdulla va Ibodulla ishlagan. Keng ayvonda 2 qator qo'yilgan bezaksiz olti ustun bor, keyingi tuzatishlar vaqtida ustunlar lojuvard, yashil va qizil ranglar bilan pechakband shaklida bo'yalgan. Toqi va taxtachalar terib ishlangan ship lojuvard rangga bo'yalib, ustidan zarrin naqshlar chizilgan. Masjidning hovlisi uncha katta emas, atrofi gumbazli xonalar bilan o'ralgan. Qishki masjid keng chorsi xonadan iborat bo'lib, uning atrofida boshqa binolar ham bo'lgan. Masjidga janub tomondagi kichik darchalardan yorug'lik tushgan. Ichiga yozgi masjid yonidagi hovlidan kiriladi. Devorlari bezaksiz yozgi masjid ayvonida supacha bor hamda qibla tomonga qaratib mehrob tushgan mehrobdagi yozuvlar: "Ollohni nomi va to'rt choriyorni ismi bitilgan.

"Olloh, La ilaha illallohu Muhammadur Rasululloh"

"Olloh, Abu Bakr Siddiq, Umar Roziulloh anhu, Usmon Rafurrullohu, Ali ul Murtazo" so'zlari yozilgan.

Frizga o'yib yozilgan she'rlardan ma'lum bo'lishicha, masjid 1838-yilda Olloqulixon buyrug'i asosida barpo etilgan. Qishgi masjid sahnida hozirda "Qadimgi Xorazm" tarixini aks ettiruvchi bo'lim joylashgan.

Zarbxona: 1811-yilda Muhammad Rahimxon I tomonidan Arkning janubiy qismida qurilgan, hozirda buzilib ketgan. Bu yerda xonning muhri bosilgan tilla va kumush tangalar, chaqalar zarb etilgan. Zarbxonadagi temirchi qo'rasi, pul zarb qiladigan maxsus qoliplar hozir Ark masjidining tahoratxonasidagi zarbxona faoliyatini aks ettiruvchi xonada saqlanib, xalqqa namoyish etilmoqda.

Endi savol tug'iladi, Xiva xonlarining xazinasi qacda saqlangan?

Xon saroyida asosan to'rt joyda boylıklar saqlangan va tarqatilgan.

1. Xon haramida: xonning xos xonasida qimmatbaho taqinchoqlar, olmos, gavhar qadalğan qimmatbaho qurol-yarog'lar saqlangan.
2. Zarbxonada-xonlikda chiqarilgan tilla, kumush pullar, boshqa davlatlarda chiqarilgan nodir tangalar xon muhrlari, pul bosadigan qoliplar saqlangan.
3. Ko'rishinxonada: xonning xos kutubxonasi, juda - juda nodir kitoblar, yorliqlar, farmonlar, chet ellar bilan olib borilgan yozishmalar.
4. Anjomxonada: sarbozlarga urushda olib kelgan asirlar, o'ljalr, kallalar soniga qarab har turli sarpo, to'n berilgan. Masalan: 4 kalla-oddiy chapon, 20, 30, 40 kallalik chaponlar ham bo'lgan. Bu rag'batlantiruvchi daromad manbai bo'lib xizmat qilgan.

1820-yilda Xivaga kelgan P.N.Muravyev o'z xotiralarida shunday deb yozgan: "Muhammad Rahimxon zamonasida zarbxona qurilib, unda hukmdor farmoni bilan oltin pullar zarb qilingan. Oltin tangalar sofligi, zarb qilish uslubi bilan juda xushbichimdir. Bizning pulga chotishtirganda to'rt kumush pulga tengdir. Tanganing bir tomonida turk tilida Muhammad Rahimxon I nomi, ikkinchi tomonidan arab tilida duo va zarb qilingan sana ko'rsatilgan". Zarbxonada 1920-1924-yillarda XXShJ va XSSR ning davlat ramzlari tushirilgan qog'oz, shoyi va mis pullari zarb kilingan, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan kishilarni taqdirlash uchun jumhuriyatning ordenlari ham tayyorlangan.


Haram: Arkning shimoliy qismida joylashgan bo'lib, keyinchalik qayta ta'mirlanib, 1910-yilda Muhammad Rahimxon II davrida (1864-1910) yaxlit holga keltirilgan. Haramning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan burjli g'ishtin ayvongina yaxshi saqlangan. Devorlaridagi islamiy naqshlarni ganchkor ustalar chiroyli qilib ishlashgan. Qolgan uchta ayvon nigirik uslubida tiklangan, bezaksizdir, ayvonlar qarshisida uylar joylashgan, uylarning usti kichik ayvonchalar bilan yopilgan. Haramga ichkaridan va tashqaridan kiriladigan eshiklari bo'lgan. Haramni o'rtasida uzinasiga tushgan hovuz bo'lgan, hozirgi vaqtda yo'qolib ketgan.

Haram hovlisi janub tomondan turarjoy binolari bilan qurshab olingan, ularning har birida xonning bir xotini turgan, bino bir ustunlik ayvon va bir xonalik uydan iborat bo'lgan. Xon turadigan uy bulardan faqat hajmi va ishlovi bilangina farq qilgan. Hovlining shimoliy qismida cho'ri va kanizaklar turadigan ikki qavatli uylar saf tortgan.

Hozirgi kunda bu hovlida muzey ma'muriyati joylashgan. O'lchamlari: 62 x 32,6 metr.

Oq Shayx bobo tepaligi: Rivoyatlarga ko'ra, XIV asrda yashab o'tgan Shayx Muxtor Valining qadamjosi bo'lgan. Arxeologik qazishmalar shuni tasdiqladiki, tepalik juda qadimgi bo'lib, qaytadan XVII asr boshlarida asos solingan. Tepalikda saqlanib qolgan ikki qavatli uying xarobalari so'nggi davrga oid qasrning kuzatuv minorasi bo'lib xizmat qilgan. Tepalikning ichki xonalarida XIX asrda to'p quyish ustaxonasi va porox saqlanadigan ombor joylashtirilgan. Bino 1991-yilda qayta ta'mirlangan, hozirda sayyohlar baland ayvon orqali shaharni tepadan tomosha qilmoqdalar.

Muhammad Rahimxon (Feruz) madrasasi



Ko'hna ark darvozasi qarshisidagi madrasa Sayid Muhammad Rahimxon II ning farmoniga binoan 1871-yilda boshlanib, 1876-yil oxirida ishga tushirilgan. Madrasa o'zining kengligi, serviqorligi bilan boshqa madrasalardan ajralib turadi.

Madrasaning asosiy fasadi oldida keyinroq qurilgan bir qavatli hujralar kichik hovlini tashkil etgan. Maydon tarafdin hujralarga baland ayvonli savdo rastalari tutashadi. Madrasa maydonining kattaligi jihatidan Xivada oldingi o'rinlardan birini egallaydi.

Madrasada yozgi va qishgi masjid, darsxona, kitobxona va hujralar bor. Umumiy arxitektura tuzilishi odatdagilardan boshqacharoq. Katta hajmlar ko'rinishida qandaydir g'ayritabiiylik bor. Madrasaning hovlisi 76 ta bir qavatli hujra bilan o'ralgan. Hujralar tomi tashqi tomondan to'siq devor (parapet) bilan chegaralangan va ikki qavatli bosh fasadga kelib tutashadi. Xushqad peshtoqning ikki yonida besh ravoqli galereya bor. Darvozaxona atrofidagi xonalar to'qqizta gumbazga ega. Binoning ichki plani boshqa madrasalar tuzilishidan farq qiladi. Devorlar yuzasidagi sirkor g'ishtchalardan terilgan ornamentli bezaklar odatdagi shakllarni takrorlaydi. Kishida hovlining tuzilishi o'zgacha taassurot qoldiradi. Hovlining bir qavatli hujralari qatori baland dekorativ peshtoqlar tashqi to'siq devor va burchaklardagi chiroyli minorachaguldastalar bilan birgalikda ajoyib manzara kasb etadi.

Madrasaning vaqfi (madrasa faoliyatini ta'minlaydigan daromad manbai) uchun xon 2941 tanob (2,5 tanob - 1 gektar) yer ajratilgan. chiroyli koshinlar bilan bezatilgan madrasaning ochilish tantanasida zamonaning fuzalo va shuarolari tarixlar va qasidalar aytib xondan in'omlar olganlar. Xon o'z ayonlari, qarindoshlari, qurilishda ishlagan usta va hunarmandlarga hadya qilgan xarajatlardan tashqari, bu to'yda 118 tillo sochilgan.

Madrasaning peshtoqiga arab tilida shunday yozuvlar bitilgan:

Ushbu muborak binoni zamon sultoni va dunyo hoqoni, Oллоhning xalifasi va soyasi, g'alabalar va shuhratlar egasi, yengilmas qudrat sohibi, mamlakatlarni fath qiluvchi Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon bunyod qildirgan. Sana 1289. (1872)

Eshik tepasiga o'ymakor usta Pahlavon Niyoz Xorazmiy tomonidan marmar taxtachaga shoir Komilning fors tilidagi she'riy tarixi yozilgan:

**Falak kabi shavkatga ega bo'lgan shoh,
Saltanatda so'zi o'tkir va qudratlidir.
Uning qadami saltanat taxtiga yetgach,
Muborak qadamidan Xorazm jannatga aylandi.
Savob makoni bo'lgan ushbu binoni o'z saxovati bilan,
Yuksak martabali olimlar uchun bunyod qildi.**

Madrasa ichki hovlisining to'rtta peshtog'iga Ogahiy bilan Komil Xorazmiyning ikkitadan she'riy tarixlari yozilgan. Ularda xonning sharofatidan mamlakat obod bo'lib, adolati jahonga yoyilgani, olimlar daraja topib, maqsadlariga yetishgani, xonning o'zi olimu fozillarga g'amxo'rlik qilib ilm-fan madadkorini nomiga sazovor bo'lgani tarannum etiladi.

Madrasaning o'lchamlari: 62x50 m, ichki hovlisi 28x29 m, madrasa oldidagi hovli 20x42 m. 76 hujra 152 talabaga mo'ljallangan.

Mustaqilligimizning ilk yillarida, ya'ni 1994-yilda madrasa qayta ta'mirlanib, shu yilning sentyabr oyida bo'lib o'tgan Muhammad Rahimxon II "Feruz"ning 150 yillik to'yiga to'yona qilib madrasaning hovlisiga chiquvchi dahlizlari, o'quv xonasi va qishgi masjidida Xiva xonligi tarixi va madaniyatini ochib beruvchi "Xorazm adabiyoti va tarixi muzeyi" ochildi. Biz muzeyga kirar ekanmiz ko'z oldimizda XVI asr boshlarida tashkil topgan Xiva xonligi va unga qo'shni bo'lgan Eron va Buxoro xonligi hududida yashovchi xalqlarning tarixi, madaniyati va san'ati gavdalanadi. Biz yana XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida Xorazmda markazlashgan davlatning tashkil topishi hamda uning ichki va tashqi siyosatining Markaziy Osiyo xalqlari taraqqiyotiga ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

Bo'limda XIX asrning ikkinchi yarmida Chor Rossiyasi o'zining sanoat xom ashyosiga bo'lgan talablarini qondirish maqsadida "Sharqqa yurish" qilib Markaziy Osiyo davlatlarini, jumladan 1873-yilda Xiva xonligini egallab olishi va o'lkamizdan nodir osori atiqalarni, davlatning va xalqning boyliklarini olib ketilishi, bularning o'rnini to'ldirish maqsadida Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib Muhammad Rahimxon II tashabbusi bilan tashkil qilingan va ommalashtirilgan "Markaziy Osiyodagi ilk toshbosma", O'zbek foto va kino san'ati qaldirg'ochi Xudoybergan Devonov merosi, Markaziy Osiyoda ilk bor notaga asos solgan hassos shoir va musiqachi Komil Xorazmiyning "Tanbur chizig'i" asarini ko'rsatib beruvchi buyumlar va Pahlavon Mahmud, Abulg'oz Bahodirxon, Muhammad Rahimxon Feruz, Munis va Ogahiy singari buyuk mutafakkir, shoirlar va xalq e'zozlagan kishilar hayoti bilan tanishishimiz mumkin. Qisqasi muzeyda Xiva xonligining davlat ramzlari-bayroq, tangalar va oxirgi hukmdor xonlarning asl nusxa foto-suratlari, xorijdan keltirilgan savdo buyumlari, xitoy va rus chinnisi, mahalliy hunarmand ustalarning mahsulotlari, qurol-aslaha, kiyim-kechak, ro'zg'or anjomlari kabi ko'plab eksponatlar namoyishga qo'yilgan.

Sayid Alovuddin maqbarasi

Maqbara Ichan qal'a arxitektura yodgorliklari ichida eng qadimiylaridan biridir. Maqbara bitta ziyoratxona va go'rxonadan iborat. Asrlar davomida atrofida qabrlar ko'payib ketganligi uchun maqbara yer sathidan pastda qolib ketgan. Arxeologik tekshirishlar natijasida, yodgorliklarni avvalgi ko'rinishi va tarixiga oid ko'pgina ma'lumotlar to'plangan. Tarixchi Ahmad Roziy xorazmlik mashhur shayxlar ro'yxatiga Said Alovuddinni ham kiritib, uni Shayx Najmiddin Kubrodan keyin yirik shayx bo'lgan deydi. Bu so'zlarni Jomiy va Navoiy asarlarida ham o'qisa bo'ladi. Xorazmlik Safarzoda Bobojon o'g'lining Xorazm avliyolari haqidagi qo'lyozmasida shunday deyiladi: – "Bu kishi XIII asrda tug'ilgan Xorazm o'zbeklaridandur. U yigitlik chog'ida maktab, madrasani tugatib, maktabdorlik qilgan va masjidlarning maktabxonasida bolalarni o'qitadurgan mulla bo'lgan, Pahlavon Mahmudni ham maktabda o'qitgan ustozini sanaladi".

Maqbaraning go'rxonasida muqaddas hisoblangan ajoyib sirkor dahma joylashgan, dahma juda chiroyli yashil ko'k va oq rangli koshinlar bilan qoplangan. Bu koshinlardagi barcha naqsh gullari bo'rtmaligi bilan odatdan tashqari bir go'zallik kashf etadi. Bunday koshinlar Xivada yagona bo'lib, uning tengdoshi va o'xshashi Ko'hna Urganchda Shayx Najmiddin Kubro, Samarqandda shohi Zindadagi Qusam ibn Abbos qabrida uchraydi. Maqbarani Shayx Sayid Alovuddin shogirdi va muridi naqshbandiya mazhabining taniqli namoyandasi so'fi Amir Kulol (1380-yilda vafot etgan va Shahrisbzdada Amir Temur tomonidan dafn qilingan) qurdirgan.

Maqbara tuzilishi bir oz beo'xshov. Undagi yirik kosali burchak muqarnasi, do'ppisimon, sakkiz rahli gumbaz nihoyatda sodda ko'rinishga ega. Lekin maqbara ana shu beqiyos dahma tufayli mashhur bo'lib ketdi. Soddagina maqbara bilan rang-barang bezatilgan hashamatli dahma o'rtasidagi tafovutning kattaligidan, dahma boshqa joydan keltirilgandek tuyuladi. Dahma shakli monumental binoga o'xshatib yasalgan. Asosi-zinali supa shaklida yasalgan, burchaklariga ustunchalar qilingan, dahmaning yuzasi sirkor sopol bilan qoplangan. Dahma devorlari ornamentli po'ta bilan hoshiyalangan bo'lib, o'rtasida esa pannolar joylashgan. Dahma ustida ikkita sag'anacha bor. Mayda o'simliksimon gullar juda haqqoniy tasvir etilgan bo'lib, shakli o'sha davr uy-ro'zg'or asboblaridagi bezaklarga o'xshab ketadi. Dahma koshinlarida ishlatilgan gullar, yirik shakl ichida mayda chiziqchalar hammasi birlikda shinam va jozibali ko'rinish kasb etadi. Rang-barang

jimjima ornamentlar fonida sag'anachalarning kichik yuzlaridagi oppoq yozuvlar ajralib turadi.

Bizning buyuk shayximiz Alovuddin,
Vafoti bilan Ollohning marhamatiga yetdi.
Ketgan kun baxtli shabon oyidan,
O'n kun o'tgach sodir bo'ldi.

Ushbu she'rdan ma'lum bo'ldiki, shayx 1303-yil 18-martda vafot etgan. Mashhur shayxlarning qabrlari ustidagi maqbaralar davr o'tishi bilan ziyoratgohga aylanib qolgan. Xiva xoni Olloqulixon unga e'tiqod bog'lab, o'z davrida uning maqbarasi ustida oliy imoratlar bino qilib, anchagina vaqf yeri ajratgan. 1825-yilda maqbara butunlay ta'mirlanib, ziyoratxonaning nuragan peshtoqining ravoqli qanotini bir oz qisqartirib qaytadan ishlangan. Ichkaridagi tokchalar berkitilgan, xona sahniga g'isht terilib devorlar esa ganch suvoq qilingan. Devorda tush bilan yozilgan 14 misra she'r bo'lib, undagi yozuvlardan ma'lum bo'lishicha, bino ta'miri Olloqulixonning farmoni bilan Xubbiqulix'o'ja o'g'li Hamidxo'ja boshchiligida bajarilgan ekan.

Uy-joy memorchiligi

Xorazmning o'ziga xos iqlimi (sahroga yaqinligi), aholining joylashishi, shaharlarning rivojlanishiga va uy-joylarning shakliga yaxshigina ta'sir qilgan. Qadimda aholi sug'orish tarmoqlariga yaqin joyda yashagan. Daryo o'zanining o'zgarishi natijasida shaharlarning ko'chish voqeasi Xorazm tarixida ko'p uchraydi.

Uy-joylarning eng qadimgi va eng keng tarqalgan turi alohida-alohida joylashgan qo'rg'on hovlilardir. Qo'rg'on qishloq va ovuldan tamoman farq qiladi. Xorazm hududidagi to'xtovsiz bo'lib turgan o'zaro urushlar qo'rg'on-hovlining devorlari mustahkam va xonalarining keng bo'lishini talab qilardi. Qo'rg'onida oilaning butun ro'zg'ori, mollari, oziq-ovqat va suv saqlanadigan joylari bo'lgan. Qo'rg'on teshik-tuyniksiz paxsa devor bilan o'ralgan bo'lib, devorning burchaklari g'o'la shaklidagi burjlar bilan mustahkamlangan. Qo'rg'on tarhi (plani) to'g'ri to'rt burchak shaklida bo'lib, asosan ko'pincha tashqi (dshan) va ichki (ichan) hovlilarga bo'linadi. Barcha xonalar yassi tom bilan yopilgan. Uzun yo'lak tepasidagi tuynuklar orqali yondosh xonalar ham yoritilgan, bunday qo'rg'on qamal vaqtida 100-150 kishilik jamoani muhofaza qilardi.

Mustahkam qo'rg'onlar ko'plab qurilishi bilan bir qatorda ular atrofida VI-IX asrlarda qishloqlar vujudga kela boshladi, bu qishloqlarga katta mulk egalari ko'shk qo'rg'onlari o'zgacha fayz bag'ishlagan. Qo'rg'onlar atrofidagi uylar asosan cho'pkori uslubida qurilgan oddiy binolar edi. Shu davrlarda bunday imoratlar tiklash va buzish oson bo'lgan. Shaharlarda joy tansiqligi uchun ixcham cho'pkori imoratlar qurish qulay bo'lgan. Cho'pkori imoratlar keyinroq shaharga xos asosiy bino bo'lib qoldi. Afsuski, cho'pkori imoratlar paxsa devorli imoratlar kabi uzoq saqlanmagan. Shu sababli ularning qurilish taraqqiyotini o'rganish imkoni bo'lmadi.

Xiva uylarining o'ziga xos tuzilishi diqqatga sazovordir, binoning konstruktiv asosini bir qavatli cho'pkori devor tashkil etib, sinchlar orasiga xom g'isht bilan loy urilgan. Bu yerdagi yozgi va qishgi xonalarning joylashuvi katta-kichikligi, bezaklari Buxoro, Samarqand va Farg'ona uy-joylaridan tamoman farq qiladi. Markaziy Osiyo memorchiligida asrlar davomida imorat tarhi tarzidagi zaruriy unsur bo'lib kelgan. Uning yuzaga kelishiga mintaqadagi iqlim sharoitining ta'siri katta bo'lgan. Bu yerda yoz juda issiq, qish esa sovuq bo'ladi. Xiva uy-joylarini tashqi ko'rinishi juda ajoyibdir: har bir uyda shimol tomonga qaratib ayvon quriladi, ayvonda asosan yozda "saraton oyida" kishilar issiqdan jon saqlashgan.

Xivaning ichki qal'asida joy tansiqligi sababli hovlilarning fasadlari deyarli hammasi juda tordir. Ayvon hovli sahnini yuqoridan deyarli to'sib turadi va hovli ham qisman ayvon vazifasini o'taydi. Hovlida shamol yaxshiroq yurishi uchun ayvonni baland qilib qurganlar. Bu esa shamolning pastdan yuqoriga almashib turishi va ichkarini harir nur bilan yoritilishiga yordam beradi. Ayvon qishda xonaning juda sovuq bo'lishidan, yozda esa juda isib ketishidan saqlagan. Shuning uchun me'morlar xonaning hovli iqlim sharoiti bilan yaqinligini saqlash, uyg'unlashuv jihatidan rang-barang manzarasi bilan bog'lanishiga alohida e'tibor berishgan. Mazkur tadbirlarni amalga oshirishda ayvon qo'l kelgan. U xona bilan tashqi muhitni bog'lovchi qism vazifasini o'tagan.

Ayvon o'rta asrlarda va undan keyingi davrda ham uylarda keng qo'llanilgan. Turar joy me'morchiligida ayvon ikki, to'rt xona oralig'ida uyning old qismini butunlay egallagan holda (pesh ayvon) qurilgan. U imoratning old yoki yon tomonlarida galereya (yo'lak) sifatida, devor sathidan bo'rtib chiqqan bolaxonaga monand, ikkinchi qavatning ochiq qismini egallagan shiypon sifatida va alohida to'rt, uch tomoni ochiq boshpana sifatida ham bunyod qilingan.

Ayvonning turar joy me'morchiligida qo'llanilishi o'sha joyning iqlim sharoiti va xonalarning joylashuv tartibidan kelib chiqqan. Masalan, Xivada iqlim-sharoitining o'zgaligi, yozda havoning nisbatan issiqligi sababli ayvon xona va hovli havosini yangilab turishga mo'ljallangan. Bu yerdagi ayvonlar ikki xil tuzilishga ega. Ulli (Ulug') ayvon xonaning old qismini egallagan va undan ancha baland ko'tarilgan. Uning qarshisida teskari kichikroq ayvon o'rnatilgan. Ulli ayvon bitta markaziy ustunga egaligi jihatidan minoraga monandir. U shamol esadigan tomonga qaratilgan bo'lib, shamolni hovliga yo'naltirgan. Aslida ikkala ayvon ham hovlini tom bilan yopgandek tuyuladi. Ayvon o'z vazifasidan tashqari imoratning umumiy kompozitsiyasini badiiylashtirgan va uning me'moriy yechimini boyitgan. Masalan, Xivadagi Toshhovli saroyida ulli ayvon chuqur hamda minora tuzilishida bo'lib, uning markazidagi ustun o'ymakorlik usulida naqshu nigor bilan bezatilgan. Bu butun hovli kompozitsiyasiga badiiylilik kasb etgan.

Xorazm shahar turar joylarida yetakchi tipologik uslub bu hovlida uzun ayvon qurilishi bilan belgilanadi. Shahar turar joy planirovkasida yopiqlik saqlanib qolingan. Bu hol qishloq hovlilari uchun ham xosdir. Hovliga kirish yo'lagi ustiga bazan mehmonxona (talak) qurilgan, bu yerda uy egasi bo'lgan hunarmand buyurtmachilarni qabul qilgan. Turar joy yorug'lik tushishi hisobga olinib qat'iy ravishda oriyentatsiya qilinadi, qishqi yashash xonalari janubiy sharq, g'arb tomonga, yozgi xonalar esa shimol tomonga joylashtiriladi. Hovli deyarli ayvonlar bilan yopiladi, bu ayvon koziroklari oldinga ancha chiqib turadi. Ayvonlar har xil kattalikda bo'lib, shimol tomonda bir ustunli baland ulug' ayvon quriladi va u boshqa xonalar sathidan balandroq bo'ladi. Xivaning Dishan qalasidagi turar joylarda ayvonning quyidagi turlari namoyon bo'ladi:

a) Katta bo'lmagan hovliga ega bo'lgan bir ustunli ulug' ayvon. Bu ayvon hovli yuzasining yarmini yopib turadi. Ulug' ayvon yashash xonasining ustki qismiga quriladi, bu turdagi ayvonlar eng ko'p uchraydi;

b) Hovliga uzun va baland o'ng ayvon va uning qarama qarshi tomoniga o'ng ayvon balandligiga nisbatan pastroq bo'lgan ters ayvon quriladi;

v) Hovlida ulug' ayvon qarshisidagi yashash korpusi ustiga boloxonali-ayvoncha quriladi va bu tomondagi unga tutashadigan ayvonlar balandligi bir balandlikdagi sathda yotadi. Ular qo'shilishi

natijasida oraliqlar yopilib quyosh nurlari ham to'siladi va hovliga to'liq soya tushadi;

g) Ayvonlar hovli parametri bo'ylab tiklanadi. Ikki tomoni yoki uch va to'rtala tomoni ham burchakli qilib qurilishi mumkin. Bu uslub shahar chetida joylashgan hovlilar qurilishida keng qo'llaniladi.

Ayvonlar turar-joy binolarining ichki muhitiga shinamlik bag'ishlabgina qolmay, balki tashqi kompozitsiyasiga ham o'ziga xos ko'rinish baxsh etadi.

Xiva uy-joylari uchun xarakterli bo'lgan umumiylik shundan iboratki, binoning tuzilishi ham, bezagi ham juda sodda. Xona va ayvon devorlari bezaksiz somonli loy suvoqdan, uyning shipi toqi (vassa, patik) va yarim g'ola to'sinlardan iborat. Ganchdan ishlangan o'ymakor bezaklar uchraydi. Binodagi birdan bir bezak katta ayvonning o'ymakor yog'och ustunidir. Bundan tashqari o'ymakor eshiklar, panjaralar va ba'zi ko'tarma ayvonlar ham xonadonga zebziynat bag'ishlaydi.

Qozikalon madrasasi

Qozikalon madrasasi 1905-yilda Xiva xonining bosh qozisi Salim Oxun tomonidan qurilgan. Madrasaning qiyofasi va sahni uncha katta emas, boshqa madrasalardan farq qilmaydi, ammo o'qitish uslubi bilan boshqa madrasalardan farq qilgan. Bu madrasada diniy bilimlar bilan bir qatorda qonunshunoslik, turli soliq va zakotlar yig'ish, ya'ni yuridik bilimlar berilgan. Madrasani maydoni 32,5x23,4 m, darsxonaning o'lchami 4,7x4,7 metr, unga yondosh masjid joylashgan. Madrasada 15 hujra bor. Madrasa qurilishida eng mashhur ustalar Xudaybergan Hoji, Qalandar Qo'chim, Bog'bek Abdurahmonov, Matchon Qulimov, Vais Kulol va boshqalar ishtirok qilganlar, xalq ustasi Abdulla Boltayevni aytishicha, madrasada 35 ta talaba ta'lim olgan. Qozikalon Salim Oxunning o'g'li Boboovun Salimov XXShJ ning birinchi Adliya vaziri bo'lgan. Hozirgi kunda bu madrasada "Xorazm musiqa san'ati" muzeyi joylashgan.

Qorixonalar

Xiva shahrida ko'plab muqaddas qadamjolar va qabristonlar, maqbaralarda o'nlab qorixonalar mavjud bo'lgan. Qorixonalarda o'lgan kishi ruhiga bag'ishlab oyatlar o'qishga yollangan qorilar ibodat qilishgan, ularning atrofi supurib-sidirib, toza tutilgan. Buning evaziga

esa marhumning yaqinlari oltin pul (tanga) yoki mahsulot bilan haq to'lashgan. 1920-yilgacha Xivada 141 qorixona, 51 ta mahsura (yakka qabrga qilingan maxsus vaqfkorlar) bo'lib, ular quyidagicha taqsimlangan. Pahlavon Mahmud maqbarasi atrofida 14 ta, Obdol bobo qabristoni atrofida 4 ta, Uch avliyo maqbarasi atrofida 17 ta, To'rt Shabboz qabristoni tevaragida 13 ta, Qora A'lam bobo qabristonida 6 ta, Sayid Mohi Ro'yi Jahon qadamjoyi atrofida 74 ta. Shu o'rinda o'quvchilar tushinib olishlari uchun bir ikki qorixona haqida mufassal ma'lumot berib o'tamiz, Muhammad Murod devonbegining (Pahlavon Mahmud maqbarasi atrofida) qorixonasi qorisi Qutlug' Murod ismli kishi yiliga 130 botmon g'alla olgan. Jannatmakon Olloqulixon marhumi uchun Sulton G'oziy to'raning qorixonasi qorisi Mulla bobo 60 botmon g'alla olgan. Yoki hazrati, Obdol bobo qabristoni yonidagi Ollobergan jilovdor uchun bunyod etilgan qorixona qorisi Muhammad Sharif 60 botmon g'alla va 10 tillo pul olgan. Marhumlarning ruhlariga yil davomida oyat o'qiganliklari va qabrlarini obod saqlaganliklari uchun xizmat haqi shu yo'sinda to'langan.

Xivada 141 qorixona, 51 ta mahsuralarda jami 340 nafar qorilar bo'lib, ular yiliga 5643 tonna g'alla va 4430 tillo pul xizmat haqi olishgan. Xo'sh bu qorilar kimlar? Ular Qur'oni Karimni yoddan biladigan, o'qimishli, madrasada tahsil olgan mulla kishilar bo'lishgan, to'g'ri ular orasida ko'zi ojizlar ham ham bo'lishgan, ularni odatda ismlariga «a'mo» qo'shimchasi qo'shilgan. Masalan: - Muhammad Sharif qori a'mo.

Yuqoridagi qorixonalardan birida shoir va bastakor **Komil Xorazmiy**ning qabri joylashgan qorixona ham mavjud bo'lib, hozir bu joyda shoir hayoti va ijodini aks ettiruvchi muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Komil Xorazmiy Sayid Muhammadxon zamonasida saroyda oddiy hattot bo'lib, keyin mirzaboshilik mansabiga ko'tarilgan, so'ngra esa bosh devonbegi sifatida katta ijtimoiy-siyosiy, madaniy ishlarni amalga oshirgan. Xonning bevosita qo'llab quvvatlashi natijasida, ajdodlar tomonidan yaratilgan 12 maqomning 24 ta sho'balari jamlashib olti maqomga joylashgan, u ham qog'ozga muhrlanmagan edi. 1880-yilda mirzaboshilik mansabiga tushirilgan. Komil 1881, 1883-yillarda Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg shaharlarida bo'lib, rus xalqi madaniyati va hayotini, jumladan nota yo'llarini mukammal o'rgandi va Xivada "Tanbur chizig'i" nomli notani yaratishga zamin yaratdi.

Farmoni oliy: “Bizkim Xorazm mamlakatining oliy xoqoni Muhammad Rahimxon Soniy quyidagi Farmoni Oliyga imzo chekdik.

Xorazm maqomlari xalqning daxtsiz mulki deb e’lon qilinsin. Ushbu Farmoni oliyga shak keltirgan va maqomlarni kamsitgan yoyinki uni buzib ijro etgan kimsalar qattiq jazolansin! Muhammad Rahimxon Soniy, 1292 hijriy. Jumodul-avval.(1882 y)”

Komil va uning shogirdlari tomonidan xalqning bebaho mulki-maqomlarning notalashtirilishi Feruz zamonasining eng gullagan, musiqa madaniyati eng yuqori cho’qqiga ko’tarilgan davri hisoblanadi, negaki, ushbu “Tanbur chizig’i” jahon musiqa xazinasiga qo’shilgan katta boylikdir.

“Tanbur chizig’i”ni yaratishda faol qatnashgan va uni oxiriga yetkazgan yana bir buyuk shaxs Komil Xorazmiyning katta o’g’li **Muhammad Rasul Mirzodir**. Mirzo yoshligidan so’zga, adabiyotga katta ixlos ko’rsatib, ota kasbiga mehr qo’ydi, o’z mehmonxonalaridagi fozilu fuzalolar suhbatidan bahramad, ijro etilgan maqomlardan “quloq qondi” bo’lib o’sdi va mashaqqatli mashqlar evaziga zamonasining peshqadam mashshoqi, musiqashunos olimi, zabardast shoiri bo’lib yetishdi.

Yunus Yusupov-Ayyomiy Mirzo xususida shunday yozadi:

–“Muhammad Rasul Mirzo otasi Komil ixtiro etgan shashmaqom chiziq-lari notani qog’ozga ko’chirib chiqdi va uni kitob holiga keltirdi. Bir vaqt mavjud olti maqomga Xorazm bastakorlari yarim maqom yangi kuylar bastalab, uni olti yarim maqom deb yuritganlar. Mirzo yarim maqom hisoblangan “Panjgoh” maqomiga yana bir qancha kuylarni qo’shib, uni bir maqom holiga keltirdi. Shunday qilib, Muhammad Rasul Mirzoning ijodkorligi va jiddiy tashabbusi bilan maqomlar 7 taga yetkaziladi.

“Mirzo bastakor sifatida “Rost” maqomiga “Sab” va “Ufori” nomlarida ikki kuy bastalagandir. Qariyalarning aytishlariga qaraganda, Mirzo tanbur va g’ijjakda favqulodda zo’r mahoratga va iste’dodga ega bo’lgan. Shuningdek, usul-childirma chalishda ham katta mahorat qozongan. Mirzo musiqa bo’yicha Feruzning muallimi bo’lgan”.

Mirzo inson sifatida to’g’riso’z, kamtar, muloyim, dilkash odam bo’lgan. Uning zamondoshi Xodim bu to’g’rida shunday yozadi:- “Muhammad Rasul Mirzoboshi o’rta bo’yli, chechak bashara bo’lsa ham chiroyli, xushsurat odam edi. O’zi o’ta ketgan saxiy odam bo’lib, so’zlashib o’tirsangiz, yonidan sira ketmasam deb, orzu qilar edingiz”.

Muhammad Rahimxon Mirzoni juda hurmat qilgan, o'ziga yaqin olib, turli safarlarda birga bo'lishgan. She'riyat va musiqa oqshomlari uningsiz o'tmagan. Bu to'g'rida Bayoniy shunday ma'lumot beradi:- "Ondog'kim Yusuf Hoji oxund va Ismoilxo'ja oxund va Xudoybergan oxund va olimu ulum ma'qul va mankulda Mulla Muhammad Rasul va faqiri haqir majlisi humoyunlariga haftada ikki marta hozir bo'lib kitobxonlik qilur erduk. Goho domla Muhammad Rasul bila ikkovimiz kirib, suhbatlari humoyunlarida kitobxonlik bo'lur erdi va sipohiyalar va to'ralarni ham kitobxonlik etarga targ'ib etdilar. Bas, hamma kitobxon bo'ldilar".

Muhammad Rasul mirzaboshi madrasasi

Muhammad Rasul mirzaboshi o'zining madrasasini Ichon qal'aning o'rtasida joylashgan Pahlavon Mahmud maqbarasining janubiy-g'arbiy tomonidagi qorixonalarni qarshisida oddiy uslubda, hech qanday bezaksiz, peshtoqini shimolga qaratib qurdirgan. Shuning uchun ham adabiyotlarda bu madrasa musulmonlarning muqaddas qadamjosi bo'lgan Pahlavon Mahmud maqbarasi majmuasi safiga kiritilgan.


Devorlari 27x27x4,5 sm o'lchamdagi pishgan g'ishtlardan terilib, oralari hajja bilan suvalgan va asosiga yer osti namgarchiligidan saqlanishi uchun qamishdan chipta to'qilib 6 qavat qilib gidroizolyatsiya qatlam qilingan.

Madrasa oddiy qilib trapetsiyasimon shaklda qurilgan. Uning kirish dahlizi bittagina xonadan iborat bo'lib, ichki hovliga to'g'ri to'rtburchak ochiqlik orqali chiqiladi. Kirishdagi dahlizning chap tomonidagi xonada go'rxona joylashgan, Madrasa hujralarining o'lchamlari har xil bo'lib, jami 3 ta. O'rta hovlining janubiy-sharqiy burchagida to'rtburchak shaklda qurilgan masjid joylashgan, hozirgi vaqtda yangi ayvon olingan. Umumiy o'lchamlari: -old qismi 10 metr, yon tomonlari 12,5 metr, orqa tomoni 15 metr.

Komil Xorazmiy o'g'li Muhammad Rasul mirzaboshi shajarasi:

XIX va XX asr boshlarida yashab ijod qilgan juda ko'pgina xivalik shoirlar, olimlar va boshqa ilm ahlining ko'pchilik qismi Xivadagi madrasalarda o'qib, jamiyat uchun kerakli insonlar bo'lib yetishganlar.

Quyida biz shoir va bastakor Muhammad Rasul Mirzoning o'tmishiga nazar tashlaymiz.



1999-yilda Zaynab Abdullaeva ota meros uylarida bobosini nomini abadiylashtirish maqsadida "Mirzaboshi" xususiy mehmonxonasini ishga tushirdi.

Shoirning otasi Xorazmning asl farzandi Komil Xorazmiydir, farzandlari Muhammad Rasul Mirzo, Abdurasul-Purkomillar ham otasi kabi elparvar, vatanparvar insonlar bo'lganlar.

Sherg'ozixon madrasasi

Sherg'ozixon (1714-1726) aqlli, jasur, tadbirkor, harbiy ishlarda juda mohir bo'lgan. Uning ayniqsa rus podshosi Pyotr I tomonidan Xorazmdagi oltin qumni qo'lga kiritish uchun yuborilgan knyaz Bekovich-Cherkasskiy boshchilik qilgan rus qo'shinini harbiy hiyla bilan tor-mor qilgani barcha tarixchilarni hayratga solgan. 1717-yilning

yoʻzida 4000 piyoda, 100 otliq, 6 ta toʻp, 200 tuya, 300 ot (yuk koʻtaradigan) bilan kelgan qoʻshinga qarshi xon ochiq jang olib bormay harbiy hiyla ishlatadi. Xon yuborgan choparlar Bekovich-Cherkasskiyga askarlarni boʻlib bersa mehmon qilish qulay boʻlishini aytishadi. Aldangan lashkarboshi qoʻshinni boʻlib beradi. Xivaliklar rus qoʻshinini yer bilan yakson qilib, Bekovich -Cherkasskiyni bosh terisiga somon tiqib, Buxoro xoniga sovgʻa qilib yuboradilar. Shergʻozixon Vazir, Gurlan, Shohobod, Bogʻolon, Xonqa, Uygʻur, Hazorasp qalʼalarini oʻz tugʻi atrofiga birlashtirdi. Xon oʻzining Mashhadga qilgan yurishi davrida 5000 dan ziyod qizilboshni asir qilib olib kelgan. Oʻsha qullar Shergʻozixon nomidagi madrasani kurilishida ishlatilgan. Koʻpgina tarixchilar Xiva xoni Shergʻozixonni olim va odil xon, eʼtiqodli va diyonatli inson boʻlganligini taʼriflashgan. Shuning uchun ham xon ilm ahllarini xush koʻrar ular suhbatidan bahra olar edi.

Qariyalarning rivoyatlariga qaraganda, Shergʻozixon Mashhadni bosib olgach (1715) 5000 asirni Xivaga keltirib madrasa boshlatgan. Madrasa 1719-yilda qurilib bitkazilgan. Unga zamonasini tarixchilari “Maskani fozilon” deb nom berishgan. Haqiqatdan ham bu fozillar uyida buyuk shaxslar oʻqib tahsil olganlar. Shulardan biri Pahlavon Quli Ravnoq boʻlsa, yana biri turkmanlarning buyuk shoiri Mahtumquli Firogʻiydir. Mahtumquli madrasani bitkazib ketar chogʻida minnatdorchilik bilan shunday deb yozadi:

Makon aylab uch yil yedim tuzingni,
Ketar boʻldim, xush qol goʻzal Shergʻozi.
Oʻtkazdim bahor, qish, yozingni
Ketar boʻldim, xush qol goʻzal Shergʻozi.

Shoir oʻzining sheʼrlarida Xivada oʻtgan umridan rozi ekanini ehtiros bilan ifoda qilgan. Mahtumquli sheʼrlarini taʼsir kuchi shundaki, u hayotdagi haqiqat va adolatni oʻz qalbidan, oʻzgalar qalbiga yetkaza olgan:

Koshki odam bu dunyoga kelmasa,
Kelganidan soʻng umr soʻrsa oʻlmasa.
Mahtumquli, shukr et sen Xudoga,
Oʻlim barobardir shohu gadoga...

Mahtumquli bu she'rlarini Xivadagi madrasadan ketmasdan oldin, Xalach atrofidagi Qiziloyoq qishlog'idagi Idrisbobo madrasasida, Buxoroning Ko'kaldosh madrasasida o'qib, Sherg'ozixon madrasasida uch yil tahsil olib Andijonga ketib o'qishni davom qildirish arafasida yozgan, bu vaqtda u qirq yoshdan oshgan edi. Madrasa hayotini Buxoro madrasasida o'qib boshidan kechirgan Sadridin Ayniy aytganidek, "... u zamonlarda chinakam bilimli kishilar sho'rhokda ungan mevali daraxtdek kamchil edi".

Taniqli qoraqalpoq shoiri Ajiniyoz ham shu joyda (1840-1844) to'rt yil davomida ta'lim olgan.

Madrasa Pahlavon Mahmud maqbarasi oldida qurilgan, uning qurilishi to'g'risida bir necha tarix aytilib marmarga o'yilib yozilgan va madrasa peshtog'iga o'rnatilgan. Marmar lavhalardan to'rttasi bugungacha o'z holicha saqlangan. Madrasaga kirish eshigining yoniga o'rnatilgan marmar lavhalardagi 32 misralik forsiy she'rdan biz dunyo gulistonidagi bu madrasani Sherg'ozixon o'z aql va sahovati bilan qurdirganini, madrasaga vaqf qilib berilgan yerlarni (Sherobod, Xayrobod, Pirmovxast, Polvon bobo qishloqlaridagi 10 000 tanob yerdan har yili juda ko'p bug'doy, guruch va jo'xori hosili olinar edi) mutavalli, mudarris, imom, muazzin, kutubxonachi, farrosh va yana shu yerda yashovchi talabalarning oylik maoshini qancha ekanini bilib olamiz. Yana peshtoq orqasidagi bitta marmar toshga she'riy tarix bitilgan. Quyida biz shulardan biri bilan tanishamiz:

Fayz egasi tangri, 1131-hijriy (1720-melodiy)

Dunyo gulistonidagi bu madrasani,
Jahon shohi o'z adli va sahovati bilan qurdirgan.
Uning yaxshi nomi falak peshtoqida
Quyosh kabi Sherg'ozixon bo'lib porlar edi.

Uning hujrasida yongan chirog'ning dudi,
Ochiq ko'zlarga surma o'rmini bosadi.
Sherobod nomli ariq vaqf qilinib,
Unda abadiylik suvi oqa boshladi.

Dovud arig'i va yana Pirnavxo'st,
Yaxshilikni kasb qildi u sheri Xudo.
Avvalgi to'xtagan va singan omadlar,
Qaytadan tiklanib hosil bera boshladi.

Madrasaning mutavallisi oladi,
Vaqf shartiga binoan beshdan birini.
Imomiga ikki yuz botmon (g'alla),
Muazzinga ham shunchasi beriladi.

Unda kim kutubxonachi bo'lsa,
Uning haqqi bir hujradir.
Farroshga 150 botmon (g'alla),
Xizmatini yaxshilib bajarishi uchun.

Qolgani shu yerda yashovchilarga,
O'z ehtiyojlari uchun beriladi.
Agar be uzr ikki oy tark etsa (madrasani),
Hujrasi boshqaga olib beriladi.

Agar muallimlardan biri bir hafta kelmasa,
Foydalanish huquqiga ega emas (imtiyozdan).
To'rt tomoni quyoshga nisbatan aniqlangan,
Sharqi, g'arbi, janubi uch gazdan

Pahlavon tarafiga o'n gaz,
Boy va fuqaro ko'z oldida bino etildi.
Bu binoning qurilishi tarixi,
"Maskani fozilon" deb bitildi.

Yana shoirlar xonni sharaflab "Xurshidi jahon", "Sheri xudo" kabi unvonlar bilan ulug'lab, "Ushbu manzilda istiqomat etgan har kimsa shubhasiz alloma, bilim mash'ali va sir-asror tadqiqotchisi bo'lg'uvsidir" deb yozishgan. Shuningdek, o'qish qoidalari, qoidani buzgan talaba va ustozga qanday jazo berilishi haqida ma'lumotlarni o'rganamiz. Bu qoidaga ko'ra talaba beuzr ikki oy o'qishga kelmasa

hujrasidan (demakki maoshidan ham), muallim bir hafta ishga kelmasa maoshidan mahrum bo'lar ekan. She'riy lavhadagi "Maskani fozilon" jumlasidan madrasaning hijriy 1132, milodiy 1720-yilda qurilgani aniqlandi. Sherg'ozixon o'z xizmatkorlari tomonidan o'ldirilgan, shuning uchun tarixchilar uning vafoti sanasini "Dod az g'ulomon", "Qullar dastidan dod" deb topganlar, 1139 hijriy, 1726-yil. Xonning qabri o'z madrasasining kun botish tomonidagi hujrasiga dafn qilingan. Bugungi kunda madrasada Mahtumquli, Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li ko'rgazmalari tashkil qilingan.

Pahlavon Mahmud maqbarasi

Pahlavon Mahmud maqbarasi asosan XIV asrda kichik go'rxona shaklida qurilgan bo'lib, unda o'z davrining katta "Piri" - Pahlavon Mahmud (1247-1326) jasadi ko'milgan. Pahlavon Mahmud 1247 yilda Xiva shahrida po'stindo'z (kosib-hunarmand) oilasida tug'ilgan. Yoshlik yillarda ota kasbi po'stindo'zlik bilan shug'ullangan, so'ngra xat-savod chiqarib, buyuk shoir faylasuf darajasiga erishgan. U juda ham zabardast pahlavon bo'lib 79 yillik hayotida biron marta kuragi yerga tegmagan. Pahlavon Mahmud haqida ko'plab rivoyatlar saqlanib qolgan. Shulardan biri: Bir zamonlar Xivani o'rnida suvsiz dasht bo'lgan. Ko'hna Urganch vayron qilinganidan so'ng mo'g'ullar istilosidan keyin, uning aholisi har tomonga tarqalib ketgan. Shu jumladan Pahlavon Mahmudning onasi ham homilador holida Xiva atrofiga yetib kelib, hozirgi Qiyot qishlog'ida o'g'il tuqqan. Bu bola 15 yoshga yetgach mard kurashchi, mashhur pahlavon bo'lib nom chiqargan. U uzoq mamlakatdagi bir podshoni zo'r pahlavonlarini yenggan. Podsho xivalik pahlavonning kuchiga qoyil qolib unga "Senga nima kerak bo'lsa so'ragin" - debdi. Pahlavon Mahmud podshoga: "Menga bir ho'kizni xomiga (ho'kiz terisiga) siqqan vatandoshlarimni ozod qilib bering" - deb javob qilibdi. Podsho rozi bo'libdi va ho'kiz terisini keltirishni buyuribdi. Pahlavon Mahmud teridan ingichka tasmalar qirqib olgan va ularni bir-biriga ulab uzun kamar (qo'ra) qilib shunga siqquncha odamlarni olib Xivaga jo'nagan, u bilan kelgan odamlarni shahar tashqarisidagi Shixlar qishlog'iga joylashtirgan, hozirgi vaqtgacha qishloq aholisini ko'pchiligi bu

rivoyat haqiqat, inqilobgacha bo'lgan davrda qishloq aholisi Pahlavon Mahmud maqbarasida xizmatda bo'lishgan deb aytishadi. Mazkur afsona Pahlavon Mahmudning naqadar donishmand, buyuk xalqparvar inson bo'lganini namoyish etadi. Uni zamonasini ilg'or va hur fikrli faylasuf olimi, katta iste'dod va zakovat egasi, shoirlik mushohadasi jihatidan "Xorazm Xayyomi" deb ham atashgan. Bu bejiz emas, albatta. Tadqiqotchi olimlarning fikricha, Pahlavon Mahmud she'rdam, falsafada ham Umar Xayyomning zakovatli davomchisigina bo'lib qolmay, balki forsiy, turkiy xalqlar adabiyotida ham, Xayyomdan so'ng ruboiy yozishda unga teng keladigan shoir bo'lgan emas. Hatto Abdurahmon Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bobur kabi buyuk shoirlar ham o'z kuchlarini ruboiyda sinab ko'rsada, bu janr ular ijodida 2-o'rinda turgan. Falsafiy va badiiy g'oyalar asriy ruhida rivojlantirilib, Xayyomshunoslikni yuksak darajaga ko'targan. Pahlavon Mahmud sharq adabiyotida alohida o'rin egallaydi. Pahlavon Mahmudni shu davrda "Xorazm Xayyomi", "Mazondaron yo'lbarisi" deb ulug'lashgan. U "Qitoli" - jangchi taxallusi bilan g'azallar bitgan, u "Kanz ul-haqoyiq" – "Haqiqatlar xazinasi" (1303-04) nomli asar yozgan, lekin asar hali topilmagan. Uning teran mazmunli nafis va o'ynaqi, zo'r san'atkorona ruboiylari "Xayyomona" ruhda ekanligini qarang.

Dunyo bamisoli bir zarrin ko'za,
Suvi goh shirinu, goh achchiq bo'za.
E g'ofil, umringga bino qo'yima ko'p,
Qazoi mualliq turar bosh uzra.

* * *

Dunyo binokori tuzar qasr- ayvon,
Tuzib bo'ladi-yu, qiladi vayron.
Falakka yetkazib bugun toqini,
Ertaga etadi yer bilan yakson.

Bunday satrlarni o'qigan kishi shoir dunyoqarashining qudratini, uning insonparvarlik tuyg'ularini sezadi. Asli tasavvuf tariqatini panteizm (vahdatul mavjud) oqimiga mansub Pahlavon Mahmud insonning aqliy va ijodiy imkoniyatlariga yuksak baho beradi.

Pahlavon Mahmudning tarixiy tarjimai holini tiklashda ko'p xizmatlar qilgan, uning noyob ruboiylarini nashrga tayyorlagan To'xtasin Jalolov shunday yozadi: "Shuni alohida qayd qilish lozimki, shoirning tug'ilib yashagan davri Xorazm tarixidagi eng og'ir musibatlar keltirilgan Chingizxonning qonli yurishlaridan keyingi 10 yilliklarga to'g'ri kelgan, shunday dahshatli balolarni boshidan kechirgan vatanda, unga yetkazilgan katta jarohatlar hali bitib ulgurmagan bir davrda, dunyoga kelgan buyuk zabardast shoirning qalbi dengiz to'lqinlaridek qaynab quyulganligi kishini hayratda qoldiradi. Shoirning vasiyatiga ko'ra, jasadi o'zining po'stindo'zlik ustaxonasiga dafn qilingan. Uni ko'p qirrali amaliy va ijodiy faoliyati shunchalik zo'r bo'lganki shoir vafotidan keyin uzoq vaqt o'tmay katta avliyolar qatoriga kiritilgan, qabri esa ziyoratgohga aylangan. Pahlavon Mahmud maqbarasi vaqt o'tishi bilan ko'pgina hukmdorlar tomonidan aziz sanalib obod qilingan. Tarixiy manbalarda maqbaraga Amir Temur tomonidan eshik o'rnatilgani yoziladi. Maqbara ichida Abulg'ozixon, Anushaxon va Arangxonlarning qabri borligi ular hukmdorlik qilgan davrlarida ham shoir qabri obod bo'lganligidan dalolat beradi. 1701-1702-yillarda Xiva xoni Shoniyozxon maqbarani yangidan quradi, bu davrdan bizga maqbaraga kiraverishdagi eshik yodgor qolgan. Eshikdagi yozuvlardan shu narsa ma'lum bo'ladi, unda qur'on oyati, hadis va she'riy tarixlar bitilgan, turunch, madohil va boshqa islamiy gullar bilan bezatilgan. Ushbu eshikda yozuvdan bir parchani keltiramiz:

**“Xasta dillarni duolarini mustajob qilg'uvchi bu nurli bino
Shoh Niyoz xon tomonidan 1702-yilda ta'mirlanib quduq ham
qazilgan. Uning o'zi ham shu joyga dafn qilingan. O'ymakor usta
Nodir Muhammad”.**

Hozirgi maqbara Muhammad Rahimxon I (1806-1825) tomonidan 1810-yilda Qo'ng'iro't shahriga qilingan muvaffaqiyatli yurishdan so'ng qurila boshlagan va uning o'g'li Olloqulixon davrida qurib bitkazilgan. Maqbara 3 ta qismdan iborat. Qabrxona, xonaqo va yo'lak. Maqbaraning g'arbiy qismida joylashgan xonaga Pahlavon Mahmud dafn qilingan. Xonaqoni shimoliy devori yonida Muhammad Rahimxon qabri joylashgan, uning yaqiniga esa Xiva xonlari

Abulg'ozixon va Anushaxonlarning qabr toshlari o'rnatilgan. Yo'lakda esa Ollaqulixon dafn etilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasi atrofi XIX asr oxiriga kelib Xiva xonlari va ularning yaqinlari dafn qilinadigan xilxonaga aylantirilgan. Bino qurilishini hazorasplik usta Odinamuhammad Murod boshqargan, usta katta-kichik jismlarni (sirli koshin) yagona me'morchilik inshootiga mohirlik bilan birlashtira olgan, sirkor bezaklar sag'anani, tashqi gumbaz va peshtoq qismini bezab turadi, shu vaqtda xonalarning ichi ganch suvoq qilingan edi. 1825-yilga kelib Olloqulixon buyrug'i bilan ziyoratxonaga va xonaqoga sirkor bezak berildi. Xuddi shu davrda ziyoratxona va qabrxona gumbazlari tashqi tomondan zangori yashil sirkor g'ishtchalar bilan qoplandi. Maqbara peshtoqining ba'zi ko'chib ketgan koshinlari o'rniga o'ziga o'xshatib yangi koshinlar o'rnatildi. Gumbazli dolondagi bir xonaning old tomoni besh qirrali shaklga keltirilib, Olloqulixon sag'anasi shu yerga qo'yilgan. Xona devorlari bezakdor sirli koshinlar bilan qoplandi va mis panjara o'rnatilgan. Qurilish ishlarida xivalik ustalardan Mulla Nurmuhammad usta-Qalandar o'g'li, So'fimuhammad Niyoz usta - Abdujabbor o'g'li va usta Abdulla "jin"lar o'zlarining nodir san'atlarini ko'rsatib bera olishgan. Katta xonaqoni (balandligi 25 metr) tepasiga ustalar islmiy naqshlar bilan birga, bezaklar orasidagi kitobalarga Pahlavon Mahmudning 22 ta ruboiylarini, ustalarning ismlarini, hadislarni, tarixlarni o'zi ijod qilgan fors tilida bitganlar. Bundan tashqari qabrxonaga kiraverishdagi eshik tepasiga shoirning ushbu ruboiysi fors tilida bitilgan:

Uch yuz Ko'hi Qofni kelida tuymoq,
Dil qonidan bermoq falakka bo'yoq.
Yoinki bir asr zindonda yotmoq,
Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq.

1910-1913-yillarda maqbaraning g'arbiy qismida Xiva xoni Isfandiyorxon (1910-1918) onasi, o'zi va o'g'li uchun qabrxona va to'rtta hujradan iborat ikki oshyonli qorixona bunyod qildirgan. Qurilish ishlariga usta Qurbonniyoz boshchilik qilib, qorixona qarshisiga o'ymakori ustunli ayvon qurilgan. Pahlavon Mahmud

majmuasi 1960-yilda usta Roʻzmat Masharipov “Roʻzmat arbob” ishtirokida katta gumbazning usti, qorixona va ayvon taʼmirlanib, maqbaraga qayta jon bagʻishlangan. Hozirgi vaqtda binoda Oʻzbekiston Musulmonlarning diniy idorasi, “Pahlavon Mahmud jamgʻarmasi” faoliyat koʻrsatmoqda. Inshootning ayrim joylari taʼmirtalab boʻlganligi uchun 2007-yilda, ayvon ustunlari, yoʻlaklar, quduq atrofi va uning tepasidagi chiroyli oshyonli yogʻoch gumbaz, peshtoqning baʼzi tushib ketgan sirli koshinlari qayta taʼmirlandi.

Islom Xoʻja madrasasi va minorasi

Xiva xoni Isfandiyorxonning vaziri va qaynotasi Sayid Islom xoʻja 1908-1910-yillarda Pahlavon Mahmud maqbarasi yaqinida bitta madrasa va minor qurdiradi. Madrasani usta Xudoyberganhoji qurgan, madrasa va minoraning koshin bezaklarini Eshmuhammad Xudayberdiyev ishlagan naqshlar asosida Xonqaning Madir qishlogʻidagi ustalardan Bolta Vaisov va Madaminovlar ishlaganlar. Madrasa 42 ta hujradan iborat boʻlib, 50 nafar talaba oʻqigan, uning oldingi qismi 2 qavat qilib qurilgan. Kiraverishda oʻng tomonda maxsus masjid ham qurilgan. Bosh fasadi bilan minoraga bogʻliq boʻlgan madrasa tashqi tuzilishi va bezaklari boshqa madrasalardan farq qilmaydi. Peshtoqning yon qanotlari ikki qavatli ravoqlar qatori va burchak guldastalaridan iborat. Ravoqlar tepasi ayrim hoshiyalar va sirkor koshinlar bilan chiroyli qilib bezatilgan. Kichik hovli bir qavatli hujralar bilan oʻralgan. Devorlarida hech qanday bezak yoʻq. Peshtoqning orqa tomonida, hujralarning ustida oddiy yogʻoch ustunli ayvon qurilgan. Madrasaning eng yirik xonasi katta gumbazli masjiddir. Masjid madrasaning butun janubi-gʻarbiy tomonini egallagan, masjidning ichki koʻrinishi Xiva ustalari ijodiga xos katta gumbazli xona tipida yopilgan. Masjidning janubiy tomonida joylashgan burchakdagi gumbaz ostida va mehrobda sirkor hamda ganchkori bezaklar ishlatib chiroyli manzara yaratilgan, madrasa uchun vaqf sifatida Islom Xoʻja oʻz yeridan 14 ming 451 tanob yer ajratgan. Madrasada hozirgi vaqtda “Xorazm Amaliy sanʼati” muzeyi faoliyat koʻrsatmoqda.

Minora ham madrasa bilan bir vaqtda qurilgan bo'lib, minorani balandligi 56,5 metr, pastki qismining diametri 9 metr. Minora qurilishida qadimgi ustalarning me'morchilik uslubidan foydalanilgan. Minoraning yuqori qismi juda ingichkalashib, tepasi bejirim karniz va qubballi fonus bilan tugallangan. Fonus yuzasi turli shakldagi sopol-g'ishtchalar bilan hoshiyalangan, ularning orasi esa rang- barang sirkor koshinlar bilan to'ldirilgan. Fonus va karniz yashil-zangori, lojuvard (moviy) va oq rangdagi sirkor g'ishtchalar bilan qoplangan. Shuning uchun ham minoraning yuqori qismi alohida bo'lib ajralib turadi. Sirkor bezakli hoshiyalar minoraning konus shaklidagi tanasini bir necha joyidan halqasimon doira qilib aylangan. Mana shularni hisobga olgan qariyalar "Xo'jani minorasida to'rt faslni va o'n ikki oyning bezagi bor" - deb aytadilar. Minoraning oddiy va aniq formasida, bezaklarida Xiva me'morchiligiga kirib kelayotgan yangi uslub inshootlarini ko'rish mumkin. O'sha davrdagi Xiva me'morchiligiga xos xususiyatlar qurilgan yangi tipdagi binolar-pochta, telegraf, yangi uslub jadidlar maktabi va kasalxonani tuzilishida o'z ifodasini topgan. Ustalar qadimiy konstruksiya va bezak usullari bilan bir qatorda ruscha g'isht terish, yangicha shakldagi ravoq va tomlarni, ushbu binolarni qurishda qo'llashgan. Minoraning qurilishi munosabati bilan shoir Niyoziy 48 misralik she'riy tarix bitgan, xuddi shunday 47 misralik she'riy tarix madrasa qurilishi uchun ham bitilgan. Bu tarixlar marmarga usta Xudaybergan Devon tomonidan o'yib yozilgan va madrasa eshigi ustiga, minoraning yerdan o'n metr baland joyiga o'rnatilgan. 1924-yilning yanvarida Xivani Junaidxon qamal qilganda minora tepasidan dushmanning shahardan tashqaridagi harakatlari kuzatib turilgan. U minoraga yaqin bo'lgan Jome' masjidining minorasi (42 metr) oralig'iga radio simi tortilib, Toshkent bilan aloqa bog'langan va yordam so'ralgan. Yordam o'z vaqtida yetib kelgan va dushmanlar shahardan uloqtirilib tashlangan. Minoraning tepasiga o'rnatilgan 2,5 metrlik qubba patal (bronza, latun va mis aralashmasi) degan metallardan ishlangan. Bu metallardan ishlangan qubba ma'lum bir vaqtgacha tilladek yaltirab turgan. Minora qubbasi Xiva shahrining 2500 yillik to'yi arafasida qayta ta'mirlanib, tilla qatlam bilan qoplandi. Islom Xo'ja zamonasining mashhur kishilardan biri bo'lib, Xiva shahrining obodonchiligi uchun jon kuydirgan. Uning sayi

harakatlari bilan Xivada kasalxonona, pochta, telegraf, Qo'sha darvoza, Nurullaboy saroyidagi Isfandiyorxonning qabulxonasi, Xorazmning ba'zi hududlarida temirdan yangi ko'priklar qurilgan.

Tolib Maxsum madrasasi

Madrasa Xiva xoni Muhammad Rahimxon II va Islom Xo'janing mirzosi hamda yaqin kishisi Tolib Maxdum tomonidan 1910-yilda Islom Xo'ja madrasasining shimoliy biqinida qad rostlagan. "Maxdum (arabcha- xizmat qilinuvchi odam)-pir va ustozlarga beriladigan laqab. Odatda pir va ustozlarga o'z muridlari va shogirdlari xizmat qilishgan. Maxdumni ba'zi joylarda pir, ustoz va ulamolarning o'g'illariga nisbatan ham ishlatadilar. Masalan: - naqshbandiylik tariqati shayxlaridan Sayid Ahmad Xoja ibn Sayid Jaloliddin Kosoniy Dahbediy "Maxdumi A'zam" nomi bilan ulug'langan. Ba'zan "Maxdum" so'zini "Maxsim" - deb noto'g'ri ishlatadilar. Xorazmda maxdum so'zini hozirgi vaqtda buzib talaffuz qilib, "Maxsim"-deb arabcha va forschaning mukammal bilgan hamda diniy va dunyoviy bilimlarni mukammal o'zlashtirgan insonlarga va ularning avlodlariga aytadilar". Madrasa asosan husnixatchilarni tayyorlagan, shuningdek madrasada dunyoviy ilmlar ham o'qitilgan. Madrasani xivalik ustalar Xudoybergan hoji va Qalandar Qo'chimlar qurishgan. Madrasa to'g'ri to'rtburchak tarhli (18,8x16,55 m), atrofida bir qavatli hujralar joylashgan. Peshtoq sharafasiga silliqlangan g'ishtlar ikki qator qilib terilgan, dandanasi yashil rangli koshin bilan bezatilgan. Bosh tarzidagi gumbazli miyonsaroy (darvozaxona) orqali hovliga o'tiladi. Darsxonona va masjid miyonsaroyning ikki yonida joylashgan. Hovli (10,75x8,0 m) burchaklaridagi xonalarga eshik ochilmagan. Atrofidagi hujralar tomi balxi gumbazli, ularning oldini uncha chuqur bo'lmagan ravoqlar egallagan. Hujralarga ravoqlardagi eshiklar orqali kiriladi. Madrasaning darsxonasi o'rniga chorsi xona (shimoliy-g'arbiy burchagiga) qurilgan. Madrasaning peshtoqiga hijriy 1328 (milodiy 1910) sanasi yozib qo'yilgan. Madrasa 1977- va 2006-yillarda ta'mirlangan.

Rus tuzem (yangi usul) maktabi

Maktab: - maktabga bolalar 7-8 yoshlarda, yilning istalgan faslida qabul qilinganlar. Maktabni o'ziga xos dasturi bo'lib, unga ko'ra yangi qabul qilingan o'quvchi saboqni o'zi bilan keltirgan "qora taxta"ga imom yozib bergan arabcha harfni o'rganishdan boshlagan. Harflarni to'la yod olgan talabaga "Abjad" kitobi o'qishga ruxsat etilgan. Abjadni o'rganish bilan bolalar "Haftiyak" kitobiga o'tishgan. Bu mushkul bo'lib, yod olish uchun kamida 2-3-yil sarflangan. Haftiyakdan so'ng, o'quvchi "Chor kitob"ga o'tgan.

- 1) "Xaq" -xudoning yagonaligi, din qoidalari, islomning besh farzi.
- 2) "Bidan - imomni tushinish.
- 3) "Kalik nabi - rivoyatlarga ishonish.
- 4) "Hamdixat - Oллоhning ulug'ligini tan olish.

Mana shularni o'rganib "So'fi Olloyor"ni mutola qilishga o'tilgan, bunga ham 2-3 yil sarf qilingan. Keyin Shayx Attor Valining "Mantiq" kitobi, so'ngra Markaziy Osiyoda keng tarqalgan Hoja Hofiz, Bedil, Fuzuliy devonlari ham dasturga kiritilgan. Bu maktablarda savod chiqarish jarayoni 7-8 yilga mo'ljallangan bo'lib, shundan keyin o'quvchilar savodli bo'lib, ota-onalari yoniga qaytishgan. O'quvchilarning ozchiligi madrasalarda tahsil olishni davom qildirganlar.

Rus tuzem (yangi usul) maktabi Islom Xo'ja madrasasining qarshisida 1910-yilda Islom Xo'ja tomonidan qurilgan. Bungacha Muhammad Rahimxon Feruz mahalliy fuqaro bolalaridan ilmi kishilar tayyorlash maqsadida o'z saroyida maktab ochdi. 1884-yilda ochilgan bu maktabda rus o'qituvchisi va Mirzo Rahmonquli qori kabi talantli ta'lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim berish ishi bilan shug'ullandilar. 1887-yilda bu maktabda 11 nafar o'quvchi ta'lim olib, shulardan olti nafari Feruz hisobidan o'qigan, mana shu maktabda bo'lgan rus rassomi L.Ye.Dmitriev-Kavkazskiy o'z xotiralarida shunday ma'lumotlarni keltiradi: - "Eshiklardan birini ochib, to'g'ri sinf xonasiga kirib keldik, u deyarli bo'sh bo'lib, devoriga katta jo'g'rofiy harita osilgan, tokchasida bir qancha kitoblar bor edi. Soddagina qilib yasalgan stol, uning ustida siyohdon, yonida ikkita skameyka. Sinfning butun jihozi ana shulardan iborat edi. O'qituvchi mashg'ulotni boshqa

xonada o'tkazmoqda edi. U xonada ham deyarli hech qanday jihoz yo'q, faqat yerga ko'rpachalar to'shalgan edi. Hovlida 11 bolani (11 yoshdan 15 yoshgacha) va boshqa musulmon o'qituvchisini ko'rdim". Bundan tashqari, Feruz farmoniga muvofiq 1904-yilning 10-noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Husayin Qo'shaev degan Turkiyadan kelgan o'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya bera boshladi. Mahalliy xalq vakillarining mazkur maktabga qiziqishi ortib, dekabr oyiga kelib, bu maktab o'quvchilarining 45 nafari mahalliy millat farzandlari edilar. Husayin Qo'shayev 1906-1907-o'quv yilida xonlikdagi ilg'or ma'rifatparvar kishilarning, eng avvalo, ota-onalarning orzu istaklarini hisobga olib, Urganchda qizlar maktabi tashkil etdi. Bu muhim voqeadan xursand bo'lgan Feruz Urganchga borib, mazkur maktab ishi bilan tanishdi va Husayin Qo'shaevning boshlagan foydali tadbiri uchun uni qo'llab-quvvatlab, bosh-oyoq sarmo kiygizdi va xazina hisobidan maktabga yordam berib turishga qaror qildi. Mazkur maktabda Husayin Qo'shayevning turmush o'rtog'i Komila Qo'shayeva qizlarga bilim bera boshladi. Xivada rus tilidagi maktab ochilishida Komil Xorazmiy tashabbus ko'rsatdi. U Feruz, Xudoybergan Devon, Sayid Islom Xo'ja kabi ilg'or ma'rifatparvarlar bilan Rusiya shaharlariga safar qilgan, u yerdagi ta'lim-tarbiya berish usuli bilan tanishgan edi. 1891-yilda Xivada ochilgan mazkur maktab to'g'risida "Turkiston viloyatining gazetasi" o'zining 1891-yildagi 35-sonida shunday xabar berdi. "...Xeva mamlakatida Rusiya tilini o'rganmoqning boshlanishini hohlab, Rusiya tilida ta'lim beradurg'on maktabxona ochib, ul maktabda 10 bola uchun joy va xarajat ta'min qilinibdur. Ushbu yil aprel oyida Turkiston viloyatidagi tamomi Rusiya madrasa va maktabxonalarning noziri... Xevaga borib... mazkur maktabni ko'ribdur... Xon andin Xevaga bir o'ris domlasi yubormoqni iltimos qilibdur. Shul sababdin Rusiya tili va ilmi hisobini o'rganmoq uchun ushbu yil Toshkent shahrida Uchitelskaya seminariyani juda yaxshi xatm qilg'on qozoq musulmon Husayin Ibrohim o'g'lini maktabxonaga domlalikka tayinlabdur".

Feruz Komil Xorazmiyni Toshkent shahriga gimnaziya va maktablardagi o'qitish usulini o'rganib kelish maqsadida safarga jo'natadi. Komil Toshkent gimnaziyasida bo'lib, u yerdagi domlalar va o'quvchilar bilan suhbatlashdi. Shoir keyinchalik o'z taasurotlarini

“Dar bayoni ta’rif va tavsifi Toshkand”, yoki “Qasidayi Navro’z” she’rida bayon etdi. O’z vaqtida “Turkiston viloyatining gazetasi”da bosilib chiqqan mazkur she’rda Toshkent safari taassurotlari bayon etildi. Komil Toshkent tipolitografiyasi, teatri, kasalxonalari, gazetalari muharriyati ishi bilan tanishib qaytgach, Xevada ham bu sohadagi ishlarni rivojlantirish chora-tadbirlarini so’rab, Feruzga murojaat etdi. Komil faoliyati Feruz tomonidan qo’llab-quvvatlandi va rus tuzem maktabining ishi yanada yaxshilana bordi. Xivadagi Rus tuzem maktabining asosiy maqsadi mahalliy millat bolalariga rus tilini o’rgatib, mahalliy tarjimonlar tayyorlashdan iborat edi. Chunki hali xonlikda rus tilida ish yuritish, kelgan maktublarni o’qish va tarjima qilish, nomalar bitish sohasida qiyinchiliklar tug’ilayotgan edi, shu tufayli Feruz mazkur maktabni batamom o’z homiyligiga oldi. Rus tuzem maktabida rus tili, riyoziyot, tarix, jo’g’rofiya, tabiat kabi fanlardan tashqari mahalliy savod (ona-tili) va islom fani asoslari ham o’qitilardi. Pushkin, Tolstoy, Krillovning she’r, hikoya va masallaridan tashqari, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Sa’diy Sheroziy, Mashrab, So’fi Olloyor kabi lirik shoirlarimizning asarlaridan ham saboq berildi.

Rus tuzem (yangi usul) maktabi ikki qavatli qilib yevropacha uslubda qurilgan, umumiy uzunligi 21,07 metrni tashkil qiladi, ikkita dahliz, sakkizta xonadan iborat. Maktabda xon va xon ayonlarining farzandlari o’qitilgan. O’qish davomida maktabda ikki yillik dastur asosida tilmochlar tayyorlangan. Maktabning ilk o’qituvchilari Husayn Qo’shayev va Komila Qo’shayevalardir. Ular tomonidan tayyorlangan o’quv dasturida rus tili, ona tili, jo’g’rofiya, Xiva tarixi va uy xizmatchisi vazifalari o’rgatadigan ilmlar o’qitilgan, ushbu maktab xalq inqilobi (1920-yil 2-fevral) g’alabasidan keyin ilk sho’rolar maktablaridan biriga aylantirilib o’qituvchi kadrlar tayyorlangan. 1990-yil 18-avgustda binoda “Xalq ta’limi tarixi” muzeyi ochildi, eng ulug’ va buyuk bayramlarimizdan biri mustaqilligimizning 13 yilligi munosabati bilan 2004-yilda bino qayta ta’mirlanib birinchi qavatda, birinchi o’zbek fotosuratchisi va kinooperatori Xudoybergan Devanovning doimiy ko’rgazmasi hamda ikkinchi qavatda “Xalq ta’limi tarixi” muzeyi qayta ochildi.

Juma masjid

Masjid: - Oллоhning uyi, XI asrdan boshlab alohida-alohida tadbirlar uchun foydalanila boshlangan. Ba'zilar yilda ikki marta bo'ladigan ulug' ayyom "Qurbon" va "Ro'za" hayiti kunlarida butun yurtdan yig'ilib kelgan butun bir olomonning namoz o'qishiga mo'ljallangan bo'lib, buning uchun shahar tashqarasidan maxsus joy ajratilgan. Bunday masjidlar frontal kompozitsiyaga ega bo'lib, hovlisi hech qanday to'siq bilan o'rab olinmagan:- binoning bunday qurishdan maqsad nomozxonlarning Makkaga qarab sajda qildirish bo'lgan. Xorazmda esa hamma mehroblar devorning janubiy qismidan joy olgan. Standart kompozitsiyadagi masjid Xivada saqlanmagan, faqat Hazorasp tumanida "Namozgoh" deb ataluvchi Ismoil Eshonbobo majmuasidagi masjid bor, xolos. Biroq u uch qubbali galereya ko'rinishidagi bir tomoni ayvonga chiqiladigan keng gumbazli zal, ya'ni mahalla masjidi tipida qurilgan. Boshqa Jome' masjidlari haftada bir marta "juma" kunlari shahar ahlining yig'ilib namoz o'qishiga mo'ljallangandir, ularning me'morchilik tuzilishi ko'proq bo'ylama yo'nalishidagi asosiy bino va parametr bo'yicha tushgan galereya formasini olgan.

Xorazmda bu hildagi masjid saqlanib qolmagan. Biroq tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, ular X asrda Qiyotda, XII asrda Gurganchda (hozirgi Ko'hna Urganch) mavjud bo'lgan. Xonqa tumanidagi Sayid ota masjidining naqshinkor darvozalariga masjid 1749-yilda qurilgani va shaharga asos solingani haqida ma'lumotlar yozilgan, - bu masjidning gir atrofi yog'och ayvon bilan qurshab olingan bahavo hovlili murakkab manzaraga ega majmuadir. Islomning dastlabki asrlarida masjidlar faqat namoz o'qishga mo'ljallangan edi, bu-inson hayotining barcha davrlari turli tuman rasm-rusumlar bilan muqaddaslashtiriladigan xalq uyi bo'lgan, bu narsa aholi yashaydigan joylar va bozorlarning gavjum joylarida qurilgan mahalla masjidlarida saqlanib qolgan, ularning formalari bir-biridan keskin farq qiladi, biroq shunga qaramay, ular yagona kompozitsiya tipiga ega bo'lib qolgan:- bu oldi ayvon bilan berkitilgan kichik zalli binodir. Namoz o'qiladigan zal gumbazli bo'lishi mumkin, ayvon esa qubbador peshtoqli galereya ko'rinishidagi bashang monumental tusda yoki tepasini to'g'ri

ustunlarga yassi to'sinlar qo'yib yopilgan zal ayvon bilan qurshalgan bo'lib, janubiy tomondan, Xorazmda va qisman Xivada, tashqariga hech qanday tuynuk ochilmagan, chunki uning ichkari qismida mehrob o'rnatilgan, bu narsa Xiva masjidlarida barmoq bilan sanarli bo'lib, quyida qayd etilganlaridan ba'zilaridagina uchraydi. Ustunli ayvoni bo'lgan gumbazli zal Sayid Aloviddin maqbarasi biqinidagi Yormuhammad devon (yoki Sayidota) masjidi va Ichan qal'aning janubiy qismidagi Bog'bonli masjidi, Abdolbobo va Matrizo qushbegi masjidlarining ham shifti to'sinlar bilan yopilgan. Zalning uch tomoni ayvon bilan o'ralgan masjid bu – Oqmasjiddir. Xivadagi mahalla masjidlarining oldida uzun hovlisi bo'lib, masjidning baland ayvoni shunga qaragan va qarshi tomonda unga yuzma-yuz qilib darvozaxona ayvoni yoki ters ayvon qad ko'targan. Bu yerda asbob-anjom turadigan qaznoq va tahoraxona bo'lgan.

Xivaning Jome' (Juma) masjidi o'rta asrlarda shaharning ko'zga ko'ringan binolaridan biri bo'lib, o'ziga xos qurilishi va hajmi bilan ajralib turgan. Bu yodgorlik Xorazmning qadimgi masjidlarini eslatadi. Ancha katta 55x46 metrli maydonni egallab, ko'p ustunli qilib qurilgan. Bu bino Ichan qal'aning sharqiy va g'arbiy darvozalarini ulagan katta ko'cha yoqasida joylashgan. X asrda Xorazmga kelgan arab sayyohi al-Maqdisiy Xivaning Juma masjidini birinchi marta tilga oladi. Biroq ko'pdan beri yashab kelayotgan xivaliklarning aytishlariga qaraganda ko'hna masjid buzilib ketgan va uning o'rniga 1788-yili xuddi o'sha reja asosida ancha kengaytirib hozirgi masjid bino qilingan. Masjid binosining tashqi ko'rinishi juda sodda, balandligi 4,5 metr, minorasining balandligi esa 42 metrga teng. Masjidni darvozasi shimolga qaratib qurilgan bo'lib, shimoldan esgan shamol masjid o'rtasida ochilgan ikkita kattagina tuynukdan chiqib ketgan. Tuynuk pastida qadimda balhi tutlar o'sgan, bu shu davrda masjid ichidagi havoni tozalab turishga kattagina yordam bergan, bu yerda otabobolarimiz tabiat bilan inson o'rtasidagi biosintezni uyg'unlashtirganlar hamda qadimda ko'pchilik binolarning ichiga tut daraxti ekilgan, bilasiz tut daraxti suvni kam talab qiladi, ya'ni o'q ildizlari orqali suvni o'zi topib oladi. Bu bilan ajdodlarimiz me'moriy inshootni bus-butunligicha saqlashga katta e'tibor berishgan, ya'ni tut daraxti bino ichidagi va tevaragidagi namlikni olib muvozanatni

saqlagan. Hozirgi vaqtda ham qadimgi binolar o'rtasida joylashgan ekin ekiladigan yerga tut daraxtlari ekilsa qadimgi obidalarimizning umrini uzaytirgan bo'lardik.

Juma masjid bir qavatli tekis tomli imorat bo'lib, uning to'sinli shipini 3,15 x 3,15 metr tartibda joylashgan 213 ustun ko'tarib turadi. Masjidning mehrobi xonaning janubiy devorida joylashgan. Mehrob, odatdagidek alohida ko'rinib turishi uchun uning yonlariga baland tokchalar ishlangan bo'lib, shifti esa balandroq qilib qurilgan. Mehrob qubbasidagi sodda ganchkorlik bezaklar va shu bezak yaqinidagi devorga ishlangan rang-barang ochilgan gulsafsar va na'matakni tasvir etuvchi naqshlar XVIII asr oxiri va XX asrlarda ishlangan. Mehrobning ikki yonidagi devorlariga o'rnatilgan marmar toshlarga o'ymakor xatlar bitilgan, xatlarning biri hijriy sana 1203 (1788-89) masjid mulki va mablag' hadya etilishi munosabati bilan tuzilgan vaqfnoma bitilgan. Unda aytilishicha, vazir Abdurahmon amri bilan 1203 hijriy yilda Kuyuktom (Go'ktom hozirgi Qo'shko'pir tumanidagi qishloq) va Bekobod qishloqlarida masjidga vaqf yerlari ajratilganligi va daromadni xayr-ehsonga hamda masjid zaruriyatiga sarf qilish haqidagi xabarlar bor. Ikkinchi marmar taxa bir oz kichik bo'lib, unga 1080-yil hijriy (1666-yil)ni ko'rsatuvchi tarix yozilgan.

Aholi orasida masjid XVIII asrning oxirlarida ta'mir qilingan degan fikr mavjud. Janubiy fasaddagi o'ymakor eshikka bitilgan xatda ham shu xaqda aytilgan. Unda 1788-89-yillarda Abdurahmon Mehtar ismli shaxs boshchiligidagi masjid ta'mirlandi deyilgan. Masjidda qadimgi naqshinkor ustunlardan 15 tasi saqlanib qolgan, 8 ta ustun Toshkentda O'zbekiston Xalqlari tarixi muzeyida saqlanmoqda. Qadimshunos olim Yahyo G'ulomovning fikricha, "bu ustunlarning ba'zilari butun O'zbekistonda yog'ochga o'yma naqsh solish san'atining eng qadimgi yodgorligidir". Eng qadimgi ustunlarda ko'zagi (ustun tagi) shapaloq barglarga ega, tanasining yuqori qismi muntazam raxli, o'rtasiga esa gir aylantirib xatti kufiy yozuvi yozilgan. shakllar chuqur o'yib ishlangan. XIV asr ustunlarida esa naqshlar ko'p bo'lib, yozuvlar xatti nasxda berilgan. Bu uslubdagi o'ymakorlikni mehrob yaqinidagi yog'och taxtachalarda va eshik tabaqalarida ko'ramiz. Yana masjidda qadimgilarga taqlid qilib ishlangan bir necha ustunlar ham bor. Ularning birida 1510-yilni ko'rsatuvchi sana saqlanib

qolgan. Boshqasida hech qanday yozuv yo'q. Balki ular mehrob yaqinidagi marmar taxtalar bilan bir vaqtda o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Bu nodir yodgorlikni 1979-yili me'mor Senechkin loyihasi asosida ta'mirlash boshlandi. Juma masjidini 108 ta ustuni 1983-yili aholidan sotib olingan. XVIII-XX asr boshlariga oid naqshinkor ustunlar bilan almashtirilgan. Masjidda Ko'hna Urganch, Izmiqshir va Xiva yog'och o'ymakorlik maktabining ustunlari bor. Rivoyat qilishlariga ko'ra, masjid ichida go'yoki yovoyi g'o'zapoyadan ishlangan ustun bor emish, haqiqatda masjid ichida hech qanday g'o'zapoya daraxtidan bo'lgan ustun yo'q, bu narsa amalda mumkin emas, chunki g'o'zapoya daraxtini tanasi kavak bo'lib og'ir yuk ko'tarishga yaramaydi. 1996-1997-yillarda Juma masjidi ta'mirlandi va ko'pchilik ustunlar yana almashtirildi. Masjid o'rtasida kichik gumbaz ostida kalsiy-korbanat (ohaktosh) dan ishlangan qozon joylashgan, qozonga solingan suv ma'lum vaqtdan keyin iliq holga keladi, bu mo'jizani sirini shu davrda ma'lum bir odamlar bilgan. Aholini hayratga solish maqsadida qilingan bu ish Islom dinining mavqeini omma o'rtasida yanada oshirgan.

Matpanaboy madrasasi

Jome' masjidining shimoliy qismida joylashgan bo'lib, bu madrasani xonlikning badavlat savdogarlaridan Matpanaboy 1905-yilda qurdirgan. Madrasani Xivaning bosh ustalari Xudoybergan hoji va Qalandar Qo'chumlar qurishgan. Madrasa peshtoqi sharqqa qaratilgan va janubiy tomonidan maxsus yo'lak qilingan. Madrasada o'ndan ziyod hujra va maxsus darsxona, janubiy qismida esa talabalar uchun masjid joylashgan. Madrasada "Avesto" muzeyi joylashgan. Hozirda Matpanaboyning avlodlari Turkmanistonning Toshhovuz shahrida yashaydilar.

Muhammad Amin Inoq madrasasi

Bu madrasa 1785-yili qo'ng'iro't xonlari shajarasiga asos solgan Muhammad Amin Inoq tomonidan qurilgan. Rivoyatlarga qaraganda, bu madrasaning maxsus xonalaridan biriga uning o'zi yoki kichik

o'g'li Qutlug' Murod bola xon dafn qilingan. 1935-yilda Xivaning ba'zi tarixiy binolari vayron qilingan, shu davrda ishlagan qariyalarning aytishlaricha, madrasa ichidan ikkita qabr topilgan. Qabr ichidagi jasadlar yaxshi saqlangan bo'lib, ularni kafandan tashqari teri bilan ham o'rashgan. Madrasada yigirmadan ziyod hujralar bo'lib old tomoni ikki qavatli kiraverishda ikki tomonidan tepaga ko'tarilish uchun maxsus zinapoyalar qurilgan.

Ushbu madrasa qarshisida XIX asr boshlarida Fozilbiy masjidi ham qurilgan. (Fozilbiy Muhammad Amin inoq davrida Amir al-umaro Xiva xonligidagi harbiy qo'shinlarning bosh qo'mondoni vazifasida ishlagan, uning maoshi yiliga 500 tilla bo'lgan, hozirda bu inshoot buzilib ketgan) Madrasa qayta ta'mirlanib, uning ichki sathini yuqori qismi beton ustunlar yordamida bostirilib ganch qilingan, chiroyli va betakrordir. Hozirgi kunda shahar FHDYoB, ya'ni nikohlarni qayd qilish uyiga aylantirilgan.

Qutlug' Murod Inoq madrasasi

O'tmishdagi voqealarni tarix sahifasiga muhrlagan saroy tarixchisi Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad Xivaqiy o'zining "Dili g'aroyib" asarida: - "Xe'vaq ko'p marotaba vayron qilingan va qayta tiklangan. Janobi oliylarining (Olloqulixon) rahmatli otasi va joylari jannatda bo'lsin Abulg'oziy Muhammad Rahimxon va uning ukasi Qutlug' Murod inoq tomonidan shahar obod qilindi, ularning say'i harakatlari bilan katta madrasa (Qutlug' Murod inoq madrasasi 1812) va katta gumbazli maqbara (Pahlavon Mahmud maqbarasi 1810-1825) barpo etildi" - deb yozadi.

O'ymakor eshiklardagi yozuvlarga ko'ra madrasa - maqbara 1804-1812-yillarda Xiva xoni Olloqulixonning amakisi Qo'ng'iro't muzofotini hokimi, harbiy sarkarda Qutlug' Murod Inoq tomonidan qurilgan va bezatilgan. Madrasa ikki qavatli qilib qurilgan bo'lib, uning 81 ta hujrasi va 24634 tanob vaqf yeri bo'lgan hamda ixchamgina darsxona va masjid, ichkarida maxsus quduq "tagi-zamin" (sardoba) bo'lib shahar aholisi shu quduqdan suv ichishgan. Yangidan qurilgan shaharda ilk bor ikki qavatli madrasa qurayotgan xivalik ustalar albatta ma'lum nusxalardan o'rnak olishga harakat qilganlar. Madrasa

qurishda ustalar ancha mukammal Buxorodagi Abdulazizxon madrasasi tuzilishini asos qilib olishgan. Me'morlar mablag'ni tejash maqsadida madrasa tuzilishini ancha soddalashtirib, unda yozgi ayvonlarni, qanotlardagi ikki katta xonani qurmaganlar, ularning o'rniga oddiy hujralarni qurishgan. Xivalik ustalar eski tarhga yangiliklar kiritib, hovlidagi peshtoqlarga bezak berishgan. Madrasaning sharqiy peshtoqining ichkarisiga yozgi masjid qurilgan bo'lib, masjid yuqorisida ikkinchi qavat balandligida yog'och boloxona bor. Yangilik elementlari ularning kompozitsiyasidan ko'rinib turibdi, shimoliy va janubiy boloxona, g'arbiy va sharqiy boloxonaga nisbatan keng bo'lib, ustalar shu yo'l bilan hovlini ko'rkam qilganlar. Bino Xivadagi oldingi asrlarda qurilgan qal'asimon madrasalardan farq qilib, fasadi ancha dabdabali ko'rinishga ega. Bunday natijaga peshtoqning buxorochoa shaklda besh qirrali ravoq va tokchalar bilan ishlanishi va turli bezaklarning ko'pligi tufayli erishilgan. Ravoqlar atrofi rang-barang koshinlar bilan hoshiyalangan, xuddi shunday koshinlar bilan madrasa guldastalari qoplangan bo'lib, peshtoq ichkarisidagi ganchkorlik san'ati namunalari unga husn bag'ishlab turibdi. Bularning hammasi bino manzarasini bir oz o'zgartirgan bo'lsa-da, tuynuk-darchalar, bosh fasad ikki qanotini chegaralab turgan bo'yodor qubbali guldastalar birgalikda binoga istehkom ko'rinishini beradi. Yangi tarh asosida ustalar tashqi fasadlarni ishlashda biror yangilik kiritishga intilishgan bo'lsa, bunday holni ichkarida sezmaymiz. Hatto masjid va darsxona nihoyatda sodda va hech qanday bezaksiz ishlangan, oddiy bezak namunalari miyonsaroy gumbazida va yozgi masjidning gumbazida uchratamiz. Madrasa darvozasi va ichkaridagi masjid hamda darsxonaning o'ymakor eshiklari diqqatga sazovordir. Har bir eshik nafis yog'och o'ymakorligining ajoyib namunasidir. Madrasaning boshqa xonalari deyarli bir xil ko'rinishdagi to'g'ri to'rtburchak sahni bo'lgan gumbazli hujralardan iborat. Hujra eshik yuqorisidagi panjara darcha orqali yoritiladi. Hujralarda yana tokcha va supa bor bo'lib, ba'zi hujralar ichiga yarim doira shaklida yog'ochdan ikkinchi qavat qilingan.

Rivoyatlarga qaraganda, Qutlug' Murod Inoq o'limidan so'ng uni o'zi qurdirgan madrasa poyiga ko'mishlarini vasiyat qilgan. Shu davr qonun-qoidalariga binoan shahar tashqarisidan shahar ichkarisiga o'lik

olib kirilishi taqiqlangan. Lekin buni ham ilojini qilishgan. Madrasa qarshisida qal'a devori yiqitilgan, natijada madrasa oldi ochilib, o'lik shu yo'lak orqali olib kiritilib madrasa darvozasi ostiga dafn qilingan va qal'a devori qayta ta'mirlangan. Lekin ayrim taxminlarga ko'ra, jasad madrasa oldidagi maydonning chap tomonidagi go'rxonaga qo'yilgan bo'lishi ham mumkin, chunki el o'rtasida: - "Sulton suyagini ho'r-lamas" degan naql bor.

O'z davri uchun madrasa katta ilm dargohi bo'lib, uning faoliyati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan:- "Sana 1275-yil safar oyining to'rtlanchisi, shanba kuni (1858-yil 13-sentabr) Qutlug' Murod Inoq madrasasi vaqfi hisobidan 1880 botmon g'alla qabul qilingan va quyidagicha taqsimlangan: - "kambag'allarga "ushr" (kavsan) tariqasida 50 botmon (Xiva botmoni 20 kg.ga teng) mutavalliga 180 botmondan, farroshiga 50 botmon, sartaroshiga 30 botmondan, ikkala oxunga 324 botmon, muazzin bilan masjid imomiga 130 botmondan, qolgan 1160 botmon talabalar o'rtasida taqsimlangan bo'lib, yuqori bosqich talabalari (ular 29 nafar) 21 botmondan jami 616 botmon, o'rta bosqich talabalariga (ular 18 nafar) 10,5 botmondan, jami 191 botmon, quyi bosqich talabalarga (ular 48 nafar) 5 botmondan jami 255 botmon g'alla taqsimlangan. Bu hujjatdan ko'rinib turibdiki, 1858-yili shu madrasada 95 talaba o'qigan ularga 2 nafar oxun dars bergan. Bundan tashqari bu madrasada mutavvali (madrasa mutasaddisi), imom, azonchi (muazzin) uni supurib-sidiradigan farrosh va talabalarni soch-soqolini oluvchi sartarosh mavjud bo'lgan. Madrasaning oldi katta maydon va uning atrofida savdo rastalari, kichik bozor bo'lgan. Madrasani tugatgan toliblar imtihondan o'tishgan. Buning uchun xon tomonidan "maxsus hay'at" tuzilar, uning tarkibiga ba'zida xonning o'zi, ko'pincha valiahd, qozi-kalon (bosh qozi), Qozi o'rda (shahar qozisi) va bir qancha ulamolar kirishardi. Imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarga mufti, a'lam, oxund, muqarrar (madrasa kitobdori) unvoni berilgan. Bitkazgan talabalar orasida shoirlar, muarrixlar, hattotlar, olim va fuzalo kishilar yetishib chiqqan. Ushbu madrasada qoraqalpoq shoiri Berdaq o'qigan. Hozirgi kunda madrasada hunarmandlar ishlab, o'zlarining ishlagan mahsulotlari bilan elga manzur bo'lmoqdalar.

Olloqulixon saroyi - Toshhovli

Sharq davlatlari hukmdorlari uchun yashash, hukmronlik qilish, mehmonlarni kutib olish, davlat kuch-qudratini ko'rsatish maqsadida qadim-qadimdan muhtasham saroylar bunyod etish odat tusiga kirgan. Saroylar xon va ularning yaqinlari yashaydigan, davlat xizmatlari bajariladigan joy hisoblangan. Shu boiski, yaxlit me'moriy holda bizgacha yetib kelgan Xiva shahrida bir emas, bir nechta xon saroylari hamon mavjud. Ana shulardan biri - Olloqulixonning mashhur Toshhovli saroyidir. Toshhovli saroyi (80x80m) XIX asr me'morchilik san'atining yorqin namunasi bo'lib, tashqi ko'rinishi va qurilishi jihatidan Ko'hna Ark saroyiga o'xshab ketadi. Saroy 1830-1838-yillarda Xiva xoni Olloqulixon (1794-1842-yillarda yashagan) tomonidan qurdirilgan. Saroy tarixiy ma'lumotlariga qaraganda turli uslublarda, qayta-qayta qurilgan. Ichan qal'aning sharqiy darvozasi yonidagi binolar bilan birgalikda yagona ansamblni tashkil etib bosh jamoat markazi shu yerga jalb qilingan. Saroy ulkan va hashamatli bo'lib, uzoq muddatda qurilgan. Uni qurish uchun Xorazmning eng yaxshi ustalari, naqqoshlari, koshinpazlari safarbar qilingan. Tosh hovli saroyi baland devor burjlari va darvozalari bilan qo'rg'onni eslatadi. Olloqulixon bu saroyni qurish uchun katta tayyorgarlik ko'rgan saroyning Toshhovli deb atalishiga ham, uning hashamatli va nihoyatda chiroyliligi hamda devorlari pishiq g'ishtdan terilganligi sabab bo'lgan. Saroy uchta katta hovli - ko'rinishxona, mehmonxona va haramdan hamda beshta kichik hovli va 163 xona (saroyda 1922-yilda muzey ochilgan, saroyning ma'lum qismida 1924-yilgacha xon urug'i yashagan. O'sha vaqtda hayot bo'lgan Olloqulixonning nevarasi Bobojon to'radan binoning qurilish tarixi va har bir xona nima maqsadda foydalanilganligi so'ralgan, Bobojon to'ra tomonidan bayon qilingan hikoyada saroyda 111 xona bo'lgan. Ushbu hikoya hozir O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda (Abdulla Boltayev qo'lyozmasi, tartib nomeri 9321), bu ma'lumot 1990-yilda "Xorazm hunarmandchilik" bo'limi ilmiy xodimi Odilbek Ibragimovni "Toshhovli saroyi" deb nomlangan yo'l ko'rsatkichidan olindi)dan iborat. Yog'och ustunlar, marmar toshlar, shiplardagi yozuvlar bizga saroy 8 yil davomida, ya'ni 1830-1838

yillarda qurib bitkazilganligini bildiradi. Ma'lum bo'lishicha, qurilish muddati bir necha davrga bo'lingan. Dastavval haram alohida qurilgan, haram to'g'ri to'rt burchak hovli va atrofdagi 1-2 qavatli ayvon xonalardan iborat bo'lgan. Atrofi burjli qalin devor bilan o'rab olingan. Uy-joy binolari tuzilishini haramning joylashishi va xonalarning hajmi, o'zaro bog'lanishida aniq sezish mumkin. Hovli ataylab g'arb-sharq tomonga cho'zilgan, chunki bu holda ko'pchilik xonalar oftobro'ya tarafga o'tadi. Haramning butun janubiy qismi xonning to'rt xotini uchun ajratilgan edi, qolgan xonalarda yangalar va xizmatkorlar turishar edi. Xonimlarga eng chiroyli va qulay uylar berilganligi tabiiydir. Har bir xonimning uyi bir ustunli peshayvon, xona va qaznoqdan iborat bo'lgan. Sharq tomondagi eng chekka ayvon xon qarorgohiga olib borgan. Bu ayvon boshqalarga nisbatan ancha baland serhasham va qarindoshlar uchun ajratilgan bir kichik dahliz va ikki xonadan iborat bo'lgan. Ayvonning ikkinchi qavatiga maxsus zina orqali chiqiladi. Haramning beshta katta ayvoni xon va uning to'rtta xotini uchun mo'ljallangan bo'lib, nihoyatda chiroyli koshin qoplamalar bilan bezatilgan. Eshik va ustunlar Xiva yog'och o'ymakorlik san'atining yuksak namunalaridan sanaladi. Marmar ustun toshlardagi, temir panjaralardagi jimjima o'yma naqshlarda Xiva ustalarining eng mukammal san'ati o'z ifodasini topgan. Katta ayvondan keyingi ayvon ustunning toshi islimiy naqshlar bilan birga "Boqiylik" belgisi bilan ko'rkamlashtirilgan, emishki xonga valiahd tug'ib bergan ayoli xon hobxonasiga yaqin joyda yashagan. Yana ayvonlarning oxirgisidagi ustun markazida ham shunday belgi bor bo'lib, u uncha ko'zga ko'rinmaydi, bunda ham o'ziga yarasha ma'no bo'lishi kerak. Hovliga qaragan hamma xonalar bezaklarga boy. Rang-barang gulli sirkor pannolar, o'ymakor yog'och ustun va marmar toshlar, naqshli shiplar va umuman hovlining erkin tuzilishi ajoyib rasmlar galereyasini eslatadi. Bunda har bir ayvon va har bir pannoyorqin san'at asaridir. Me'morchilik ornamenti va monumental amaliy san'at sohasida xalq ustalari erishgan eng yaxshi yutuqlar haram devorlari bezagida o'z ifodasini topgan. Ayvon devorlaridagi katta sirkor pannolarning o'simliksimon, gireh naqshlari ulardagi bezaklar bir biriga uncha o'xshamaydi. Ustunlardagi va eshiklardagi yog'och o'ymakorligi ayniqsa nafis bajarilgan: - ustunlar tanasining ikki uch

qatlamli o'ymakor gullar chulg'ab olgan. Shiplarda ko'kish koshinlarning aksi o'laroq qizg'ish jigar rang ishlatilgan. Qizig'i shundaki, har bir shipdagi bo'rtma gireh va hovzak naqshlar ikkinchi marta takror ishlatilmagan, kichik ayvonlar devoridagi naqqoshlik namunalari ham o'ziga xos alohida uslubda bajarilgan. Guldastalar tasviri juda erkin va tabiiy talqin etilgan. Marmar toshlardagi, jezdan ishlangan to'qqiz panjaradagi murakkab va jimjima o'ymakorlik-kandakor ustaning o'z mahoratini to'liq namoyish etishga intilishining natijasidir. Sharq tomondagi asosiy ayvon ustuni juda ko'rkam va jimjimador naqshlar bilan bezatilgan bo'lib, ship va devordagi naqshin gullar nihoyatda mayda va murakkab ornamentlar bilan berilgan. Serhasham hovliga nisbatan qaznoq, dolon (usti bosirilgan uzun yo'lak) va boloxonalar juda ham ko'rimsizdir. Ochiq o'choq dudlari qaznoqning devor va shiplarini qoraytirib yuborgan. Xotinlar ayvonini xon turar joyi bilan birlashtiruvchi dolon faqat tepadagi tuynuklar bilan bir oz yoritilgan. Ko'rinishxonaga yoki arzxonaning hovlisiga borish uchun bir qancha yarim qorong'i dolon-xonalarni bosib o'tish kerak.

Saroyning navbatdagi qurilgan joyi-mehmonxona (43x36 m) binosidir. Uning tuzilishi Tosh hovlidagi Arzxonaga va Ko'hna Arkdagi Ko'rinishxonaga o'xshab ketadi, 1932-34-yillarda qurilgan. Uncha katta bo'lmagan chorsiroq hovli atrofdan xonalar bilan o'ralgan. Hovlida o'tov uchun asos bo'lgan to'garak-supalar ham bor. O'z davrida mehmonlarga Shu o'tovda katta ziyofatlar berilgan. Ayvonning koshinkor devorlariga Ogahiyning forsiy she'rlari yozilgan. Shimol tarafga qaragan bosh ayvonda saroyning asosiy qabul marosimi o'tkazilgan. Xon huzurida bo'lib, u bilan suhbat qilgan sayohatchilar, elchilar bu ayvonlarni teatr sahnasiga o'xshatganlar. Ko'rinishxonaga kelgan elchilar Olloqulixonni "Jayxunning hukmdori, Xorazm elidagi barcha kentlarning amiri, Xiva hukmroni, Muhammad alayhissalomning avlodi, qudratli shahanshoh" deb ulug'lashib, unga "Ey qudrati beqiyos shahanshoh, muqaddas Xiva va Xorazm hukmdori! Muruvvatu marhamatingiz had - hududsizdir, - deb yer o'pib ta'zim qilib tavoze bildirganlar. Mehmonxona bezagi ayvon bezagidan qolishmaydi, lekin bu yerda ustalar sirkor koshinlarda gullarni va pannolarni boshqacharoq ishlaganlar. Rassom-kulollar lojuvard (to'yg'in moviy) rangni ko'p ishlatganlar. Bosh ayvon ancha

baland bo'lib, sirkor koshinlar bilan tekis qoplangan devorlar, yorqin naqshli shiplar, kungirador karniz va qubbalar hovlini manzarali va dabdabali qilib ko'rsatadi. Mehmonxona hovlisi aniq shaklda bo'lib, katta ayvon yonida bir necha yordamchi xonalar bor. Qarshi tomonda uchta xona o'rniga bitta zal solingan. Zalga mulozimxona hovlisidan kirish mumkin, eshik joylashgan g'arbiy devorda hech qanday naqsh yo'q, chunki devor yonida dolon va posbonlar turadigan bir necha xonalar bo'lgan.

Ko'rinishxona ham rang-barang koshinlar bilan hashamatli qilib bezatilgan, saroydagi koshinpazlik ishlarini mohir usta Abdulla jin bajargan. Toshhovli saroyi qurilishida XIX asrda yuksak cho'qqiga chiqqan Xiva me'morchilik maktabining eng mukammal an'analari har tomonlama o'z ifodasini topgan. Ganch, marmar, yog'ochdagi nafis o'ymakorlik bezaklari va shiplardagi ajoyib naqshlar iste'dodli ustalarning mahoratini to'liq namoyon qiladi. Toshhovli saroyining qurilishiga mehtar Muhammad Yusuf ota boshchilik qilgan, qurilishning bosh ustasi esa Nur Muhammad Toji o'limidan keyin usta Qalandar Xivakiy zimmasiga yuklatilgan. Usta Qalandar saroyini deyarli 8 yil davomida qurib bitkazgan. Olloqulixon saroyi XIX asrning eng yorqin yodgorligidir. 1842-yilda Xivaga kelgan rus elchilaridan birining esdaliklarida: Ichan qal'aning bozori yaqinida bitta saroy bor. U baland g'ishtdan devor bilan o'rab olingan. Saroyda Xiva xonining ikkinchi o'g'li istiqomat qiladi. Qal'aning g'arbiy qismidagi hashamatli saroy Ko'hna Arkda martabali Xiva xoni-Olloqulixon yashaydi - deb yozilgan. Bu ma'lumotni Olloqulixonning nevarasi Bobojon to'ra ham tasdiqlaydi, uning hikoya qilishicha, shu vaqtda Rahimquli to'ra Toshhovli saroyida yashagan va saroyda ozgina qurilish qilgan.

Tosh hovli saroyining haram qismida 1945-1983-yillarda Tarix muzeyi joylashgan edi. 1976-yilda boshlangan ta'mirlash ishlari 1989-yilda tugallangan va haram hovlisida shu yili "Xorazm hunarmandchiligi" muzeyi ekspozitsiya qilib ochilgan. Bu ekspozitsiya hozirgi kunlarimizda ham faoliyat ko'rsatmoqda. 1997-yilda Toshhovli saroyida Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan ulkan ta'mirlash ishlari olib borilgan.

Toshhovli saroyi yillar natijasida bir necha marta ta'mirlangan. 1982-1983-yillarda ayvon shiplari, 1976-1989-yillarda Haram ta'mirlanib, ta'mirlash ishlariga 551 ming 888 so'm mablag' ajratilgan va sarflangan. 1997-yilda saroyning pastki qismlari qayta ta'mirlandi Tosh hovli saroyining Mehmonxona va Arzxona qismlari 2001-yili qayta ta'mirlanib, sayohatchilarga namoyish qilish maqsadida ochildi. Ushbu hovlilarda "Devonbegi", "Mirzo" va "O'tov" intererlari joylashgan.

Olloqulixon Karvonsaroyi va timi

1831-yilda Ichan qal'aning sharqiy qismida, zahkash arig'i oqava suvidan hosil bo'lgan ko'l hashar usuli bilan ko'milib, uning o'rnida katta bozor maydoni vujudga keltirildi. Bu haqda Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad tubandagilarni yozib qoldirgan:- "Xivaning bozori uncha katta bo'lmagan maydonni egallagan. Bozor taxminan 5,6 tanob maydonni egallagan va shaharning sharqiy tarafida joylashgan ko'lcha hisobiga kengaytirilgan. 1810-yilda janobi oliylarining farmoniga ko'ra Xiva ahli 45 kun ichida uni tuproq bilan to'ldirib tekislagan va u yerda bozor bunyod etilgan. Nariroqda ilgari katta chorbog' bo'lib mevali va manzarali daraxtlar o'tqazilgan. Ilgari uning pastida don bozori bo'lar edi. Endi esa u yerda baqqollar, baliq va boshqa taomlarni pishiruvchilar o'tirishadi. Bu yer oddiygina rasta bozor deb ataladi".

Xivada XIX asrning 30-yillarida barpo bo'lgan bu bozorda don, meva, sovun, sham bozori bo'lgan. Qator sartaroshxona va mayda savdo uylari bo'lib, ularga yondosh joyda qullar sotilgan. Xivaning Buxoro, Eron va ayniqsa Rossiya bilan savdo aloqalarining rivojlanishi natijasida 1833 yilda haramni qurib bitirgandan keyin Olloqulixon karvonsaroyini qurishga kirishdi.

Bozorga yondosh qal'a devori yaqinida ikki qavatli Karvonsaroy qurilishi bilan yana bir bozor maydoni paydo bo'ldi. Keyinroq esa Karvonsaroyning oldiga yana gumbazli tim qurildi. Afsuski, shunday shinam maydon bir-bir yarim yildan so'ng Olloqulixon madrasasi qurilishi natijasida o'z shaklini yo'qotgan. Karvonsaroy va yopiq bozor (tim) Xiva xoni Olloqulixon tomonidan 1833-yilda qurilgan. Karvonsaroy o'zini tashqi ko'rinishi bilan Buxorodagi Abdullaxon

timi(yopiq bozori)ga o'xshab ketadi. Karvonsaroy tashqi mamlakatlardan keladigan karvonlarni qabul qilishga moslab qurilgan bo'lib, uning ikkala g'arbiy va sharqiy darvozalari tuyalarda keltirilgan yuklarni bemalol Karvonsaroyga kirib chiqishni ta'minlagan. Karvonsaroy o'rtasida janubga qaratib solingan darvoza orqali savdo markaziga-savdo uyiga kirilgan. Savdo uyi ikki qavat qilib qurilgan bo'lib, 105 ta hujradan iborat. Pastki qavati savdogarlar uchun savdo rastasi vazifasini o'tagan, yuqori qavati esa-mehmonxona hisoblangan. Bino juda qulay va sodda rejalashtirilgan, u keng hovli va hovli atrofidagi ikki qavatli hujralardan iborat. Hamma hujralar hovli sahniga qaragan. Faqat fasadning janubiy qismidagi hujralarning ikkinchi qatori, xuddi madrasadagi kabi, maydoncha tomonga qaragan bo'lib, bir xil tuzilishdagi "balxi" gumbazli hujralar fasaddagi ravoqlar qatori bilan aniq belgilanib turadi. Hovliga olib o'tuvchi yo'l ikki tarafdan peshtoq bilan chegaralangan. Peshtoq qanotlari ichida ikkinchi qavatga olib chiqadigan aylanma zinalar bor. Shu davrlarda pastdagi baland xonalarda yuk saqlangan bo'lsa, yuqori asosan uy-joy sifatida foydalanilgan. Yiliga ombor uchun kumush hisobida 10 so'm, hujra uchun 5 so'm pul olinardi. Karvonsaroyning tashqi ko'rinishi madrasaga o'xshaydi, lekin unda o'ziga xos ba'zi tomonlar ham bor.

Masalan, madrasadan ichkariga maxsus xonalar orqali aylanib o'tilsa, bu yerda ichkariga yuklar bilan ikki gumbaz ostidan to'g'ri o'tish mumkin. Hovlining o'rta qismi mol yuklashga qulay bo'lsin uchun bir oz chuqur qilib o'yilgan. Mazkur bino mehmonxona, ombor va savdo rastalari xizmatini bajarishi qiyin bo'lgani uchun keyinroq Karvonsaroyning oldiga tim qurildi. Hozirgi ko'rinishida tim va karvonsaroy binolari bir butundek ko'rinadi, lekin bu binolarning devorlarida karvonsaroy peshtoqining qoldiqlarini, ravoqlarning pastki qismi va guldasta - minora qoldiqlarini ko'rish mumkin. Timning tarixi diqqatga sazovordir. Ikki qator mayda gumbazlar karvonsaroy darvozasi oldida kelib taqalgan. Xuddi shunday gumbaz timning g'arbiy tomonida ham bor. Xivaning qo'li gul ustalari gumbazli dolonlarni juda mohirlik bilan qurganlar. Gumbaz asoslari murakkab Shaklda bo'lishiga qaramay, ustalar osonlik bilan o'ziga xos (goh to'rt burchak, goh trapetsiya shaklida, goh olti qirrali) konstruktiv asos topa

bilganlar. Tim ichkarisi gumbazlardagi tuynuklar orqali yoritilgan. Shu davr talablari asosida chet ellik savdogarlar bir hujrani bir necha yilga ijraga olishgan. Doimiy harakatda bo'lgan karvonlar esa shu savdogarlarni mahsulot bilan ta'minlab turishgan. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ushbu binoda faqat mahalliy mollargina emas, balki rus, ingliz, eron va afg'on mollari ham sotilgan. Bozorda Xiva olachasi, ipak belbog'lari hamda Xorazm zargarlarning betakror zargarlik buyumlari, ingliz movuti, eronning ip aralash shoyilari, ipakli mollar, ko'rpa, kamar, buxori etik, xitoy chinnisi, qand, choy va shunga o'xshash turli tuman mayda-chuyda narsalarni uchratish mumkin bo'lgan. Bozordagi tartib va tosh-tarozini maxsus tayinlangan rais kuzatib turgan. Agar biror xiyonat sodir bo'lsa, u shu ondayoq gunohkorni darra bilan jazolagan.

Karvonsaroyda maxsus devonxona bo'lib, kelib-ketuvchi savdogarlar, shuningdek bu mahkamada pul almashtiruvchi "sarroflar", savdogarlar olib kelayotgan tovarlarga baho belgilaydigan maxsus amaldorlar xonasi bo'lgan. Bu yerda devonbegi darvozadan o'tgan mollar uchun tamg'a puli olgan va bu pul davlat g'aznasiga emas, 1835-yilda qurilgan Olloqulixon madrasasi kutubxonasini ta'minlashga sarflangan. Hozirgi kunda Karvonsaroy qadimgi an'analarni saqlagan holda "Karvonsaroy" savdo markaziga aylantirilgan.

Olloqulixon madrasasi

Xiva xoni Olloqulixon (1825-1842) Xiva shahrini iloji boricha Osiyoning eng chiroyli va ko'rkam shahriga aylantirish uchun ko'p qurilishlar qilgan. Nurab turgan eski madrasalarni (bu madrasalar ko'pincha sinchdan va xom g'ishtdan qurilgan bo'lib) buzdirib, yangidan pishiq g'isht ishlatgan holda o'z davrining yetuk ustalariga buyurib qayta qurdirgan. Shular qatorida o'z nomi bilan Ichan qal'aning sharqiy devori o'rnida bir chiroyli madrasa qurdirgan. Madrasa tim qurilgandan keyin qurila boshlangan, qurilish boshlashdan ilgari Xo'jamberdibiy madrasasiga yondoshgan shahar devorining bir qismi va Polvon darvoza gumbazlaridan bir nechasi buzib tashlangan. Paxsa va g'isht devor qoldiqlari tekislanib, uning ustiga madrasaning

peshtoqi tiklangan. Bu peshtoq oldingi madrasani peshtoqi o'rnida qurilib, buning natijasida bu yerda qo'sh madrasa hosil qilingan.

Sun'iy ravishda qilingan, balandligi 3 metrlik tepalik Olloqulixon madrasasini qo'shni Xo'jamberdibiy madrasasining pastak gumbazlaridan ancha yuqoriga ko'tarishga va natijada ichkariga shahar tarafga o'tishga imkon berdi. Madrasaning hovli qismi boshqacharoq ko'rinishga ega:- ikki qavatli hujralar qatori Polvon darvozaning kichik gumbazlari ustiga va qisman tim gumbazlari chekkasiga joylashgan. Madrasa trapetsiya shaklida qurilgan bo'lib, unda 99 ta hujra, yozgi va qishgi masjid, darsxona mavjud. Har bir hujrada bir eshik va uning ustida kichik darcha bor. Hujra pastiga chorsi g'ishtlar terilgan, devorlari ganch bilan suvalgan, tepasidagi "balxi" gumbazlarini ichi bezalmagan. Madrasadagi qishgi masjid va darsxona kabi katta xonalar ikki qavatli imoratlardek gumbazi uncha baland emas, katta ravoqlari, bezaksiz tekis devorlar, chuqur tokchalar bir oz beo'xshov ko'rinadi. Madrasaning tashqi bezaklari butunlay boshqachadir. Ro'parasidagi Qutlug' Murod Inoq madrasasida oq va rangli ganch, bosma qolipli, sirli koshin ishlatilgan bo'lsa, bu madrasada faqat sirli koshin ishlatilgan. Lekin koshinlarning naqshlari har-xil bo'lib, kulollar bu yerda joyning bezatiladigan o'rniga qarab namoyonlarning shakli, ranglar quyuqligi va o'lchamlarini ustalik bilan tanlaganlar. Peshtoqdagi islmiy naqshlar, mayin shaklli ravoqlar qatorining zerikarli gireh shaklini jonlantirib turadi. Hovlidagi masjidning peshtoqi murakkab halqasimon islmiy naqshlar bilan bezatilgan, ushbu peshtoqdan yozgi masjidga o'tiladi. Madrasaning asosiy peshtoqining orqa tomoni odatda bezaksiz bo'lardi, bu yerda biz jimjimador islmiy naqshlar tushirilgan sirli koshinlarning ajib manzarasini ko'ramiz.

Madrasaning qurilish tarixi turli davrlarda turlicha yozilgan. Bu haqda Ogahiy o'zining "Riyoziy ud davla" asarida quyidagi ma'lumotni keltiradi: - "Qo'y yili, sana 1251 (1835) Olloqulixon farmoni bilan Muhammad Yusuf mehtar boshchiligida Toshhovuz qal'asi qurilgan.

"Madrasai oliya" kim Xiva shahrida Karvonsaroy bilan Pahlavon darvoza oralig'ida joylashgan bo'lib... Muhammad Rizo qushbegi boshchiligida qurilishi boshlangan edi. U vafot etganidan so'ng

Otamurod Qushbegi boshchiligida qurilib oxiriga yetkazildi. U “Madrasai xon” deb ataladi.

Lekin xivalik qariyalarni xotirlashlaricha, bir vaqtlar (1961) madrasaning darvozasini bezab turgan ustunchada (binasida) 1834-yilni ko'rsatuvchi yozuv bo'lgan. Ustozimiz Komiljon aka Xudoyberganov o'zining “Xiva xonlari shajarasi” risolasida Olloqulixon madrasasini tarixi haqida to'xtalib, quyidagicha fikr bildirgan: - “Madrasa peshtoqi kitobasida koshinga arab tilida nastaliq xatida shunday so'zlar yozilgan: - Oллоh taoloning sharofati bilan bu serfayz makon, xayr va barakalar koni, Muhammad Rahim podshohi g'oziy (uning qabri nurli bo'lsin) ning o'g'li hazrati ulug' sulton va hurmatli xoqon Abulg'oziy Olloquli Xorazmshoh (uning davlati mangu davom etsin) ning buyrug'i bilan bino etildi, sana 1250”. Madrasa hijriy 1250, milodiy 1834-yilda qurib bitkazilgan. Madrasa peshtoqi bo'ylab II shaklida nihoyatda chiroyli va shuning bilan qiyin o'qiladigan sul's xatida Qur'oni Karimning “Fath” (“Galaba”) surasi yozilgan. Madrasaning kirish eshigi ustidagi balkon devoriga fors tilida, nastaliq yozuvida she'riy tarix bitilgan:-

Abulg'oziy Olloquli shoh,
Oллоh fayzi bilan ilm mamlakatini bezadi.
Ilohi sahovat bulutlarini suvga serob qilib,
Uning barcha joyini ilm daryosiga aylantir.
O'z karami bilan bu madrasani bino etib,

Uni ilm makoni bo'lgan oriflar yuragiga aylantirdi.
Uning gumbazi osmon gumbazidagi o'n oycha bor.
Uning qaddini ilm liboslari bezab turibdi.
Bu binoning salobatli gumbazlari,
Boshdan oyoq ilm nuri bilan yoritilgandir.
Kel, ey kotib, uning tarixi uchun,
Degil:-“Fayz va foydali ilm manbai”.

Ushbu she'rni oxirgi misrasiga tarix yashirilgan bo'lib, uni hisoblasa hijriy 1250-yil ko'rsatilgan. Demak, madrasa qurilishi 1834-yilda boshlanib 1835-yilda tugallangan. Olloqulixon bu madrasani

vaqfi uchun Xiva xonligiga qarashli 8500 tanob (9 ming gektarga yaqin) yerni ajratgan. Madrasa hozirda ta'mirlan va unda hunarmandchilik markazi joylashgan.

Xurjun madrasasi

1835-yilda Olloqulixon madrasasi qurilib tamomlangandan so'ng, Xo'jamberdibiy madrasasi buzib tashlanadi va o'rniga boshqa bino tiklanadi. Xo'jamberdibiy madrasasi 1688-yilda shahar darvozasi yaqiniga qurilgan bo'lib, kichik hovli atrofiga joylashgan 10-12 hujra va masjididan iborat edi. Xo'jamberdibiy madrasasining faqat saqlanib qolgan masjid va unga yondosh xonalari haqida so'z yuritish mumkin. Masjid hajmi va bezagi jihatidan oddiy hujralarga o'xshab ketadi, lekin uning kvadrat plani, mehrobi, g'ishtin muqarnasli gumbazi boshqa hujralardan ajratib turadi. Yangi madrasaning odatdagidan boshqacharoq tuzilishiga sabab ustalarning Olloqulixon madrasasiga yangi binoni moslashtirishga intilishi natijasidir. Olloqulixon madrasasi peshtoqi oldiga o'tish uchun Xo'jamberdibiy madrasasi hujralarining eski gumbazlari buzib tashlandi, pastqam devorlar tuproq bilan ko'milishi natijasida hovli sahni ikkiga bo'linib qoldi. Shuning uchun ham keyinroq madrasa "Xurjun" nomi bilan ataladigan bo'ldi. Eski peshtoq ham buzib olinib, uning o'rniga bir gumbazli darvozaxonona qurilgan. Oddiy bir gumbazli darvozaxonadan hovlilarga va Olloqulixon madrasasiga olib boruvchi yo'lga o'tish mumkin, tashqi tomondan bu yerda yana bir madrasa bor deb bo'lmaydi. Uning tomi Olloqulixon madrasasining ulug'vor fasadi oldida o'ziga xos supa kabi o'rin olgan. Madrasaning ichki planida tasodifiy qismlar ko'p: devorlar qalinligi 0,5 dan 3 metrgacha, shimoliy va janubiy hovlilardagi hujralar eshigi ravoq ichiga olinmagan, hujralari bir xil emas. Madrasani qurishda ustalarning xizmati shundaki, ular asrlar o'tganiga qaramay qurilishdagi gumbaz qo'yish kabi qadimgi usullarni takrollab, eski va yangi qurilishlarni yagona inshootga birlashtirganlar va binoga yangicha ko'rk bera olganlar.

Polvon darvoza

Darvozaning hozirgi ko'rinishi bir qancha ta'mirlashlar natijasidir. Dastlab darvoza qal'a devoridan bir oz tashqariga turtib chiqqan oddiy Shaklga ega edi. Bu yerdan turib devor tashqarisini kuzatish ancha qulay bo'lgan. Darvozaning ikki yonidagi burjlari Shahar devori bilan tutashgan bo'lib, yagona mudofaa istehkomiga qo'shilgan edi.

Eltuzarxon (1804-1806) tomonidan darvoza ichkarisiga ko'p gumbazli dolon (yo'lak)ning qurilishi natijasida bu joy bozor rastasi vazifasini ham bajara boshladi.

Karvonsaroy va Tim qurilgandan so'ng (1832-1833) darvozaning bozor sifatidagi ahamiyati ancha pasaydi. Lekin 1835-yilda Olloqulixon madrasasi qurilishi munosabati bilan darvozaning g'arbiy qismi qayta qurildi va uning oldidan ikki gumbazli va peshtoqli yangi hammom qad ko'taradi.

Davr o'tishi bilan darvoza ana shunday o'zgarib bordi: - ko'p qismi yangilandi, yangi imoratlar qurilishi natijasida darvoza tamoman o'zgacha ko'rinishga ega bo'ldi. Hammom allaqachon yarim vayronaga aylangan, rastalar huvillab qolgan edi. Qadimgi darvozadan faqat poydevorlar saqlangan. Lekin darvoza hali ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Polvon darvoza qayta qurilgan bo'lsa-da, uning darvoza arxitekturasi qadimgi ustalar mahoratining namunasi sifatida qadrlanadi. Bino hajmi va o'lchamlari konstruktsiya imkoniyatlar e'tibori bilan eng qulay me'yorda belgilangan. Imorat yanada pishiq bo'lsin uchun ravoqlar kergi kuchi oz bo'lgan shaklda yasalgan. G'ishtlar qatoriga yog'och to'sinlar kiritilib, gumbaz og'irligi bir qancha ravoqlarga taqsimlanadi. Kichik gumbazlar uchun g'ishtni "davra" va "balxi" uslubda teriladi. Ayni vaqtda bino ichkarisi suvoq qilingan. Bir necha gumbaz ustidan tushib turgan yorug'lik yarim qorong'i yo'lakni yoritib, yanada jozibador qiladi. Olloqulixon madrasasining janubiy devori yaqinida pog'onasimon ko'tarilgan ulkan gumbazlari uzoqdan ko'zga yaqqol tashlanadi, bu yerda gumbaz va ravoqlar binoning umumiy tuzilishini ko'rsatib turibdi.

Ko'p gumbazli Polvon darvozaning fasadlari g'arb va sharq tomonga qaragan. Deshon qal'a tarafidagi sharqiy darvoza yirik qal'a

devorlariga o'xshatib ishlangan va mudofaa uchun mo'ljallanmagan bu darvoza g'ishtlardan terilgan guldor va rangli sirkor qoplamalar bilan bezatilgan.

G'ishtlardan terilgan dandanalardan, zangori sirkor bezaklar, bosma muqarnas, gumbazdagi lojuvard rang sirli g'ishtlar juda mohirlik va did bilan Xiva ustalari tomonidan bajarilgan.

Rang-barang bezaklar tufayli bu inshootni guldarvoza ham deyishadi. Burjlardan biri (janub tomonidagi) 1930-yilda bir oz soddalashtirib qayta ta'mirlangan. Darvozaning g'arbiy tomoni esa Olloqulixon madrasasi qurilayotgan vaqtda qad ko'taradi. U tashqi tomoniga nisbatan ancha sodda. Bunda qubba, ravoqlar yo'q. Faqat peshtoq devorining ravoqdan yuqoridagi qismida sirli koshinli namoyon bor. Xuddi shu yerda "shahri Xiva" so'zlari yozilgan tosh taxta bor. Yuqoridagi ikki so'z bino tarixini ko'rsatadi, ya'ni darvoza yangidan shahar bunyod etilayotgan davrda 1806-1807-yillarda qurilgan ekan. 1930-yilda ta'mirlangan darvozani, Xudoybergan Devonov tomonidan tushirilgan eski surati muzey fondida saqlanmoqda, unda tasvirlanishicha 1911-yilda darvozaning janubiy qismi butunlay to'kilib ketgan ekan. Darvoza keyinroq 1982- va 1997-yillarda ham qayta ta'mirlangan.

Oqmasjid

Xiva binolari qatorida guzar masjidlarini tez aniqlab olish qiyin. Chunki ko'pchilik masjidlar xuddi uy-joy binolariga o'xshatib qurilgan, shular ichida Oqmasjid boshqacharoq qurilgan. Masjidning tashqi ko'rinishi, uch tarafdan o'rab olingan soya-salqin ayvoni, bir gumbazli binosining uchta eshigi masjidning jamoat joyi ekanligidan darak beradi. Uning qadimgi qismi (poydevori) Anushaxon hammomi bilan bir vaqtda qurilgan. Lekin o'ymakor eshiklardagi yozuvlar binoning 1838-1842-yillarda qurilganini ko'rsatadi. Xuddi shu vaqtga kelib maydon atrofidagi hamma binolar qurilgan bo'lib, endi ustalar qolgan kichik bir sahnda bino qurishlari kerak edi. Bu binoni me'morchiligi maydonning mahobatini ifoda etishi, qo'shni uy-joy imoratlaridan uncha tafovut etmaydigan bo'lishi lozim edi, xivalik ustalar bu vazifani a'lo darjada ado etganlar.

Masjid gumbazi xona va ayvondan iborat, markaziy gumbaz chorsi (6,35x6,35) xonaga o'rnatilgan. Xona ravoqlar yordamida kengaytirilgan. Ayvon tuzilishi va yon devorlar masjidning fasad kompozitsiyasini aniq belgilab turadi. Yassi tom ustidan baland ko'tarilgan gumbaz kvadrat asosi bilan birgalikda uzoqdan zinapoyasimon ko'rinish baxsh etadi. Masjidning qulay joylashganligi mehrobni janubiy devorga joylashtirish imkonini bergan. Bu esa xonada va ayvonda baravar namoz o'qish imkonini beradi. Ustalar masjidni qurganlarida va bezak berganlarida sodda uslubda qurib, sodda bezaklar berish bilan cheklanganlar. Yog'och ustunlarda o'yma naqshlar deyarli yo'q, faqat ustun tepasi xakamkoriy-pilaklardan terib yasalgan, yog'och o'ymakorligi san'atini ustalaridan Odina Qalandar o'g'li Nurmuhammad va Sayidmuhammad o'g'li Qalandarlar uchta eshik bezagida o'z mahoratlarini namoyish etganlar. Eshiklarning islamiy naqshlari va jimjimasi bir xil uslubda ishlangan. Shimoliy tomonga qaragan eshik orqasidagi devorda har xil yozuvlarga o'xshash naqshlar zo'rg'a ko'rinadi.

Anushaxon hammomi

Hammom Abulg'ozixon (1603-1663) hukmronligi davrida, 1657-yilda qurilgan, xon Karmanaga qilingan omadli yurishidan keyin Xivaga qaytib kelgach, yurtga katta to'y berdi va haloyiq oldida o'z o'g'lining xizmatlarini qadrlab, unga tug', lashkar, bayroq va nog'ora hamda Hazorasni tuhfa etdi. Anushaxon sharafiga hammom qurilishi ham Abulg'ozixon o'z o'g'liga qilgan marhamatlaridan bittasi bo'lib, umrining oxirida hali o'lmay turib (60 yoshida) taxtni o'g'li Anushaga topshirdi, bu ishni Abulg'ozixondan boshqa Xorazmda hukmronlik qilgan birorta xon qilmagan. Shundan keyin xon uzlatga chekinib, bir talay ilmiy asarlar bitgan. Hammom ancha murakkab tarh asosida qurilgan, hammomga Oqmasjid yaqinidagi gumbazli kichik xonadan kiriladi. Issiqni yaxshi saqlash uchun hammomning xonalari yer ostida ishlangan bo'lib, tashqaridan faqat gumbazlar ko'rinib turadi. Hammomda dahliz, kiyimxona, sovunxona, isiriqxon, issiq suv turadigan hovuzcha, go'loh bor. Xonalarning o'zaro bog'lanishi qadimgi hammomlar tartibini takrorlagan. Hammomning go'lohi

oldida suv olinadigan quduq saqlanib qolgan. Suv tarnovlardan katta yomga yig'iladi, o'txonaning dudlari maxsus yo'llar orqali hammom xonalari ostidan o'tib isitadi va dudbo'ron orqali tashqariga chiqib ketadi. Issiq suvli hovuz atrofidagi to'rtta xona devordagi tuynuklar orqali suv bilan ta'minlanadi. Chuqur xonalar sahni shunday yo'nalishda joylashganki, mag'zavalar eng chuqurlikdagi xona orqali maxsus o'ralarga oqib tushadi. Bino ichkarisi g'ishtdan gumbazlar tepasidagi tuynuk darchalar orqali yoritilgan xonalarda bezak yo'q, devor va gumbaz sathi suvga chidamli qorishma (hajja:- ko'l bo'yidagi sho'rhok tuproqdan maxsus usullar yordamida tayyorlanadi, u oq va qora hajja nomlari bilan mashhur bo'lib, Xorazmdagi barcha qadimgi binolarning qurilishida ishlatilgan, hozirgi kunlarimizgacha qadimgi suvoqlar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas) bilan suvalgan. Xonalar kichik bo'lgani uchun ustalar oddiy tuzilishdagi gumbazlarni qo'llashgan. Anushaxonning tug'ilishi, unga Anusha deb ism qo'yilishi haqida qadimdan rivoyat qiladilarki. Abulg'ozi to'ra yoshligida Anusha ismli bir cherkas kanizakni sevib qoladi. Lekin u balog'at yoshiga yetmagani uchun unga uylana olmaydi. Oradan yillar o'tib Abulg'ozi uylanadi, o'nta o'g'il farzand ko'radi. Lekin qizi bo'lmaydi. O'lganimda yig'lab qoladigan qizim bo'lmadi deb ko'p iztirob chekib yurardi. Bir mahal xotini homilador bo'lib tug'ish vaqti yaqinlashganda Abulg'ozi shikorga ketadi. Ketish oldidan kimda kim qizingiz tug'ildi deb xabar keltirsa katta suyunchi beraman deb va'da etadi. Tug'ilgan farzand yana o'g'il bo'ladi. Lekin enagalar hiyla ishlatib, qiz tug'ildi deb xondan suyunchi oladilar va chaqaloqni qiz boladek kiyintirib qo'yadilar Abulg'ozixon qiziga birinchi muhabbati sharafiga Anusha deb ism qo'yadi. Oradan bir necha yil o'tib "Anushaxon" katta yigit bo'lib yetishadi, lekin qiz kiyimida yuraveradi, bo'lgan voqeani unga aytib, uni shunga rozi qilib qo'yadilar. Kunlarning birida Abulg'ozixon Buxoro bilan urushib, asir tushadi. Buxoro xoni uni zindonda saqlaydi. Bu vaqtda Xivada taxt uchun Anushaning katta akalari o'rtasida janjal boshlanib ketadi. Anusha Buxoro xoni oldiga borib otasini ozod qilinishini so'raydi. Buxoro xoni qarasa bir chiroyli yoshgina qiz Xivaddek yerdan otasining ozodligini tilab kelibdi. Xon unga shunday shart qo'yadi: - "Menga xotin bo'lsang, otangni ozod qilaman". Anusha rozilik beradi. Xon Abulg'ozixonni ozod qilib olib kelishlarini

buyuradi. Abulg'ozixon voqeani anglagach, uyatdan yer yorilmaydi-yu yerga kirmaydi. Qiziga qarab: - "bu kunni ko'rgandan o'lganim yaxshi, darhol uygga qayt deb buyuradi". Anusha:- "Sizdan burun meni o'ldirishsin, orqaga qaytmayman" - deydi. Abulg'ozixonni ozod qilishadi. Shunda Anusha Buxoro xoniga qarab, otamni ozod qildingiz, endi so'zingizdan qaytmaysiz. Otamga ham, sizga ham bir sirni ochaman", -deb yechinadi, yigit ekanligini, bo'lib o'tgan voqeani gapirib beradi. Ikkala xon ham hangu-mang bo'ladilar. Buxoro xoni so'zidan qaytmay, ota-o'g'ilga mehribonliklar ko'rgizib yurtiga yuboradi. Xivaga kelgan Abulg'ozixon – "Men qizim yo'q deb afsusda edim, bir emas o'nta qizim bor va bitta o'g'lim bor ekan" - deb taxtni Anushaga topshirgan va taxtingga gultoj bo'lsin deb Anushaxon nomiga hammom qurdirgan ekan.

Hammom inson uchun juda zarur maskan bo'lib, bundan uch ming yil muqaddam qadimgi Rimda hammomni nafaqat inson jismoniy tanasini tozalovchi balki, turli kasalliklardan forig' qiladigan va kasalliklarni oldini oladigan joy deb ham tushunilgan. Hammom inson sog'ligi uchun juda yaxshi foyda berishini Eron, Chin, Hindiston, Turon zaminida yaxshi bilganlar va shaharlarda hammomlar qurilgan, ular aholiga muntazam xizmat ko'rsatib turgan. XVII asr boshlarida Buxoro sharifida o'n sakkizta hammom borligi haqida tarixiy manbalar bor. Bu davrda qadimiy Xivada ikkita hammom bo'lgan.

Birinchi eski hammom Polvon darvoza yaqinida joylashgan va juda sodda bo'lib, yer tagida qurilgan faqat yuvinish xonasining gumbazi yer ustiga chiqib turgan. Bu hammom shahar aholisiga ko'p yillar xizmat qilgan. Ikkinchi hammom Anushaxon hammomidir.

Hammom tashqi ko'rinishidan noyob me'moriy obida bo'lib, qurilishi jihatidan sharqdagi boshqa hammomlardan tubdan farq qiladi. Binoning bir qismi yer tagida, yuvinish xonalari ham ana shunday usulda joylashgan. Tashqaridan esa binoning gumbazsimon ustki qismi ko'rinib turibdi. Yigirmaga yaqin xonasi bor, hammomda beshta kishi xizmat qilgan. Ikkita hammomchi, go'loh, ikkita suv tashuvchi meshkobchilar ishlagan. Ichkarida sartaroshxona ham mijozlarga xizmat qilgan. Hammomda yuvinish uchun tartib qat'iy o'rnatilgan payshanba kuni martabali zotlar-xon va uning yaqinlari, juma kuni ulamolar, din arboblari, boshqa kunlari esa shahar aholisi va

qishloqlardan kelgan kishilar yuvinganlar. Hammom xonlik tasarrufida bo'lib, unga vaqf yerlari ham ajratilgan. Hammomga ayollar, bolalar, g'ayridinlar va teri kasalliklari bilan og'rigan kishilar kirishi manqilingan.

Hammomni qizdirish uchun shahar ichkarisidagi turli chiqindilar ot, eshak tezaklarini, hovlilardan chiqqan ortiqcha chiqindilarini yoqib ishlatganlar. Bu esa shahar ichini, havosini toza saqlashga xizmat qilgan. Xonalar pol tagidagi maxsus quvurlar yordamida qizdirilgan, isitish xonasi oldidagi quduqdan ehtiyot uchun suv olib ishlatilgan. Markaziy katta xona tevarak-atrofdagi xonalarning barchasi biror bir vazifani bajargan. Birlarida yuvinish, issiq bug'dan toblanish mumkin bo'lsa, boshqalarida tibbiy uqalash seanslari o'tkazilgan. Sharqda issiq bug'dan bod, oyoq-bo'g'im xastaliklarini davolashda foydalanganlar. Uqalashning bir qator usullari bo'lib asab, qon-tomir, organizmning turli qismlaridagi og'riqlarga naf berishini tabiblarimiz yaxshi bilishgan. Bunga orom berish emas, tabiblar davolash vositasi deb qaraganlar. Bu ish muntazam tarzda bajarib kelingan. Bundan tashqari hammomda alohida xona bo'lib, u yerda tish og'rig'iga davo qililib, tish olingan, Xivada tish davolash ham o'tmish asrlardan rivojlanib kelgan.

Qishloq joylarida tish olishni temirchi ustalar, sartaroshlar bajargan. Anushaxon hammomida tish davolab, olishdan tashqari, xafaqon xastaligiga duchor bemorlardan qon ham olingan. Xafaqon ("qon bosimi") dardiga muftalo kishilardan ortiqcha qon olish orqali qon bosimi-normallashtirilgan. Bu usul sharqda qadimdan an'ana bo'lib kelgan.

Anushaxon hammomida mijozlar tanasini yuvish bilan birga o'z sog'liqlarini ham tiklashgan. Hammomda mijozlar uchun choyxona bo'lib o'zaro suhbatlashib, hordiq chiqarishlariga barcha sharoitlar yaratilgan. Xuddi shu choyxona vazifasini bajargan maxsus xonada oddiy choydan tashqari, shifobaxsh o'simliklarning ildizi, bargi, mevasi va gulidan damlangan choy va boshqa dorivor suyuqliklar tayyorlangan. Hammomni aynan o'zida giyohlardan tayyorlangan turli xastaliklarga shifo damlamalar savdosi yo'lga qo'yilgan. Anushaxon hammomi o'z davrida shahar aholisiga beminnat xizmat qilgan, uni o'z davrini ixtisoslashgan shifoxonasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hammom qayta ta'mirlanib bugungi kungacha shahar aholisiga uzluksiz xizmat ko'rsatib kelmoqda. Hammomning tashqi va ichki ko'rinishi chet ellik sayyohlarda kun sayin qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Abdullaxon madrasasi

Qutlug' Murod inoq madrasasiga yondosh qilib, 1855-yilda qurilgan ushbu madrasa Xiva xoni Abdullaxon (1855-1855) sharafiga uning o'limidan keyin onasi tomonidan qurilgan. Madrasa peshtoqini hisobga olmaganida, madrasaga bezak berilmagan, juda sodda uslubda qurilgan bo'lib, darsxona va unga yondosh bir qavatli hujralar qatorasiga joylashgan, madrasa o'rtasida quduq bor. Ustozimiz Komiljon Xudoyberganovning "Xiva xonlari shajarasi" risolasining Abdullaxonga bag'ishlangan mavzusida xon to'g'risida shunday fikr bildiriladi:- "Abdullaxon har kimlar so'ziga kiruvchan bo'lib, Mir Ahmadning so'zi bilan bir necha begunohni nohaq qonini to'kdi. U shoshma-shoshar, besabr kishi edi. Lekin do'stlashishni, odillikni sevar, jasur va bahodir ham edi. Undan o'g'il farzand qolmadi, bir qizi bo'lib, Abdullaziz to'raga nasib etdi. Abdullaxon vafotidan keyin uning onasi, o'g'lini nomini saqlash maqsadida bir madrasa bino qildirdi". Hozirgi vaqtda madrasada "Tabiat muzeyi" ekspozitsiyasi joylashgan.

Ichkan qal'adan tashqarida joylashgan durdonalar

Sayid Niyoz Sholikorboy masjidi majmuasi

Sayid Niyoz Sholikorboyning nevarasi Poshsha ona bobosi to'g'risida akasi (dadasi) Xudaybergan otaning so'zlab berganlarini shunday eslaydi:- "Bobomiz Sayid Niyoz Sholikorni sholi oqlovchi (dapmachi) deb ataganlar. Uning otasi boy savdogar bo'lib, vafot qilganidan keyin butun boyligi Sayid Niyozga qoladi. U o'z ishxonasini yanada kengaytiradi. Kunlardan bir kuni Sayid Niyoz buxorolik savdogar do'sti Eshmatboy bilan tuyalarga turli yuklarni

ortib savdo ishi bilan Eronga ketadi. Ishi o'ngidan kelib olib borgan mollarni tez fursatda sotadilar va u yerda do'st orttirib, biror oylar qolib ketadilar. Bor pullarini do'stlar bilan yeb-ichib o'ynab tamom qilib qo'yadilar. Chunki u qo'li ochiq, saxiy kishi bo'lganligi sababli do'stlar davrasidan voz kecha olmas edi. Uyga qaytar vaqt yaqinlashganda do'sti Eshmatboy:-“ Endi nima qilamiz bu yog'i qanday bo'ladi? – deganda Sayid Niyoz: – hoziroq bozorga borib yonimizda qolgan sarmoya (pul) mizga yarasha yuk olib tuyalarga yuklab yurtga ketamiz, - debdi. Bozorga borishgach yaxshi mollarni sotib olishga pullari yetmabdi. Shu sababli bozorni aylanib-aylanib bir burchakda o'zi yosh bo'lsa-da, kekxa chollarday bukchaygan soqolmo'yovlari o'sib ketgan juldur kiyim kiygan saqich sotib o'tirgan bir yigit oldidan chiqib qoladilar. Bizlarni qolgan pulimizga mum saqichdan boshqa biror narsa olib bo'lmaydi, oldimizda (iyd) bayram kunlari yaqin qoldi. Savdosi ham yaxshi bo'ladi, deb yigitdan hamma mum saqich (oq saqich)larni sotib oldilar. Sevinganlaridan savdodan ortib qolgan bir oz pullarini ham yigitga hadya qilib, yukni tuyalariga yuklab Eshmatboy Buxoroga, Sayid Niyoz esa Xivaga kelishibdi, Xivada Sayid Niyoz bir bo'lak saqichni maydalabdi. Ne ko'z bilan ko'rsaki, saqich ichidan tillo pullar, marvarid va javohirlar chiqibdi. Sayid Niyoz har ehtimolga qarshi deb boylikning yarmini ma'lum joyga berkitib xotiniga agarda men qaytib kelmasam shu xazina yetti avlodimizga yetadi deb qolganini beliga tuyib xon oldiga ketadi. Ijzat olib qabuliga kiradi. Agar farmoni oliy bo'lsa halol puldan masjid qurdirishga ruxsat bersangiz, - deydi. Sayid Niyoz Sholikor olib kelgan boyliklarni xon oldiga qo'yib, bo'lgan voqeani bayon qiladi. Xon chuqur o'yga toladi. Masjid qurish uchun ruxsat, lekin egasiga ham o'z ulushini yubor, - degan. Shunday qilib Polvon darvozaning sharqiy tomonida masjid qurilishi boshlab yuborilibdi. Bu masjid qurilishda faqat bitta usta ishlab qolgan ishlarni bolalar qilgan, degan gaplar bor xalq orasida. Har bir bolaga bitta olib kelgan g'isht uchun bitta yong'oq berilgan. Har kuni ko'proq yong'oq olish uchun bolalar yugurib-elib masjid qurilishini tezlashtirganlar. Masjid qurilib nomozxonlar namoz o'qiy boshlaganlar. Iyd bayrami kuni xon yaqinlari bilan iyd namozini o'qish uchun Ichan qal'adan tashqaridagi namozgohga borayotib masjid oldida ta'zim qilib turgan Sayid Niyoz

Sholikorga “Madrasa muborak” deb oʻtib ketibdi. Sayid Niyoz, “xon nima uchun bunday dedilar” deb taajjubda qoladi. Soʻngra xonni aytgan soʻzi havoda qolmasin deb masjidning sharq tomonida madrasa qurilishini boshlab yuboradi”. Masjidning uch tomonida uchta eshik boʻlib masjidga shimol tomondagi asosiy eshikdan ayvon orqali kiriladi. Ayvonda uchta ustun bor. Ularda yogʻoch oʻymakorligining eng yaxshi anʼanalari aks ettirilgan. Ayvon devorlariga ganch oʻyma usulida figurali pannolar ishlangan. Minorasi shaharning hamma yeridan koʻrinib turadi. Minoraning yuqorisiga chiqish uchun ichida aylanma zinasi bor. U juda ixcham va bezaklarga boy. Tepasiga karniz sharafasining ostiga mezana ishlangan. Madrasa ikki qavatli boʻlib, birinchi qavatida beshta hujra bor. Ikkinchi qavatida oltita hujra boʻlib shimol tomonga qaragan, bitta ayvon bor. Masjidning qurilishi Xiva xoni Olloqulixon davriga toʻgʻri keladi. Masjid qurilishida meʼmor oldiga qoʻyiladigan talablar quyidagilardan iborat edi:- koʻp odam sigʻadigan usti yopiq joy, hovlining ichki tarafida musulmonlar salqinlansa boʻladigan maydonchalar. Sayid Sholikorboy masjidi majmuasida ham xuddi shunday. Bino toʻqqiz gumbazli, toʻrt tomonli masjid, ikki qavatli madrasa, minora va ikkita hovlidan iborat. Shimoliy-sharqiy tomonda esa ikki qavatli madrasa qurilgan. Bu madrasa va kirish qismidagi hovlida minora joylashgan. Balandligi 24 m, asosini diametri 4.5 metr boʻlib, pishiq gʻishtdan qurilgan. Hozirgi vaqtda minora ozgina qiyshaygan boʻlib, Xorazm Maʼmun akademiyasi olimlari tomonidan asl holiga qaytarish boʻyicha amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Rahimqulixon madrasasi

Madrasa Xivada 1843-1845-yillarda xonlik qilgan Rahimqulixon tomonidan Deshon kalʼada, Polvon darvoza oldidagi Sayid Niyoz Sholikorboy madrasasi va masjidi qarshisida qurilgan. Madrasa inqilobdan keyin buzilib ketib, hozirgi vaqtda bozor hududiga qoʻshilib ketgan, madrasaning tashqi koʻrinishi eski fotosuratlarda old tomoni ikki qavatli, peshtoqi baland yon tomonlarida ikki guldastasi bor, madrasani ichki tomoni bir qavatli, trapetsiyasimon qilib qurilgan. Darsxona, masjid, kutubxona qismi balxiy tipda bostirilgan, peshtoqi

moviy, oq koshinlar bilan bezatilgan. Lekin bu madrasa to'g'risida isbot talab qiladigan ba'zi bir fikrlar hozirda dolzarbdir. Masalan: Ichan qal'adagi Tabiat muzeyi joylashgan madrasani olimlar hozirgi kunlarimizgacha Abdullaxon (1855-yilda 6 oy xonlik qilgan) nomini abadiylashtirish uchun onasi tomonidan qurilgan deb o'z risolalarida yozishadi. Bu Sayid Sholikarboy masjidiga ko'sh qilib qurilgan madrasa Sho'rolar davrida yiqilib ketgan. Rahimqulixonning Iso to'ra ismli o'g'li bo'lgan, u ma'lum muddat Toshhovuz shahrida hokim bo'lgan va o'z nomiga Pahlavon Mahmud maqbarasi yaqinida "Mozori Sharif" nomli kichik bir madrasa qurdirgan. Bu to'g'rida el o'rtasida shunday bir rivoyat yuradi. Emishki, Iso to'ra haj safariga borayotib Istambul shahrida kasallanib qoladi, uni kajavaga o'tqazib hajga oborib kelishadi, yurtiga kelib bo'lib o'tgan voqealarni xonga aytadi. Muhammad Rahimxon soniy Iso to'raga hajga riyozat chekib borishadi deydi. Bir oz vaqt o'tib Iso to'ra yaxshi tayyorgarlik ko'rib, yana haj safariga o'tlanadi. Hajdan qaytishda Iso to'ra Mozori Sharif shahrida kasallanib qoladi, kasaldan turgan shahzoda Xivaga kelib ushbu shahar sharafiga o'z avlodi uchun kichik bir madrasa qurdirgan.

Polvon qori madrasasi va minorasi

Madrasa va minora 1905-yilda ixcham va yangicha uslubda qurilgan. U yirik xivalik savdogar Polvon qori tomonidan qurilgan bo'lib, minora XX asr boshlaridagi yangi uslub bo'yicha, ya'ni kesik konus shaklida Yevropa uslubidagi madrasasi bilan birgalikda qurilgan. Bu Deshon qal'adagi eng monumental inshootdir. U sharqdan g'arbga cho'zilib kelgan Ichan qal'a madrasa va minoralari silsilasi bilan uzviy bog'liq. Minorani balandligi 21 metr.

Obdorbobo majmuasi va minorasi

Dishon qal'aning sharqiy qismida, Polvon darvoza va Qo'y (Hazorasp) darvozalarining o'rtasida ularning yo'llari kelib tutashgan joyda qad ko'tarib turibdi. Obdorbobo majmuasi uncha katta bo'lmagan, shahar tashqarisidagi mozoriston tomonga cho'zilib ketgan. Uning yonida qadimda qullar bozori bo'lgan. Majmua tarkibiga yana

XIX asrda qurilgan minorali yirik mahalla masjidi va hovuz kirgan. Majmuaga ko'rk berib turgan minora ixcham bo'lishiga qaramay, ko'rinishi g'oyat ko'rkam, yo'g'on qaddi keskin ravishda noziklashib boradi. Minoraga uning tepasidagi jimjimador sharafa alohida ko'rk bag'ishlab turadi. Balandligi-10 m, poydevor diametri-3,2 m.

To'rt Shabboz bobo majmuasi

To'rt Shabboz bobo majmuasi Xiva shahrining shimoliy g'arbiy qismida Deshon qal'aning Mevaston mahallasida joylashgan. Majmua tarkibida bitta hovuz, minora, masjid va madrasa hamda go'rxona va bir talay qabrlar mavjud. Majmua o'z davrida To'rt Shabboz bobo maqbarasi deb nomlangan. Quyida biz ularning nomlarini keltiramiz.

Qutbil avliyo - Xasanquli Azizon.

Qozi Muhammad Azizon.

Jon Muhammad Azizon.

Isfandiyorxon ibn Arab Muhammadxon.

Shularning ichidan biz sizga Isfandiyorxon ibn Arab Muhammadxon to'g'risida ma'lumot beramiz: - "Arab Muhammadxonning yetti o'g'li bor edi: - Isfandiyorxon, Habash Sulton, Elbars Sulton, Abulg'ozixon, Sharif Muhammad Sulton, Xorazmshoh Sulton, Avg'on Sulton. Habash bilan Elbars Sultonning onasi nayman qabilasi boshlig'ini qizi edi. Ular Xivada ulg'aydilar, Avg'on Sultonning onasi Abulxayrxon avlodidan edi. Isfandiyorxon va Abulg'ozixon bir onadan tug'ilgan edilar. Bu davrda Xiva xonligida shavqatsiz qabilalararo urishlar avj olgan edi, bunga nafaqat xon oilasi balki xonlik aholisining keng qatlami jalb qilingan bo'lib, o'zbek va turkmanlar o'rtasidagi urush Abulg'ozixon davrigacha davom qildi. Arabxonning o'g'illari bu urishda bevosita ishtirok etdilar. Uning 4 o'g'li, Isfandiyor va Abulg'ozi bir tomonda, Habash va Elbars ikkinchi tomonda turib ochiq kurashga o'tdilar. Bu kurashning sababi Habash sulton bilan Elbars Sulton otasining tutgan yo'liga qarshi chiqib, Eron va Buxoroga bosqinchilik urushlari olib borgani edi. Chunki Arabxon bu davlatlar bilan tinchlik munosabatlari olib borishga harakat qilardi. Habash va Elbars nayman, uyg'ur kabi qudratli ikki qabilaning

boshliqlari qo'llashi bilan otasi va og'a-inilariga qarshi ochiq kurashga o'tdilar. Birinchi marta ular otasiga qarshi chiqqanlarida 1616-yilda Habash Sulton 16 yoshda, Elbars Sulton 14 yoshda edilar. Arabxon bu o'g'illariga Vazir shahrini berdi va bir oz tinchitdi, 5 yilgacha ular otasiga qarshi chiqmadilar.

6-yili Elbars Arabxonning yo'qligidan foydalanib Xivaga kirdi va otasining o'ttiz yil maboynida to'plagan xazinasini va Arabxonga xizmat qiluvchi beklarning mollarini talab qarorgohiga qaytdi. Arab Muhammadxon Hazorasga o'tirgan o'g'li Isfandiyorxon, Urganchdan Abulg'ozi va Sharif Muhammad birgalashib, Elbars ustiga yurdilar, Elbars qochib ketdi. Abulg'ozi otasiga Habash va Elbarslarni o'ldirishni taklif qildi. Lekin otasi bunga ko'nmadi. Isfandiyorxonning navkarlaridan biri buni bilib qoladi va Habashga aytadi. Shunday keyin Habash Abulg'ozining ashaddiy dushmaniga aylanadi. Arabxon Xivaga, Isfandiyorxon Hazorasga qaytgach, Habash Elbarsni tezlikda Vazirga yetib kel deb chaqirtiradi. Abulg'ozi sir ochilgandan voqif bo'lib otasining yoniga boradi. Arabxon unga Katni in'om etadi. Oradan 5 oy o'tgach Arabxon Abulg'ozining maslahatiga quloq solmaganiga pushaymon bo'lib, Isfandiyor va Abulg'ozixonlarning navkarlari bilan Xivaga kelishlarini buyurdi. Sharif Muhammad onasi bilan Urganchda yashar edi, bu voqeadan oldin kelib otasi yonida turgan edi. Arab Muhammadxon, Isfandiyor va Abulg'ozi bir tomonda Elbars va Habash bir tomonda turib, Toshli Yormish soqasi yonida urush bo'lgan. Arab Muhammadxon yengildi va Elbars bilan Habashni qo'lga asir tushdi. Habash Sulton otasining ko'zini o'ydirib Xivaga yubortirdi.

Qit'a: Arabxon kim qilib adli oshkora,
Oning davrida rasm zulm qoldi.
Falak bu vajohdin aylab onga zulm,
Ko'z nuri, ko'zining nurin oldi.

Abulg'ozi Kat orqali Buxoroga qochdi. Isfandiyor Sulton, Sharif Muhammad Sulton va Xorazmshoh Sulton Hazorasp qal'asiga bekindilar. Habash bilan Elbars sulton qo'shinlari Hazorasni qirq kun qamal qilgandan keyin yarashdilar. Isfandiyorga Makkani ziyorat qilish

uchun ruxsat berildi. Sharif Muhammadga Katni berdilar. 12 yoshli Xorazmshoh va 10 yashar Avg'on sultonni Xivaga onalari yoniga yubordilar. Sharif Muhammad 4 oydan keyin Buxoroga Abulg'ozi yoniga qochib bordi. Isfandiyor Makkaga ketdim deb, Eronda shoh Abbos I (1587-1628) yoniga bordi. Bu voqealarning hammasi hijriy 1030, milodiy 1621-yilda voqe bo'ldi. Habash Sulton Urganch va Vazirda, Elbars Sulton Xiva va Hazorasda o'tirdi. Arab Muhammadxon 3 xotini bilan va 2 kichik o'g'illari bilan Vazirdan 6-7 km sharqdagi Qum qal'asida tutqinlikda bo'ldilar. Bir yildan so'ng Elbars Sulton akasi va ittifoqdoshi Habash Sultonga bildirmasdan otasini va ikki kichik inisini Xivaga ko'chirdi. Xivada otasini, Xorazmshoh ismli inisini va Xivadagi Isfandiyni uch yoshlik va bir yarim yoshlik 2 o'g'lini o'ldirdi. Kichik ukasi Avg'on Sultonni Habash Sulton o'ldirsin deb uning yoniga yubordi. Habash Sulton bunda na ayb bor deb, uni rus elchisi I.D.Xoxlov bilan Rossiyaga yubordi. 1622-yil 12-dekabrda Avg'on Sulton Moskvaga keldi va shoh Mixail Feodorovich saroyiga qabul qilindi. Avg'on Rossiyada 26 yil yashagan va 1648-yilda vafot qilgan va Kasimova shahrida dafn etilgan. Arab Muhammadxon ko'r bo'lib Qum qal'asida yashab yurganida bir she'r to'qib aytgan ekan.

Qatiq deb ichganim, ayron ekanin bilmadim,
O'stirgan farzandlarim hayvon ekanin bilmadim,
Qurdigan koshonalarim vayron ekanin bilmadim,
Shoh ekanman deb yursam, gado ekanim bilmadim.

Arabxon davrida markazni Xiva shahriga ko'chirganlar, shu davrdan davlat Xiva xonligi deb yuritila boshlagan. Arabxon Xivada bir madrasa bino qildirgan. U madrasa cho'bkori (Xivada nigirik deyiladi) uslubida qurilgan. Olloqulixon zamonida qaytadan pishiq g'ishtdan tiklangan. Hozir bu madrasada Ichan qal'a muzey davlat qo'riqxonasining asosiy xazinasi joylashgan.

Shoh Abbos I qo'shni bilan do'stona yashashni istab, Isfandiyorga isyonkor inilariga qarshi kurashib hokimyatni qo'lingga ol deb nasihat qilar erdi. Isfandiyor 300 otliq bilan 1622-yilning kuzida Darunga, undan Bolxon tog'lariga keldi. Bu yerda unga taka, sariq va

yovmutlardan 80 kishi ko'shildi. Bular bilan Isfandiyor kechasi Habash Sultonni uyiga bostirib kirdi. Lekin Habash Sulton uyida yo'q edi. U bir navkarining uyida mehmonda edi, qochib Elbars Sulton yoniga bordi va ikkalasi qo'shilib Isfandiyor ustiga yurdilar. Isfandiyor shikast topib Mang'ishloqqa bordi va u yerda turkmanlardan 3 ming navkar to'plab, yana Urganchga bordi.

Habash va Elbarsdan norozi bo'lib yurgan o'zbeklar Isfandiyor tomonga o'tdilar. Habash va Elbars bu safar yengildi. Elbars asir olindi va o'ldirildi. Habash Sirdaryo bo'yidagi qoraqolpoqlar ichiga qochib ketdi, bu yerda ham tura olmay Emba daryosi bo'yidagi mang'itlar yoniga bordi. Mang'itlar uni tutib Isfandiyor yoniga keltirdilar. Isfandiyor uni Elbarsni izidan yubordi. Habash va Elbarsdan farzand qolmadi. Buxoroda Imomqulixon huzurida panoh topgan Abulg'ozini inisi Sharif Muhammad Isfandiyorni g'alaba qozonganini eshitib, Urganchga keldilar. Isfandiyorni hijriy 1032, milodiy 1623-yilda Xorazmning xoni qilib ko'tardilar. Isfandiyor Xiva, Hazoras va Katda, Abulg'ozini Urganchda, Sharif Muhammad Vazirda o'tirdi. Isfandiyorxon uyg'ur va naymanlar Arab Muhammadxonning qatliga sa'y etganlari uchun ularga qatli om buyurdi. Turkmanlar bilan do'st tutindi. Bu sababdan o'zga o'zbeklar buzilib, Movarounnahr, Mang'it va qozoqqa ketdilar. Abulg'ozixon va Sharif Muhammadxon o'zbeklar tarafida edilar. 1624-25-yil qishida bo'lib o'tgan urush o'zbeklar bilan turkmanlar o'rtasidagi urush edi deb yozadi Abulg'ozini. Isfandiyor butun faoliyati davomida turkmanlarga tayandi. Shuning uchun ham xon bo'lganidan keyin turkmanlarni yonini oldi. Abulg'ozini va Sharif Muhammad bu harakatlardan o'zlari uchun aniq xavfni sezdi. Isfandiyorxonning o'zbeklarga bo'lgan fikrini o'zgartirishga qarata bo'lgan Abulg'ozining har qanday harakati zoe ketardi. 1627-yilda Isfandiyorxon o'zbeklarga bergan zarbasidan keyin Abulg'ozixon qozoqlar yoniga qochib ketdi va Eshimxon tomonidan qabul qilindi. Bu yerdan Buxoroga o'tib Imomqulixon yoniga bordi. Muhammad Sharif ham shu yerda edi. bir necha muddat o'tgach xivalik turkmanlar Abulg'oziga odam yuborib "begonalar yurtida yurmang, biz yonga keling" dedilar. Abulg'ozini keldi, Isfandiyor turkmanlarni bir qismi bilan kelishmay Hazorasga ko'chdi. Oradan 2 oy o'tgach Sharif Muhammad ham Hazorasga keldi va Isfandiyorxon bilan birlashdi.

Isfandiyor oxir bir bahona topdi. “Xuroson isyoni” bo’lib o’tgach, Eron bilan Isfandiyorxonning munosabati buzildi. Bunga Abulg’ozi sababchi deb uni Eron shohiga garovga yubordi. Bu voqea 1630-yilda voqea bo’ldi. Isfandiyorxon 19 yil xon bo’lib, hijriy 1052, milodiy 1642-yilda vafot etdi. Undan Yushan va Ashraf ismli ikki o’g’il va bir qiz yodgor qoldi. Buxoroning yangi xoni Nodir Muhammadning buyrug’i bilan Isfandiyorxonning qizi va ikkala o’g’li Qarshiga ko’chirildi. Isfandiyorxon oqil va odil podshoh edi. Xivaning Mevaston mahallasidagi qabristonga dafn etildi. Hozir bu qabriston To’rt Shahboz deyiladi.

Isfandiyorxonning qabri ustiga qo’yilgan to’rtburchak marmarga nihoyatda chiroyli o’simliksimon naqshlar o’yilgan va suls xati uslubida arab va fors tillarida yozuvlar bitilgan. Qabr toshining bir tomoniga “Nur Muhammad Sulton Isfandiyorxon” so’zlari, yana bir tomoniga arab tilida vafot etgan sanasi yozilgan. Qolgan ikki tomonida fors tilida she’r bitilgan, hozirda bu qabrtosh Muhammad Rahimxon madrasasida joylashgan “Xiva xonligi tarixi” muzeyida xalqqa namoyish qilinmoqda.

Asta sekinlik bilan majmua kengayib, XVII asrda balandligi 12 metrlik minora qurilgan, minora va boshqa inshootlar XIX asr o’rtalarida va 1996-yilda ta’mirlangan.

Nurullaboy saroyi

Xiva xonlari XVI asrdan XX asrgacha bir qancha saroylar, qabulxonalar, haramlar qurdirib, o’zlarining nimalarga qodir ekanliklarni go’yo avlodlarga ta’kidlab ko’rsatayotganday tuyuladi.

Xivadagi Nurullaboy saroyi eng hashamatli, eng jozibali, eng ko’rkam va maftunkorligi bilan boshqa saroylardan ajralib turadi. Ichanqal’ada imoratlar soni ko’payib, yangi - yangi bog’-rog’li joylar qurish imkoni kamaygach, Muhammad Rahimxon I o’z o’g’illari Mahmud to’ra, Muhammad to’ralarga shaharning g’arbiy tomonidan hovli joylar qurib beradi. Sayid Muhammad to’ra xon bo’lgach, (1856) esa bu uylarga yaqin joyda bir ko’rinishxona qurilishini vaziri Xasanmurod Qushbegiga topshiradi. Bayoniy va Ogahiy larnig yozishicha “Nurullaboy” nomi bilan mashhur bog’dagi yangi

imoratlarning kunchiqar tomonida qurilgan bu ko'rinishxona juda chiroyli bo'lib, unga Ogahiy Shunday tarix aytgan: - "Ko'rinishxona u valo" (ulug' ko'rinishxona) ushbu so'zlardan abjad hisobi bo'yicha hijriy 1276, milodiy 1859-yillar topildi. O'z davrida ko'rinishxonada yoz paytida ochiq havoda qabul marosimlari o'tkazilgan. Sayid Muhammadxondan keyin taxtga ko'tarilgan o'g'li Muhammad Rahimxon II (1864-1910) xivalik savdogar boy Nurullaboydan bog'ini sotishni so'raydi. Shunda Nurullaboy xonga, u avvaldan xalq o'rtasida bo'lib kelgan "Nurullaboy bog'i" nomini o'zgartirmasa sotishini aytadi. Xon rozilik bildiradi va bog'ni sotib oladi.

Shunday qilib "Nurullaboy" nomi saqlanib qoladi. Muhammad Rahimxon II Nurullaboy bog'i ichida o'g'li Isfandiyorxon uchun katta bir saroy va haram (haram-xos joy, nomahramlar kiritilmaydigan joy, ichki hovli) qurdiradi.



Bu ichki saroy 1896-1904-yillarda qurilgan bo'lib, baland devor bilan o'rab olingan. Saroy to'rtta qismdan iborat bo'lib, yuzdan ziyod xonalar, dolonxona, qarovulxona, otxona, mulozimlar turadigan xonalar va haramdan (beshinchi hovli) iborat bo'lgan. Saroyga janub tomonda qurilgan maxsus darvoza orqali kirilgan. Darvoza ichkarisida xon mahkamasi, shaxsiy qo'riqchilar uchun xonalar, devonxona


bunyod qilingan. Saroydagi Isfandiyor to'ra uchun mo'ljallangan xonalarga Rossiyadan keltirilgan chinni pechkalar o'rnatilgan. Feruz vafotidan so'ng taxtga chiqqan Isfandiyorxon (1910-1918) o'zi uchun yangi uslubdagi Nurullaboy saroyini qurdirib, bu bog'dagi qurilishlarga nuqta qo'yadi. Yangi qurilgan qabulxona chet ellik (rossiyalik) mehmonlarni qabul qilish maqsadida qurilgan. Bosh vazir Islom Xo'ja Isfandiyorning qabulxona qurishiga qarshi chiqadi. Chunki, pochta-telegraf va kasalxona qurilishi kechikayotgan, xazinada pul kam edi. Ammo, xonning qat'iy farmonidan keyin shogirdi Rahimbergan mahramni sohibkor (qurilish boshlig'i) qilib tayinlaydi. Qabulxona 1911-13-yillarda qurilgan, tibbiyot fanlari doktori, professor A.A.Abdullayevning "Xorazmda tibbiyot" asarida shunday jumla bor:- "Islom Xo'ja yana Moskvaga borib, shaharning boshlig'i N.I.Puchkov qabulida bo'ladi. Moskva shahrining boshlig'i uni moskvalik arxitektor A.M.Ropa bilan tanishtiradi". A.M.Ropa boshchiligidagi arxitektorlar Xivada bo'lishib kasalxona, telegraf va aloqa, elchilarni qabul qilish uchun mehmonxona loyihasini maslahatlashib ketishadi. Tez orada loyiha tayyorlanib qurilish boshlab yuboriladi. 1911-1913-yillarda qurilgan bu qabulxona qurilish uchun alohida pishgan g'ishtlar tayyorlangan. G'ishtning loyi shahar yonidagi Avaz dunak qishlog'idan keltirilib, maxsus ishlangandan keyin 4 ta xumbuzda pishirilgan. G'isht pishirish va terish (kladka)da ustalaridan Bobojon xumbuz, Matyoz bola, Xasan pirsiyon, Quryoz Bobojon va boshqalar ishlashgan. Saroyning tomi yupqa temir listlar bilan soyabon (uch burchak) shaklida bostirilgan. Saroy yetti xonadan iborat bo'lib, eshik, deraza va parket pollarini oqmachitlik nemis ustalari tuzatishgan (Oqmachit Xivadan 15 km sharqda joylashgan qishloqning nomi) Qabulxona xonalari ichki bezaklari bilan bir biridan farq qiladi. Devor va shiftdagi ganch o'yima ishlarini Ro'zmat arbob Masharipov, Nurmat usta, Xudoybergan Hoji, Quryoz Bobojonov va boshqalar bajarishgan. Ganchdan naqsh o'yilgan devorlarga Vaisyoz Matkarimov boshchiligidagi moy bo'yoqlar bilan rang berilgan. Shiftlardagi Yevropa usulida yasalgan gullar va farishtalar rasmini rus rassomlari yasashgan. Musulmon dinida ruxsat etilmagan bunday farishtalar rasmini yasashga xonning vaziri akbari, qaynotasi Islom Xo'ja ruxsat etgan. Islom Xo'ja zamonasining o'qimishli, ilg'or fikrli kishisi bo'lgan.

Mehmonxonaning ikkinchi xonasi ziyofat uchun ajratilgan bo'lib o'lchamlari 8x14 m, balandligi 6 m, to'rtinchi xonada xonning qabulxonasi joylashgan bo'lib, bu yerda har xil shartnomalar imzolangan. Sakkiz burchakli yumalok zal deb yuritilgan bu xonaning o'lchamlari 10 m, balandligi yetti metrdir. Xon davrida bu xonaning har burchagida bittadan 1,5 x 3 metrli ko'zgu qo'yilgan. Bu xonaning shifti yog'ochdan ishlangan bo'lib, nihoyatda ustalik bilan nafis geometrik shakllar yasalgan va oltin suvi berib ishlangan. Shiftni bezashda xivalik ustalardan Bobojon Qalandar, Masharip Qalandar, Vaisyoz Matkarimov va boshqalar mahorat ko'rsatishgan, shiftning pastidan devorlarga o'rnatilgan to'lqinsimon karnizlar Rossiyadan maxsus qog'ozlarga o'ralib keltirilgan. Oltinchi xona shiftini o'rtasiga ganch o'ymakorligi ustalari tomonidan musulmonlar simvoli-yarim oy va yulduzlar naqshi tushirilgan, yana rus ustalari bu xona shifting to'rt tomoniga bittadan farishtalar rasmini moy bo'yoqlar bilan yasashgan. Buning natijasida bir xonaning o'zida ham musulmon, ham xristian diniga mansub belgilar paydo bo'lgan. Mehmonxonaning yettinchi xonasi shiftiga tovus patining gullari chiroyli qilib yasalgan va har xil rangdagi qimmatbaho toshlar o'rnatilgan. Devorlaridagi ganch o'yma naqshi juda nafis qilib ishlangan va bronza rang bilan bo'yalgan. Xon saroyini qish kunlarida qizdirilishi uchun Rossiyadan yettita chinni (fayans) pechka keltirilgan. Bu pechkalar yakka plitkalardan iborat bo'lib, ularni rus ustalari qurib berganlar. Pechkalar saksovul bilan qizdirilgan. Xiva xonligida yana bir yangilik, mehmonxona uchun elektr qandillarining keltirilishi bilan qandillar katta va og'ir bo'lganligi sababli, saroy tomida mahsus yog'och qurilmalar ishlangan. Ana shu piramidasimon qurilmalarga qandillar osib qo'yilgan. Qandillardagi elektr lampochkalarni yoqish uchun Xivaga o'n olti ot kuchiga ega bo'lgan kichkina dvigitel keltirilgan. Xivada birinchi marta elektr lampochkasini Volga bo'yidagi Sizan shahridan chaqirilgan Muso Sabanovich Yangio'razov yoqqan. Qabulxona qurilishi uchun xazinadan 70 ming tillo (126 ming so'm) xarajat qilingan. Binoda inqilobdan keyin hukumat uyi, boshqaruv organlari joylashgan. Keyingi davrlarda Maorif uyi va muzey binosi sifatida foydalanilgan, hozirgi kunlarimizda saroy qayta ta'mirlanib, asl holiga keltirilgan.

XX asr boshlariga kelib, shaharda yana bir qator jamoat binolari qurilgan, shular ichida 1912-yili Oqyop kanali yoqasida Rossiya imperatori Nikolay II ning o'g'li shahzoda Aleksey sharafiga qurilgan kasalxonadir. Bu hakda bino peshtoqiga shunday so'zlar bitilgan:- "Sayid Isfandiyor Bahodirxondan shahzoda Alekseyga 1912-yil". Bitik arab yozuvidagi turkiy tilda va eski slavyan yozuvida yozilib kasalxonaning oldingi ikkita peshtoqi oralig'idagi oynavand peshtoq tepasiga muhrlangan. Kasalxonada dastlab xon va uning yaqin kishilarini davolashgan, keyin xalqqa ham ruhsat qilishgan. Bu kasalxonada dastlab bitta shifokor ish boshlagan, keyinchalik ularni soni oshirilgan va bir yo'la ellik nafar bemorga xizmat ko'rsatilgan.

Bu kasalxonada hozirgi kunlarimizgacha el sevgan shifokorlar xalqqa beminnat xizmat qilmoqdalar.

Birinchi Xiva kasalxonasining ochilishi (1912 yil)



1913-yilda shifoxona qarshisida pochta-telegraf binosi qurildi va Markaziy Osiyo shaharlarini bir-biriga bog'lovchi aloqa yo'lga qo'yildi. Hozir bu binoda aloqa muzeyi tashkil qilingan. Binoni qurilishida xivalik ustalar: - Quryazov Bobojon o'g'li, Bobojon Qalandar o'g'li, Ota Shixov (Otamas), Ismoil Abdiyaz o'g'li,

Xudargan Xo'ja o'g'li, Ro'zmat arbob Masharip o'g'li va Sodiq xo'ja Matkarim o'g'li qatnashgan.

Sayid Mohi ro'yi jahon majmuasi

Xiva shahrining shimoliy qismida joylashgan Sayid A'loaddin xo'ja eshon nomli (shu bugungi kunlarimizgacha Chodirli eshon deb nomlangan) ko'hna qabriston yaqinida Sirchali ariq bo'yida Qalandarxona yonida qo'ng'iroq sulolasi vakillarining bir talay qabrlari, shu qabrlarga atab qurilgan mahsura, maqbara, madrasa va masjidlar bugungi kunlarimizgacha o'z ulug'vorligini yo'qotmay shahrimizga ko'rk bag'ishlab turibdi. Ushbu ulug' maskanda Xiva xonlaridan Eltuzarxon (1804-1806) va uning yaqinlari, Rahimqulixon ibn Olloqulixon (1842-1845), Muhammad Aminxon (1845-1855) va inisi Muso to'ra, Sayid Muhammadxon (1855-1864), Muhammad Rahimxon Soniy (1864-1910) va nevarasi Temurg'oz to'ra ibn Isfandiyorxon hamda xon oilasiga mansub o'ttizdan ziyod inoqlar, to'ralar, sayidlar va Muhammad Rahimxon soniyning tog'asi Ibrohimxo'ja (1889-y.da v.e.) va uning o'g'li vaziri akbar Islomxo'ja (1872-1913) yaqinlari bilan, shoir va tarixchi Muhammad Yusufbek Bayoniy (1840-1926) o'z qarindoshlari bilan abadiyat uyqusida barhayot yotishibdi.

Ushbu maskan to'g'risida Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogohiy (1809-1874) Muhammad Aminxonga bag'ishlangan "Jomeal-voqeoti sultoniy" asarida shunday ma'lumot beradi:- "Muarrix Muhammad Aminxon 1855-yilda urushda o'lgandan keyingi voqealar to'g'risida to'xtalib. Ul voqeari hayratangiz va hodisai kulfatomuz vuqu'idin besh-olti kun so'ng Oxal takasidin bir jamoakim, xizmatkorlig' va hovoxohlik jodasin masluk tutar erdilar, peshbinlik yuzidin ixlosmandlik ayon qilib, izhori xizmat qilmoq uchun podshohi sayid shahidning va shahzodai mag'furi marhum Muso to'raning humoyun jasadlarini qatlgohlarida muzallat tufrog'idin olib, izzat mahfasig'a soldilar. Abdulla mahram va Erniyoz mahramning dog'i o'liklarin tevalarga yuklab, sur'ati tamom bila Saraxsdan Xorazm jonibig'a tavajjuh ko'rgizdilar. Xivaning Gandimiyon qishlog'idagi Muso to'raning hovlisida xon va shahzodani mayitlarini

yuvib, kafanlab ota urug'larini so'nggi oshyoni bo'lmish, qudvatulatqiyohazratii sayyidi A'loaddin xo'jayalayhirahmaning javori fayzosorida Imorat mavze'idakim, aboang'an jada xoni, mag'firatpanohning marqadu qabrgohidur, eltib dafn qildilar".

Muhammad Yusufbek Bayoniy o'zining "Shajarai Xorazmshohiy" asarida Sayid Muhammadxon vafoti to'g'risida to'xtalib "Sayid Muhammadxon hazrati qutb avliyo shamsil atqiyoh Olavuddin xo'jayeshon alayhi rahmaning javori fayz osorlarida Imorat mavze'ida, o'zlarining qubbai oliylarida madfun bo'ldilar" – deb yozadi. Muhammad Rahimxon soniy 1884-yilda ona tomondan qarindoshchiligi bo'lgan shabbozlik avliyo Sayyid Muhammad Mohiro'yi jahon nomiga va o'zi uchun otasi Sayid Muhammadxon qabriga yaqin joyda hashamatli bir maqbara qurdirgan. Hozir bu joyda bir xonada Sayyid Muhammad Mohiro'yi jahon, ikkinchi katta gumbazli xonada Sayid Muhammadxon, Muhammad Rahimxon Soniy, Temurg'oziy to'ralarni qabrlari bor.

Muzey fondida, 1920-yilda XXShJning Markaziy Ijroiya qo'mitasining maxsus qaroriga ko'ra tajribali muhandis Matkarim (naqqosh) Ne'matullayev tomonidan chizilgan Xiva shahrining bosh rejasi saqlanmoqda. Bu reja juda mukammal bo'lib, tarixiy-topografik va etnografik tadqiqodlarga suyangan holda ishlangan.

Unda bayon qilinishicha Xiva shahri va atrofida shu davrda quyidagi binolar bo'lgan.

1. Xivada 65 ta madrasa bo'lib, ularning 54 tasi shaharda, 11 tasi shahar atrofida joylashgan.
2. Xivada 79 ta masjid bo'lib ularning 64 tasi shaharda 15 tasi shahar atrofida joylashgan.
3. Xivada 141 ta qorixona va 57 ta mahsuralarda jami 340 nafar qorilar bo'lib, ular yiliga 5643 ming botmon (16-kg) g'alla va 4430 tillo pul xizmat haqi olishgan, jumladan, Sayid Mohi ro'yi jahon majmuasida 74 ta qori bo'lgan.

Shundan ko'rinib turibdiki, Sayid Mohi ro'yi jahon majmuasi o'z davrining mahobatli inshoatlaridan biri bo'lgan, hozirgi kunlarimizda ushbu aziz maskan ta'mirlanmoqda va kelajakda mahalliy va chet ellik sayyohlarning qadam ranjida qilidigan aziz joyiga aylanadi.

Shayx Mavlon bobo majmuasi

Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida XIX asrda qurilgan bo'lib masjid, qabriston va minora majmuasidan iborat. Ushbu yerdagi qabristonda Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning qabri bor. Maqbara 1989-1999-yillarda ta'mirlangan, sahni 120 kv metr, balandligi 11 metr. Majmua 1999-yilda Ogahiyning 190 yillik to'yi arafasida qayta ta'mirlangan.

Shermuhammad Munis Xorazimiy (1778-1829) iste'dodli shoir, hassos san'atkor, hushxat hattot, mohir tarjimon, tarixchi, olim, jonkuyar ma'rifatparvar va xalqparvar madaniyat arbobi, o'tkir siyosatdon. U hayotda juda yaxshi Mirob, undan "Munis-ul ushshoq" ("Oshiqlar do'sti") nomli devoni hamda marifatparvar pedagog sifatida "Savodi ta'lim" asari va "Firdavs-ul iqbol" nomli asarlar me'ros qolgan, tarjimon sifatida Mirxondning "Ravzat-us-safo" ("Sof havo bog'i") asarini tarjima qilgan.

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy (1879-1874) XIX asr adabiyotining ko'zga ko'ringan buyuk vakillaridan biridir. U Munisning jiyani bo'lib, Munis qo'lida tarbiyalangan. Ogahiy yetuk olim va shoir, tarjimon va tarixchi, Munisdan keyin xonlikni mirobi bo'lgan. Ogahiy jahon adabiyoti, madaniyatining nodir durdonalari sanalgan yigirmadan ortiq asarlarni o'zbek tiliga o'girib tarjimashunoslik maktabini yaratgan. U 1844-yilda "Riyoz ud-davla" (1825-1842), 1846-yilda "Zubdat ut-tavorix" (1843-1846), 1856-yilda "Jome'-ul voqeoti Sultoniy" (1846-1855), 1865-yilda "Gulshani davlat" (1856-1865), 1873-yilda "Shohidi iqbol" (1865-1873) tarixiy asarlarini yozgan. "Shohidi iqbol" 1873-yil voqealarini yozish bilan uzilib qolgan, ayrim sahifalarida suv dog'lari bor, Qo'qon qog'oziga yozilgan, sarlavhalari qizil siyoh bilan yozilgan, qizil charm muqovada, ko'chiruvchining ismi va yili ko'rsatilmagan, 227-varaq, 14-25 sm o'lchamda. Asarda Xorazm tarixi emas, Buxoro amirligi va Qo'qon xonlarini Rossiya bilan olib borgan urushlari, bitimlari hamda uning oqibatlari mukammal ravishda yoritilgan.

Ogahiy tarixga oid asarlar yaratib Munisning bu sohadagi an'analari ham yanada rivojlantiradi va yuksaklikka ko'taradi.

Munis va Ogahiy hamkorlikda yozgan “Firdavs-ul- iqbol”, o‘zining Xorazm tarixiga oid beshta asari faqat o‘zbek xalqining tarixini o‘rganish jihatdan ahamiyatli bo‘lib qolmasdan, balki qardosh tojik, qozoq, turkman, qoraqalpoq, rus, eron, afg‘on xalqlarining tarixi, madaniyati, san‘ati, urf-odatlari, psixologiyasi, etnogenezi, turmush tarzi kabilarni o‘rganishda boy manba hisoblanadi. Shunisi xarakterliki, bu asarlar iste’dodli shoir, taraqqiyparvar adiblar Munis, Ogahiyalar tomonidan yozilganligi sababli ularda xalqlarning tarixi, hayoti, kundalik mashg‘uloti, masjid, madrasalarning qurilishi, turli hil voqea hodisa bayoni, xalq qo‘zg‘olonlari, urushlar tarixi, buyuk kishilar, olimlar, shoirlarning hayoti va faoliyatlari va boshqa ma’lumotlar realistik asosda to‘g‘ri va aniq ifodalab berilgan.

Adib qalamiga mansub 26 asardan hozirgi kunda 4 tasi topilgani yo‘q, uning asarlarini 22 tasidan 16 tasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 11 nusxada saqlanmoqda.

Sankt Peterbugda 10 ta va Dushanbeda 7 ta saqlanadi.

Hozirgi kunda adib asarlarining 22 tasi, 72 ta qo‘lyozma nusxada dunyoning turli fondlarida saqlanmoqda. Uning asarlarini birinchi bo‘lib Armeni Vamberi Sayid Muhammadxon (1855-1864) davrida Xivaga kelgan vaqtida olib ketgan, 1873-yilda A.Kun xon xazinasidan 300 ta nodir kitoblarni olib ketganda Munis va Ogahiyalarni asarlarini ham olib ketgan.

Ogahiyning “Ta’viz-ul-oshiqin” devoni debochasida o‘zi ijod qilgan asarlar va forschadan turkiy tilga tarjima qilgan asarlari ro‘yxati keltirilgan. Afsuski, uning asarlari taqdir taqozasiga ko‘ra turli dargohlarga borib qolgan.

Qibla toza bog‘

Har bir Xiva xoni o‘z davrida dunyoda tengsiz bir saroy yoki ko‘shk qurishga harakat qilgan. Xiva saroylari va qasrlari orasida eng mashhurlaridan biri Muhammad Rahimxon (Feruz) tomonidan 1897-yilda qurilgan Qibla Toza bog‘ saroyidir. Saroy o‘zining kengligi, me’moriy uslubi, Xivaga xos ayvonlarning turli tumanligi, qurilish texnikasining betakrorligi bilan ajralib turadi. Saroy uchta katta kompleksdan iborat: birinchi hovli xon va saroy ahli xizmatkorlar

uchun, ikkinchi hovlida xon va uning oila a'zolari yashaydigan bir necha ayvon, uchinchi hovli-ovro'pacha uslubda qurilgan ayvon va xonalardan iborat. Isfandiyorxon davrining ilk yillarida (1913) qurilgan ushbu uchinchi hovli xuddi 1912-yilda Nurullaboyda qurilgan qabulxonaga o'xshatib qurilgan, lekin bu yerda ustalar ko'proq gireh naqshlarni ishlatganlar. Qadimda saroy o'rtasida hovuz, gulzor mavjud bo'lib, hovuz atrofiga soyasi kishi taniga orom bag'ishlaydigan gujum daraxtlari ekilgan. Saroyning atrofida yozgi va qishgi masjid, madrasa, maktab, otxona, tegirmon bo'lgan. Saroyni gir atrofi bog' bilan o'rab olingan. O'z davrida ushbu saroy yonida Vaziri akbar Islom xo'jani uyi ham, saroy chiroyiga ko'rk qo'shib savlat to'kib turgan. xivalik usta Quronboy Matkarimov va katta usta Botir aka Boltayev boshchiligidagi bir guruh ta'mirchi-rassom va naqqosh ustalar 1990-yillarda ushbu maskanda ta'mirlash ishlarini olib borishgan. Hozirgi kunlarimizda saroy chet ellik mehmonlarning sevib tomosha qiladigan va ovqatlanadigan joyiga aylangan.

“Shaharlar boqiydir, umr o'tkinchi, daryolar sobitdir, suvlar ko'chkinchi” deb yozgan shoir Maqsud Shayxzoda. Ha, haqiqatdan ham o'zining qadimiy tarixiga ega Xiva shahri, uning mehnatkashlari haqiqiy baxtga, ro'shnolikka faqat istiqlol sharofati natijasida erishdilar.

Xulosa qilib aytganda, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan osori atiqalarni ko'z qorachig'iday asrab, ularni keyingi avlodlarga yetkazish bizning asosiy maqsadimizdir.

Shahrimizga xush kelibsiz aziz mehmonlar!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I. A. Xiva shahrining 2500 yilligida so'zlangan nutq // "Xorazm haqiqati", 1997-yil 21-oktyabr.
3. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: O'zbekiston, 1998.
4. Karimov I.A. Xorazm – muqaddas zamin. To'plovchi K.Nurjonov. Urganch: Xorazm, 1998.
5. Abulg'ozii Shajaraiy turk. T., 1992.
6. Abdurasulov A. Xiva. T.: "O'zbekiston", 1997.
7. Abdullayev K. Naqshlarga bitilgan umr. T., 1995.
8. Ayyomiy. O't chaqnagan satrlar. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
9. Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. T.: "Kamalak", 1991.
10. Bobojon Tarroh Azizov– Xodim. Xorazm navozandalari. T.: "G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
11. Bulatova V.A., Notkin I.I. Xivaning arxitektura yodgorliklari, T., 1963.
12. Gulnor al-Farg'oniy, Madrasalarda qanday o'qitilgan? / "O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi", 2007-yil 27-iyun, 6-bet.
13. Davletov B., Ibragimov O. Muzeyshunoslik atamalarining izohli lug'ati. T.: "Adolat", 2005.
14. Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul. Feruz – Shoh va Shoir qismati. T.: "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi", 1991.
15. Jo'raev G.. Vaqf nima?. / "Sharqshunoslik" T.1991-yil, 2-soni. 34-47-b.
16. Zohidov P.Sh. Me'mor san'ati. T., 1978.
17. Islom entsiklopediyasi, T., "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
18. Yo'ldoshyev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. T., 1959.

19. Karimov B. Muhammad Aminxon madrasasi va minorasi. Xiva, 2002.
20. Laffasiy. Tazkirai shuaro. Qo'lyozma.
21. Lunin B.V. A.Vamborning chop etilgan asarlari. T., 1990.
22. Mankovskaya L., Bulatova V. Pamyatniki zodchestva Xorezma. T., 1978.
23. Mirkarim Osim. Karvon yo'llarida. T.: "G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1987.
24. Mulla Olim Mahdum Hoji. Turkiston tarixi. T., 1992.
25. Muxtasar (Shariat qonunlariga qisqacha sharh) T.: "Cho'lpon", 1995.
26. Muhammadsharif Matyoqubov. Sherg'ozixon madrasasi. Xiva, 2002.
27. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar, VI jild, "Jomeal -voqeoti sultoniy" tarixiy asardan parchalar. T., "G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1980.
28. Notkin I.I. Toshhovli. T., 1968.
29. Olimjonov A. Maxambet nayzasi. T.: "G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1975.
30. Proekt "UzNIPI restavratsii".
31. Safoyev A. Komil Xorazmiy va avlodlari. Urganch, 2004.
32. Xiva – ochiq osmon ostidagi muzey. T., 1982.
33. Xiva – ochiq osmon ostidagi muzey. Istanbul, 1994.
34. Xiva – ming gumbaz shahri. T., 1997.
35. Xiva Ichan qal'a Davlat muzey qo'riqxonasi, fond bo'limi, KP-2369.
36. Xiva – sharq gavhari. Jurnal. 2001.
37. A.Boltayevning Xiva shahri to'g'risidagi xotiralari. Qo'lyozma.
38. Xudayberganov K. Xiva xonlari shajarasi. Xiva, 1996.
39. Xudayberganov K. Yozuvlarga yashiringan tarix. Xiva, 1996.
40. Choriyev Z. Tarix atamalarining qisqacha lug'ati. T.: "Sharq", 1998.
41. Eshjonova Sh. Ogahiy tug'ilgan qishloq. Urganch, 1999.
42. Yusupov S., Yusupov Yu.(Ayyomiy). Xorazm shoirlari. T., 1967.
43. G'ulomov Ya.G'.Xorazmning sug'orilish tarixi. T., 1959.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
Qadimiy va navqiron – Xiva	5
Qalʼa devorlari va darvozalari	11
Ota darvoza.....	15
Muhammad Aminxon madrasasi va minorasi	16
Matniyoz Devonbegi madrasasi	22
Polvon qori savdo uyi	23
Koʻhna Ark	23
Xiva xonining qabul marosimi	26
Muhammad Rahimxon (Feruz) madrasasi	30
Sayid Alovuddin maqbarasi	33
Uy-joy qurish memorchiligi	34
Qozi Kalon madrasasi	37
Qorixonalar	37
Muhammad Rasul mirzaboshi madrasasi	40
Shergʻozixon madrasasi	41
Pahlavon Mahmud maqbarasi	45
Islom Xoʻja madrasasi va minorasi	49
Tolib Maxsum madrasasi	51
Rus tuzem (yangi usul) maktabi	52
Juma Masjid	55
Matpanaboy madrasasi	58
Muhammad Amin Inoq madrasasi	58
Qutlugʻ Murod Inoq madrasasi	59
Olloqulixon saroyi - Toshhovli	62
Olloqulixon Karvonsaroyi va timi	66
Olloqulixon madrasasi	68
Xurjun madrasasi	71
Polvon darvoza	72
Oqmasjid	73
Anushaxon hammomi	74
Abdullaxon madrasasi	78
Ichan qalʼadan tashqarida joylashgan durdonalar	78
Sayid Sholikorboy masjidi majmuasi	78
Rahimqulixon madrasasi	80
Polvon qori madrasasi va minorasi	81
Obdolbobo majmuasi va minorasi	81
Toʻrt Shabboz bobo majmuasi	82
Nurullaboy saroyi	86
Sayid Mohi roʻyi jahon majmuasi.....	91
Shayx Mavlton bobo majmuasi.....	93
Qibla toza bogʻ	94
Foydalanilgan adabiyotlar	96

Xiva Ichan qal'a Davlat muzey qo'riqxonasi
Xorazm Ma'mun akademiyasi

D.Bobojonov, M.Abdurasulov

Firdavsmonand shahar
(Yo'l ko'rsatkich, risola)

Mas'ul muharrir: M.S.Abdullaev

Texn. Texnik muharrir: G.Artikbaeva

Harf Harf teruvchi: S.Ibadullaeva

Terishga berildi: 14.05.2008 y. Bosishga ruxsat etildi: 16.05.2008 y.
Hajmi: 6.25 b.t. Adadi: 500 nusxa. Buyurtma: № 28T
Bahosi Shartnoma asosida.

“Xorazm Ma'mun akademiyasi ” nashriyoti.
Xorazm Ma'mun akademiyasi kichik bosmaxonasida bosildi.
Bosmaxona manzili: Xiva shahri, Markaz-1.